O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI

Hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalari

MODULI BO‘YICHA
O‘QUV – USLUBIY
MAJMUA

2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI

“HOZIRGI ZAMON FALSAFASINING NAZARIY MASALALARI”

MODULI BO‘YICHA

O‘ Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

Toshkent – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: O‘zMU, “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasi professori, f.f.d., B.T. To‘ychiyev, O‘zMU, “Falsafa va mantiq” kafedrasi dots.v.b., PhD- X.Toshov

Taqrizchilar: f.f.d., prof. I.Saifnazarov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
f.f.d., prof. A.Muxtorov - TDIU, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri

O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024- yil “29” noyabrdagi 4-sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR..... 5

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI..... 15

III. NAZARIY MATERIALLAR..... 19

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI..... 116

V. KO'CHMA MASHG'ULOT MATERIALLARI.....123

VI. GLOSSARIY..... . 125

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 140

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalarini o‘rganish, argumentlash nazariyasi va mantiqiy

tafakkurni rivojlantirish metodikasidan foydalanish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Falsafa**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;

-o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“**Falsafa**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonunlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
- zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
- ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
- bilimlarni sinash va baholashning aqlli tizimlarini;
- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
- zamonaviy ta’limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;

- kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- Tinglovchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida Tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari,tamoyillari va mezonlarini;
- neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalarini;
- falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalarini;
- diniy qadriyatlarni;
- ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalarini;
- agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlarni;
- ishonch- e’tiqodning tiplarini;
- kommunikatsiyada haqiqat va yolg‘on dilemmasining mavjudlik sabablarini;
- argumentlash va qadriyatlarni;
- madaniy semiotik sistemalarning ko‘rinishlarini;
- baholash va baholovchi mulohazalarni;
- mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalarini;
- dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosiligini

bilishi kerak.

Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- Tinglovchilarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- Tinglovchilarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlilini amalga oshirish;
- pragmatizim falsafasi va uning zamonaviy talqinini amalga oshirish;
- madaniy semiotik sistema tushunchasini izohlash;
- argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko‘ra tasniflash;
- O‘zbekistonda yangilanish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslaridan foydalanish;
- madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi va mohiyatini ochib berish;
- axloqiy va diniy qadriyatlarni argumentlashda savol-javob texnikasidan foydalanish;
- ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni va mohiyatini o‘zlashtirish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;
- ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va

shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;

- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot)ni tahlil etish va baholash;
- Tinglovchilarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- Tinglovchilarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifini amalga oshirish;
- dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish;
- diniy qadriyatlarni argumentlash va tahlil etish;
- argumentlashda ishonchlilik va maqbullikni tadbiq etish;
- yolg‘onning ikki ko‘rinishi va uni ajratish usullarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda Tinglovchilarning ilmiy tadqiqotlarini tashkil etishda va ularni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda argumentlash usullari va vositalarini qo‘llash;
- axloqiy va diniy qadriyatlarni argumentlashda tadbiq etiladigan savol-javob texnikasi asoslarini o‘zlashtirish;
- kundalik, maishiy hayotda argumentlashni qo‘llash;
- argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanish asoslarini yoritib berish ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;
- yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
- oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini

o‘zlashtirish;

- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta’limdagi ta’sirini ochib berish;
- sun’iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- Tinglovchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- Tinglovchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- Tinglovchilarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- falsafiy argumentlashning o‘ziga xosligini asoslab berish;
- tarkibiy funksional yondashuvning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rnini baholash;
- argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasidan foydalanish;
- gnoseologik ta’limotlar va ularning zamonaviy tahlilini amalga oshirish;
- ahloqiy qadriyatlar va ularni argumentlashning o‘ziga xosligini yoritib berish

kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim**.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”,“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta‘lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari” ,“ Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar falsafiy fanlarni, jumladan mantiqni o‘qitish jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlarini va bu boradagi ilg‘or tajribalarni o‘rganadilar, hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog‘lash, ularni amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

“Hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalari” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaiy mashg’ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot
1.	**Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni.** Sistema, element, struktura va funksiya falsafiy tushunchalar sifatida.	4	2	2	6
2.	**Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.** Gnoseologik ta’limotlar va ularning zamonaviy tahlili.	10	2	2	
3.	**Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar.** Pragmatizim falsafasi va uning zamonaviy talqini.	4	2	2	6
4.	**Analitik falsafaning vujudga kelishi.** O‘zbekistonda yangilanish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslari.	10	2	2	
	Jami:	**28**	**8**	**8**	**12**

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni. (2 soat)

1.1. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari.

1.2. Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari.

1.3. Tarkibiy funksional yondashuv.

2-Mavzu: Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili. (2 soat)

2.1. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.

2.2. Falsafada ong masalasi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni.

2.3. Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.

3-Mavzu: Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar. (2 soat)

3.1. Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar.

3.2. Fanda metod va metodologiya tushunchasi.

3.3. Ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifi.

4-Mavzu. Analitik falsafaning vujudga kelishi. (2 soat)

4.1. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari.

4.2. Mantiqiy pozitivizm neopozitivizmning shakli sifatida

4.3. Analitik epistemologiya.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Sistema, element, struktura va funksiya falsafiy tushunchalar sifatida. (2 soat)

2-amaliy mashg‘ulot: Gnoseologik ta’limotlar va ularning zamonaviy tahlili. (2 soat)

3- amaliy mashg‘ulot: Pragmatizim falsafasi va uning zamonaviy talqini. (2 soat)

4-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekistonda yangilanish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslari. (2 soat)

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

Ko‘chma mashg‘ulotlar “Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni” (6 soat) hamda “Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar” (6 soat) mavzulari yuzasidan zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida olib boriladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. *KWHL:*
Know – nimalarni bilaman?
Want – nimani bilishni xohlayman?
How - qanday bilib olsam bo‘ladi?
Learn - nimani o‘rganib oldim?

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	*2.* ***Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:***
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	***4. Nimalarni bilib oldim:*** -

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mukin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif,kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

2.1-rasm.

“VEER” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlaro‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		**2-usul**		**3-usul**	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish

faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida Tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

“Insert” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda Tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III.NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni. (2 soat)

Reja:

1.1. *Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari.*
1.2. *Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari.*
1.3. *Tarkibiy funksional yondashuv.*

1.1. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari

Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o‘rganuvchi qismi ontologiya deb ataladi. Ontologiya so‘zi yunoncha ontos (mavjudlik) va *logos* (ta’limot) so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, «mavjudlik haqidagi ta’limot», ya’ni borliq haqidagi fan ma’nosini ifodalaydi.

Bu atama fan tarixida birinchi bor 1513 yil *R.Gokleniusning* «Falsafa lug‘ati»da, so‘ngra, *X.Volf* (1679 -1754)ning falsafaga oid darsligida qo‘llanilgan bo‘lsada, ulardan ilgari qadimgi yunon faylasuflari ham ontologiyaning mazmunini ifodalovchi turli fikrlarni ilgari surishgan. Ular ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta’limotdir» deb hisoblashgan. *Eley maktabi* namoyondalari esa ontologiyani mangu, o‘zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta’limot deb hisoblashgan. *Milet* va *Ioniya maktabi* vakillari esa dastlabki borliqning sifatiy talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni *Empedokl* «stixiya», *Demokrit* «atomlar», *Anaksimandr* «apeyron», *Anaksagor* «urug‘» deb atagan. *Aflotun* esa g‘oyalar ontologiyasini yaratgan. G‘oyalar ontologiyasi aql bilan erishiladigan mohiyatlar ierarxiyasini tashkil etib, uning yuqori nuqtasida Farovonlik g‘oyasi, undan keyin beto‘xtov oquvchi xilma-xil hissiy dunyoni aks ettiruvchi ideal namunalar, sonlar, geometrik shakllar yotadi. *Arastu* fikricha umumiylik ayrim holda yakka narsalardan chetda mavjud emas. Biz olamda ayrim narsalarga duch kelamiz va ulardagi bir-biriga o‘xshash jihatlarni umumlashtirib, abstrakt va ideal obraz hosil qilamiz. SHu tariqa Arastu empirizm ontologtyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo Yaqin va O‘rta sharqida IX-X asrlarda ijod qilgan *Al-Kindiy, Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino* singari mutafakkirlar yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta’limotni butunlay yangicha bosqichga ko‘tarishdi. Masalan, Forobiy ontologiyaga yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi talimot sifatida yondashgan.

O‘rta asrlar g‘arb falsafasida esa ontologiya teologiya bilan chambarchas bog‘lab tushuntiriladi. Bu davrda absolyut borliq xudo bilan, «sof» mohiyatlar ierarxiyasi bilan, «yaratilgan» borliq esa moddiy tabiat bilan aynanlashtirib talqin etilgan. *Sxolastik falsafa*da ontologiya substansial va aksidensial, aktual va potensial,

zaruriy va tasodifiy, ehtimoldagi va imkoniyatdagi borliq darajalarini ifodalovchi ta’limot sifatida qaralgan. Bu davrda borliq konsepsiyalari nominalizm, realizm va konseptualizm namoyondalarining universaliylarning ontologik mohiyatiga munosabati tarzida namoyon bo‘ladi.

Sharq falsafasida ontologiya ko‘proq ilohiy borliqning mohiyatini, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta’limot tarzida, sharq panteistik falsafasida esa *vahdatu mavjud* va *vahdatu vujud* ko‘rinishidagi ta’limotlar shaklida vujudga kelgan.

Xullas, borliq haqidagi muammo falsafada tarixan markaziy o‘rin egallaydi. Falsafa o‘rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda muhim ahamiyatga egadir, chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash gnoseologik va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi.

Borliqning o‘zi nima? Bu savolga javob berish uchun borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog‘liq ildizlariga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Kishilar qadimdan o‘zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va insoniyat haqida o‘ylar ekan, atrofida sodir bo‘lib turgan narsalar va hodisalarni, o‘zgarishlarni kuzatishgan. Ba’zi narsalar hozir mavjud, keyinchalik esa yo‘qolib ketadi, kecha yo‘q bo‘lgan ba’zi narsalar esa bugun paydo bo‘ladi. Shular asosida kishilarda *mavjudlik* va yo‘qlik haqida tasavvurlar, qarashlar vujudga kelgan.

Kishilar o‘zlarining ham dunyoga kelishi (tug‘ilishi), yashashi va nihoyat vafot etishi (o‘lishi), «yo‘qlikka aylanishi» haqida o‘ylay boshlashadi. Shu asosda kishilarning «bu dunyo» va «u dunyo» (narigi dunyo), ya’ni odamning vafotidan so‘ng uning ruhi ko‘chib o‘tadigan «dunyolar» haqidagi tasavvurlari paydo bo‘lgan. Kishilar o‘zlarining kundalik tajribalari asosida atrofidagi dunyoning hozir mavjudligi, o‘zlari tug‘ilmasdan ilgari ham mavjud bo‘lganligiga va keyinchalik ham mavjud bo‘lib qolishiga ishonishgan. Shu tarzda ularda «borliq» va «yo‘qlik» haqida tasavvurlar shakllangan.

Borliq turli konsepsiyalarda turlicha talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni muayyan moddiy jism, moddiy borliq sifatida tushuntirishadi, boshqalar esa uni g‘oyaviy, ma’naviy, ruhiy, ilohiy mohiyat shaklida tushunishadi. Abu Nasr Forobiy yagona borliqni 6 bosqichdan iborat deb hisoblagan: 1-ilk sabab (sababi-avval) - xudo; 2-sabab - (sababi- soniy) - samoviy jismlar borlig‘i; 3-sabab - faol aql (al-aql al-faol); 4-sabab - jon (an-nafs); 5-sabab - shakl (as-surat); 6-sabab - modda (al-modda). Bu bosqichlar bir-biri bilan sababiy bog‘langan bo‘lib, ular barcha mavjudlikning boshlang‘ichi hisoblanadi.

Borliq tushunchasi atrofida faylasuflar har doim keskin munozaralar, tortishuvlar, bahslar olib borishgan va bu bahslar haligacha davom etmoqda. Xullas, «borliq» falsafadagi eng umumiy tushunchadir. Borliqqa aksil tushuncha sifatida «*yo‘qlik*» tushunchasini ishlatishadi. Yo‘qlik hech nimani, ya’ni nazarda tutilgan joyda hech nima mavjud emasligini anglatadi.

Borliq ilgari mavjud bo‘lgan, hozir mavjud va kelajakda mavjud bo‘ladigan *ob’ektiv hamda sub’ektiv reallik*ni ham o‘ziga qamrab oladi. Ya’ni tabiat, inson, fikrlar, g‘oyalar, jamiyat hammasi turli shakllarda mavjuddir. Ularning barchasi mavjud bo‘lganligi uchun ham yaxlit yagona borliqni tashkil etadi.

Ko‘pincha borliqni inson ongidan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda *mavjud bo‘lgan reallikni* ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida ta’riflashadi. Bunday ta’rifning kamchiligi shundaki, bu ta’rifda borliq ob’ektiv reallik tushunchasi bilan aynanlashib qolgan.

Aslida esa borliq kategoriyasi umumiylashgan abstraksiya bo‘lib mavjudlik belgisi bo‘yicha turli xil hodisalar, predmetlar va jarayonlarni o‘zida birlashtiradi. Tabiiy ob’ektlar, ularning xossalari, aloqadorliklari va munosabatlari, kishilar jamoasi va ayrim odamlar, ijtimoiy tashkilotlar, inson ongining holati va boshqalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Borliq nafaqat predmetlarni, jismlarni, ob’ektiv reallikni, balki, ma’naviy hodisalarni, ruhiyatni, ong va tasavvurni, *sub’ektiv reallikni* ham o‘ziga qamrab oladi.

Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi. Bu sohalar uchun umumiy jihat - ularning mavjudligidadir. A.G.Spirkin shunday yozadi «Barcha mavjud narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha (fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma’naviy) jarayonlar ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. U chyqur hayolotning mevasi bo‘lgan ertak va afsonalar, hatto bemorning xayolidagi alahsirashlar ham, borliqning qismi bo‘lgan ma’naviy reallik sifatida mavjuddir». Shunday qilib «ruh va materiya, hech bo‘lmaganda mavjudlik sifatida umumiylikka egadir» *(I.Ditsgen).* Shubhasiz, ular bir--birlaridan farq ham qilishadi. Agar moddiylik va ma’naviylikni bir-biriga taqqoslasak, moddiylik sub’ektdan mustaqil ravishda, ma’naviylik esa unga bog‘liq ravishda mavjud bo‘ladi. Shunday qilib, borliq mohiyat jihatidan *moddiy borliq* va *ma’naviy borliqqa* bo‘linadi.

Falsafaga oid bir darslikda haqli ravishda shunday deb yozilgan: «Borliq - bu tushunishni talab qiladigan va tushunish asosida yuzaga chiqadigan, shakllanadigan narsa. Borliq - bu predmetlarning ko‘rinishi yoki shakllaridan biri emas, predmetlar sinfining umumiy tushunchasi ham emas, borliq - bu mavjudlikning borlig‘idir. Borliq - bu borliqni anglashda nima kutilayotgan va tushunilayotgan bo‘lsa, o‘shanig o‘zidir». Bu ta’rifdan, borliqqa qaysi jihatdan yondashsak - u o‘sha xususiyatni o‘zida mujassamlashtiradi, nimaiki voqiy bo‘lsa, borliq ularning hammasini o‘ziga qamrab oladi, degan ma’no kelib chiqadi. Shu jihatdan tadqiqotchilar borliqni turli shakllarga bo‘lib o‘rganishadi.

Borliqni shakllarga ajratishda uning asosida, mohiyatida nimalar yotishiga e’tibor qaratish lozim. Shu tariqa falsafada *substansiya* kategoriyasi shakllangan. Substansiya (lotin. *substantia* - mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) muayyan

narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo‘luvchi mohiyat.

Substansiya deyilganda falsafada dastlabki paytlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va hodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat ang-langan. O‘rta asr Sharq falsafasi namoyandalari al-Kindiy, Zakariyo Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlarida substansiya deb hamma narsaning moddiy yoki ma’naviy asosi, mohiyati tushunilgan. Substansiyaga qarama-qarshi tushuncha «*aksidensiya*» deb atalgan. Aksidensiya (lot. *accidentia* - o‘tkinchi, tasodifiy) narsa va hodisalarning o‘tkinchi sifatlarini ifodalaydi. Forobiyning yozishicha, «olamda substansiya va aksidensiya hamda ularni yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir»; «Aksidensiyani sezgilar oqrali his etish mumkin, substansiyani esa faqat aql anglab etadi»; «Masalan, olma - substansiya bo‘lsa, uning qizilligi esa aksidensiyadir». Substansiyani talqin etishda falsafada ikki xil - *ontologik va gnoseologik* yo‘nalish bor. Ontologik yo‘nalish bo‘yicha F.Bekon substansiya borliqning eng tub asosida yotadi deb hisoblagan va substansiyani muayyan narsalarning shakli bilan aynanlashtirgan. R.Dekart borliqning asosida ikki xil mustaqil substansiya: moddiy va ma’naviy substansiya yotadi deydi. Moddiy substansiya borliqning ko‘lami bilan, ma’naviy substansiya esa tafakkur bilan belgilanadi. B.Spinoza esa tafakkur va ko‘lam - ikki xil mustaqil substansiya emas, balki yagona substansiyaning ikki xil atributidir (atribut - ajralmas xususiyati degani). G.Leybnitsning fikricha, olamning asosida ko‘plab mustaqil substansiyalar (monadalar) yotadi.

Gnoseologik yo‘nalish bo‘yicha, substansiya olamning asosida yotuvchi shartli g‘oyalardan iboratdir (J.Lokk). J.Berkli esa ham moddiy, ham ma’naviy substansiyaning mavjudligini inkor etgan va u substansiya deb dunyoni idrok qilishning gipotetik assotsiatsiyasini anglagan. I.Kantning nuqtai nazaricha, «u shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtinchalik, o‘tkinchi hodisalarni aniqlash mumkin». Xegel «absolyut g‘oya», «absolyut ruh»ni substansiya deb qarab, uni narsalarning muhim, o‘zgaruvchan, rivojlanuvchi tomonlarining yaxlitligidir, deb hisoblaydi. Ba’zi bir hozirgi zamon falsafiy konsepsiyalarida substansiya kategoriyasiga nisbatan salbiy munosabatlarni kuzatish mumkin. Masalan, neopozitivistlar substansiya odamlarning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlarini qo‘pollashtiradi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, bu kategoriya borliqning mohiyatini sodda va jaydari ko‘rinishda tushunish natijasida paydo bo‘lgan.

Olamning tuzilishini tushunish yana bir tushuncha «substrat» kategoriyasi bilan ham bog‘langandir. *Substrat* (lot. *substratun* - asos, to‘shama, taglik) narsa va hodisalarning umumiy moddiy asosi; nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo‘lgan moddiy yoki g‘oyaviy tuzilmalar majmuasi. Ayrim falsafiy konsepsiyalarda substrat deb dunyoni tashkil etuvchi mutlaq elementar va bo‘linmas asoslar tushunilgan. Masalan, qadimgi Hind falsafasida olamning asosida to‘rtta bo‘linmas

unsur - suv, havo, tuproq va olov yotadi deb ta’lim beriladi. Bunday qarash Markaziy Osiyoda yaratilgan «Avesto» da ham uchraydi. Qadimgi Yunon falsafasida Levkipp, Demokrit, Epikur, Lukretsiy fikricha, dunyo atomlar va bo‘shliqdan tashkil topgan, Anaksimandr - apeyrondan, Aflotun - g‘oya, ruhdan, Fales - suvdan, Geraklit - olovdan iborat deb ta’lim bergan. Forobiyning yozishicha, qadimgi yunon faylasuflari har qanday narsa qandaydir bir substratdan tashkil topganligini uqtirish bilan bir qatorda, uning absolyut va o‘zgarmasligini ta’kidlashgan. Xullas, har qanday ob’ektning nimalardan tashkil topganligi, sistemaning asosida shu sistemani tashkil etuvchi asosni axtarish - substratni axtarishdir. Masalan, RNK, DNK va oqsillar biologik organizmlar uchun substrat bo‘lsa, EHMlarning asosida axborotlar almashuvi jarayoni substrat bo‘lib keladi. Borliqning asosida yotuvchi birlamchi mohiyatni axtarish - *substansial yondashuv* bo‘lsa, har qanday sistemaning, umuman borliqning nimalardan bunyod qilinganligini, tarkib topgan-ligini, tashkil topganligini, «qurilganligini» axtarish *substrakt yondashuvdir*.

Har ikkala yondashuvda ham birmuncha biryoqlamalik, voqelikni substansiya yoki substratga bog‘lab qo‘yish, uning murakkabligi va xilma-xilligini e’tibordan chetlashtirish ko‘zga tashlanadi. Aslida borliqqa yanada kengroq, umumiyroq nuqtai nazardan yondashish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashish borliqni yo‘qlik, ya’ni «hech nima» orqali ifodalash bilan bog‘langandir.

Borliq tushunchasiga qarama-qarshi tushuncha - bu *yo‘qlik*dir. Agar borliq tushunchasi *nimaningdir mavjudligini* ifodalasa, yo‘qlik tushunchasi esa o‘sha joyda nimaningdir *mavjud emasligini* anglatib, «*nima»*ning aksi bo‘lgan «*hech nima»*ni aks ettiradi. Borliq, yuqorida qayd etganimizdek, absolyut mazmunga ega bo‘lib, muayyan (konkret) narsalar shaklida va nisbatan muayyan sifatiy holda mavjud bo‘lgan yaxlit ob’ektiv va sub’ektiv reallikni o‘ziga qamrab oladi.

Yo‘qlik esa nisbiy mazmundagi tushuncha bo‘lib, qaerdadir yoki nimadadir, nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, yo‘qlik deb o‘tmishdagi va kelajakdagi hodisalarning hozirgi zamonda (ayni shu vaqtda) yo‘qligini aytishadi. Bugungi hodisa kecha hali yo‘q edi, ammo potensial (imkoniyatdagi) borliq sifatida mavjud edi. Ertangi hodisa ham hozircha yo‘qlik, ammo potensial borliqdir. Biz o‘tmishni bugungi kunda qoldirgan iziga qarab, kelajakni esa bugungi hodisalardagi o‘zgarish sur’ati (tempi) va tendensiyalariga qarab baholaymiz. Bugungi voqelik ertaga yo‘qlikka aylanadi, ko‘pgina tirik jonivorlar ertaga o‘lik bo‘ladi, ya’ni hayot o‘limga aylanadi. O‘lim - bu hayotning yo‘qligidir. Olingan individning hayotiy borlig‘i u o‘lgach, yo‘qlikka aylanadi. Ammo, uning qoldiqlari, tanasi birdan yo‘qolmasligi mumkin. Ular ham yo‘qolgach, odamlar xotirasida uning siymosi qolishi mumkin. Xullas, absolyut (mutlaq) yo‘qlikning o‘zi yo‘qdir. *Yo‘qlik* shu ma’noda *nisbiy* mazmun kasb etadi.

Yo‘qlik(hech nima)ni *gnoseologik ma’noda* ham tushunish mumkin. Biz yo‘q deb hisoblagan ob’ektlar hozircha bizning fikr doiramizdan (bilish chegarasidan)

chetda qolgan bo‘lishi ham mumkin. Voqelikning muayyan joyida ma’lum bir sinfga mansub ob’ektlar, ularning munosabat va aloqadorliklarining uchramasligini ham yo‘qlik deyish mumkin. Masalan, fizik vakuumda bizga ma’lum bo‘lgan biror fizik ob’ekt uchramaydi. Aslida, u joyda ham biz hali bilmaydigan shakldagi gipotetik olamlar va ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari, qonuniyatlari mavjuddir. O‘tgan asrlarda elektromagnit maydoni, ko‘pgina elementar zarrachalarning mavjudligi haqidagi tasavvurlar yo‘q edi. Aniqrog‘i, biz ularning mavjudligini bilmas edik. Ular biz uchun «yo‘qlik» hisoblanar edi. Mana shunga «borliq va yo‘qlikni gnoseologik tushunish» deyiladi.

Borliq voqelikning eng umumiy, ichki va tashqi, mohiyati va mazmuniga aloqador barcha jihatlarini aks ettirsa, *mavjudlik* esa voqelikning tashqi, ko‘zga tashlanadigan, shakliga aloqador va tajriba vositasida bilib olinadigan tomonini ifodalaydi. Borliq esa voqelikning chuqur mohiyatini ham qamrab olib, aql vositasidagina bilib olinadi, deyiladi. *Mavjudlik* so‘zi lotinchada *ex(s)istentia* deb atalib, bu so‘z lotincha - *ex(s)isto* dan olingan bo‘lib - mavjudman degan ma’noni anglatadi. Ekzistensializm – mavjudlik falsafasi shu so‘zdan olingan. *Reallik* esa borliqning muayyan ob’ektda mavjud bo‘lgan mujassamlashgan qismini ifodalaydi. Reallik borliqning ayni paytdagi mavjud qismidir.

Moddiy va g‘oyaviy borliq. Atrofimizni o‘rab turgan dunyo ikki xil reallikdan tashkil topgandir. Ob’ektiv reallik va sub’ektiv reallik. Ongimizdan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan reallik *ob’ektiv reallik* deyiladi. Bu tushunchani materialistlar materiya tushunchasi bilan aynan bir ma’noda ishlatishadi. Reallikning inson ongi bilan bog‘liq bo‘lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi *sub’ektiv reallik* deyiladi. Ob’ektiv reallik moddiy borliq tushunchasiga mos kelsa, sub’ektiv reallik esa borliqning g‘oyaviy shakliga muvofiq keladi. Materializm vakillari borliqning g‘oyaviy shakli moddiy shaklining maxsuli, deb hisoblashadi. Idealizm vakillari esa moddiylik g‘oyaviylikning ijodi yoki g‘oyaviylikning namoyon bo‘lish shaklidir.

Aktual va potensial borliq. Aktual borliq borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyon bo‘lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. Bu ob’ektiv reallik tushunchasiga mos keladi, chunki ob’ektiv reallik borliqning shu joyda berilgan va shu onda amal qilayotgan qismidir. Dunyoning hamma tomoni birdan berilgan emas. Biz borliqning hozirgi zamonga tegishli qismi bilangina aloqadamiz. Bu qismi o‘tmishga aylanib, uning o‘rnini kelajakdagi qismi egallaydi. Hozirgi zamonda kelgusi voqelikning kurtaklari mujassamlashgan bo‘ladi. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holidagi qismi potensial borliq deyiladi. Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan, salohiyotdagi aktual borliqdir.

Real va virtual borliq. Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday qismi ham

borki, uning bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual (lot. *virtuales* - ehtimol) borliq deyiladi.

Tabiiy va ijtimoiy borliq. Tabiiy borliq deganda odatda atrofimizdagi jismoniy narsalar (jismlar), jarayonlar, tabiatning holatlari nazarda tutiladi. Tabiiy borliq ikki qismga ajraladi: birinchisi - azaliy tabiiy borliq, ya’ni tabiatning tabiiy borlig‘i. U insondan ilgari insonning ishtirokisiz mavjud bo‘lgan. Buni *birlamchi tabiat* deb ham atashadi; ikkinchisi - inson ishtiroki bilan vujudga kelgan narsalar (jismlar), hodisa va jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi xosilaviy tabiiy borliq. Uni *ikkilamchi tabiat* deb ham atash mumkin.

Ikkilamchi tabiat doirasida borliqning quyidagi ko‘rinishlarini kuzatish mumkin:

- inson borlig‘i - insonning narsalar dunyosidagi borlig‘i va maxsus insoniy borliqdan iborat;

- ma’naviy borliq - individuallashgan va ob’ektivlashgan (individuallikdan tashqaridagi) ma’naviy borliqdan iborat;

- sotsial borliq - ayrim odamning jamiyatdagi va tarix jarayonidagi borlig‘i hamda jamiyatning borlig‘i - ijtimoiy borliq.

Olamda nimaiki mavjud bo‘lsa, ularning hammasi birgalikda keng ma’noda «*yaxlit dunyo»*ni tashkil etadi va uni ba’zan *«haqiqiy borliq»* deb ham atashadi. Forobiy barcha mavjud narsalarning yig‘indisi dunyoni tashkil qiladi, «hamma narsaning umumiy jinsi olamdir» va «olamdan tashqarida hech nima yo‘qdir» deb hisoblagan. Yaxlit holda butun dunyoning asosida nima yotadi? Bu savolga javob berishda faylasuflar turli xil konsepsiyalarda fikr yuritishadi. Bu joyda asosan uch xil muhim konsepsiyani ko‘rsatish mumkin. Ularga *monistik, dualistik* va *plyuralistik* konsepsiyalar kiradi.

aytishsa, idealistik monizm tarafdorlari dunyoning asosida bitta g‘oyaviy negiz, g‘oyaviy, ma’naviy, ilohiy substansiya yotadi deyishadi.

Dualizm (lot.*dualis* - ikkilangan) vakillarining fikricha, dunyoning asosida ikkita mustaqil negiz: ham moddiy, ham g‘oyaviy (ma’naviy, ilohiy) negiz yotadi, deb hisoblashadi. Arastu dualist bo‘lgan, uning fikricha, dunyoning asosida materiya va shakl yotadi, materiya passiv va inert negiz bo‘lsa, shakl esa faol, aktiv, yaratuvchan negizdir.

Plyuralizm (lot. *pluralis* - ko‘pchilik) vakillarining aytishicha, borliqning asosida ko‘plab, bir-biridan mustaqil moddiy va g‘oyaviy negizlar yotadi. Ayrim plyuralistlar moddiy negizlarga urg‘u berishadi. Ularni materialistik plyuralizm vakillari deyish mumkin. Masalan, qadimgi xitoy, qadimgi hind, qadimgi yunon materialistlari borliq olov, suv, havo va tuproqdan tashkil topgan deyishgan. Boshqa yo‘nalishdagi plyuralistlar esa ma’naviy, g‘oyaviy substansiyalarga ustuvorlik berishgan (ularni idealistik plyuralizm vakillari deyishadi). Masalan, Max va Avenarius dunyoning

asosida yotuvchi elementlar turli shakldagi sezgilardan iboratdir, deb hisoblaydi. Shuningdek, dunyoning asosida ko‘plab ham moddiy, ham ma’naviy (bir xil darajada) elementlar yotadi (Demokritda bu elementlar atomlar, Leybnitsda g‘oyaviy monadalar) deb hisoblovchi plyuralistlar ham bor.

Borliq bizning mavjudligimiz asosi, notirik, tirik tabiatning yashash usulidir. Borliq yo‘qdan bor bo‘lmaydi bordan yo‘q bo‘lmaydi. Dunyodagi barcha narsalar biri ikkinchisining mavjudligini taqozo qiladi. Borliqning asosi birlamchi tabiat va ikkilamchi tabiat bo‘lib, ular doimo uzviy aloqador.

Monizm (yunon. *monos* - bitta) konsepsiyasi vakillari dunyoning asosida bitta manba (bitta substansiya) yotadi deb hisoblashadi. Materialistik monizm tarafdorlari bu manba moddiy manbadir deb hisoblashadi.

1.2. Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari

Hozirgi davr insoniyat tarixining burilish davrlaridan biridir. Davrning ushbu xususiyatini jahonda, xususan mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Dunyoda va mamlakatimizda sodir bo‘layotgan hodisa – jarayonlarni tushunish, ularga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularni xozirgi kunning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baholash, voqelikdan oqilona xulosa chiqarish, pirovard natijada olam va odamni anglash falsafa fani sohalaridan biri bo‘lgan ijtimoiy falsafa haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etadi. Ijtimoiy borliq haqida haqqoniy bilimga ega bo‘lish uchun, avvalo, “ijtimoiy falsafa” tushunchasining mohiyati va mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bu tushuncha ba’zan “jamiyat falsafasi”, “sotsial falsafa” “inson falsafasi” shaklida xam qo‘llaniladi. “Ijtimoiy falsafa” tushunchasi “ijtimoiylik”, “ijtimoiy hodisa” “ijtimoiy jarayon” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tushunchalar jamiyatdagi voqea va hodisalar jarayonlarini ifodalaydi.

Ijtimoiy borliq, insonning biosotsial mohiyatini namoyon etish imkoniyatlari, ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy falsafaning fan sifatidagi bahs mavzularini tashkil etadi. Jamiyat bir butun yaxlit tizim sifatida rivojlanadimi? Uning harakatlantiruvchi kuchlari nimada? Ijtimoiy borliq nima? Uning murakkab xilma-xil qirralari nimalardan ibodat? Inson qanday paydo bo‘lgan, uning siru-asrorlari nimada? SHaxsning jamiyat taraqqiyotidagi roli qanday? Inson ijtimoiy borliq mohiyatini, uning istiqbolini avvaldan bilishga qodirmi? Umumbashariy muammolar, ularni hal qilish yo‘llari qanday? Mazkur savollarga javob berish va ilmiy falsafiy dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy falsafaning muhim vazifasidir.

Ijtimoiy falsafiy bilimlar qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan. Dastlabki ijtimoiy falsafiy bilimlar ko‘plab Sharq va G‘arb mamlakatlarida vujudga kelganligi jahon olimlari tomonidan e’tirof etilgan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy,

Misr, Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona, Shosh, Afrosiyob) inson va jamiyat, masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

CHunonchi Markaziy Osiyoda inson va tabiatga oid ijtimoiy falsafiy qarashlar “Avesto”dagi hikmat, maqol va rivoyatlarda o‘z ifodasini topgan. Qadimgi yunonlarning Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ilmiy-madaniy sohalardagi munosabatlar uchun keng yo‘l ochib bergan. Ayni paytda, bu aloqalar qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning rivojlanishi uchun ham imkon yaratgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Suqrot, Aflotun, Protogar, Geraklit, Arastuning inson, davlat, jamiyat, haqidagi bilimlarning rivojiga oid ta’limotlarini alohida ta’kidlash lozim. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik, xurfikrlilik ko‘plab ijtimoiy falsafiy oqimlar va maktablarning shakllanishiga olib kelgan. Antik dunyo yaratgan inson va jamiyat falsafasi Osiyo mutafakkirlarining ijodiy faoliyatida rivojlantirildi, ularning ilmiy qarashlari jamiyat va inson haqidagi fanning taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. G‘arbda Rim imperiyasining qulashi faqat siyosiy sohada emas, balki ilmiy-madaniy sohalarda xam tanazzulni kuchaytirdi. Biroq, inson va jamiyat hayoti bilan bog‘liq ta’limotlar, izlanishlar butunlay to‘xtab qolmagan. Bu davrda yaratilgan ilg‘or ijtimoiy falsafiy an’analar Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi, yangi kashfiyotlar qilindi. IX-XP asrlarda arab xalifalari Xorun ar- Rashid, uning o‘g‘li Ma’mun va xorazmshoh Ma’munning homiyligida o‘sha davrning o‘ziga xos fanlar akademiyalari xususan, IX asr o‘rtalarida Bag‘dodda «Bayt al-hikma» (“Donishmandlar uyi”), Xorazmda «Ma’mun akademiyasi» vujudga keldi. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan Muso al Xorazmiy, Ahmad al Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg‘inoniy va boshqalar jamiyatshunoslik, fikh, siyosatga oid fanlarni yanada rivojlantirdilar. Sharqda ilmiy ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan edi. O‘rta asrlarda yashagan Sharq olimlari qadimgi yunon mutafakkirlarining ilg‘or an’analarini davom ettirganlar, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etganlar.

Sharq falsafiy tafakkuri odil jamiyatga intilish barkamol inson shaxsini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirish, tabiat sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg‘or ilmiy qarashlari va asarlari Evropada ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Evropaliklar Albaron (Al-Beruniy), Avitsenna (Ibn Sino), Al-Fraganus (Al-Farg‘oniy), Ulug‘bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o‘rgandilar, ularning an’analarini davom ettirdilar. Masalan, buyuk italyan mutafakkiri Dante Alegeri «Ilohiy komediya» (XIV asr) asarida Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari qatoriga qo‘ydi va ulug‘lagan. Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo‘shgan hissalari matematika, algebra, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, geografiya, tibbiyot, tarix, tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol

ko‘zga tashlanadi. Muso al Xorazmiy matematikaning yangi sohasi – algebraga asos soldi. Ibn Sino «Tib qonunlari» asari bilan tibbiyotni ilmiy asosga qo‘ydi. Uning asarlari Evropada ko‘p asrlar davomida muhim qo‘llanma bo‘lib keldi va kelmoqda. Mirzo Ulug‘bekning astronomiyaga oid «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» asari jahon faniga qo‘shilgan muhim hissa bo‘ldi. Bu kabi qator asarlar hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Mavjud adabiyotlarda ta’kidlanishicha, Evropada fanning alohida faoliyat shakli sifatida rivojlanishi XVI- XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Iogann Kepler, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak Nyuton asarlari vujudga keldi. Ingliz mutafakkiri Frensis Bekon, fransuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish metodlarini ishlab chiqdilar. Fanning tabiatni o‘zlashtirish va jamiyatni takomillashtirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berib, «Bilim kuchdir» shiorini ilgari surdilar.

Bu davrda fan va falsafa, jamiyat falsafasi bir-biridan keskin ajralmagan edi. Ular o‘z asarlarini «pozitiv eksperimental falsafa» deb atar edilar. Evropada ilm-fan, ayniqsa, ijtimoiy falsafa rivojlanishi kishilarning olam haqidagi qarashlarini tubdan o‘zgartirdi. Jamiyatga dunyoviylik nuqtai nazaridan qarash imkoniyati vujudga keldi, ya’ni ijtimoiy voqelikka diniy qarashdan keskin farq qiladigan ilmiy yondashuv shakllandi.

Jahon ijtimoiy-falsafiy ta’limotining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq hamda G‘arb olimlari munosib hissa qo‘shdilar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum davrlarida Sharq mamlakatlari etakchilik mavqeini egallagan. Osiyo va Evropa mamlakatlari xalqlarining jahon falsafa fani rivojidagi rolini bir yoqlama bo‘rttirish yoki kamsitish xato. Har qanday fan, o‘z mohiyatiga ko‘ra, umumbashariydir. Er yuzidagi har bir xalq katta-kichikligidan qat’iy nazar, uning rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

XIX asrning o‘rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyusion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o‘zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o‘zgarishiga, jamiyat to‘g‘risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyotida yangi davr boshlanganidan dalolat berdi. Fizika sohasida optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o‘rganilishi, D.I.Mendeleevning elementlar davriy sistemasining yaratilishi, ximiya sohasida kimyoviy birikmalar xossalarining o‘rganilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabi ilmlarda yaqqol ko‘rindi. Bu davrda sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarni oqilona hal etish va jamiyat istiqbolini belgilash imkonini berdi. Evropa olimlarining tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsafiy ta’limotlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Xususan, I. Nyutonning kashfiyotlari tabiat va jamiyatning ilmiy manzarasini yaratishga, Charlz Darvinning ilmiy kashfiyotlari esa, butun olam evolyusiyasi to‘g‘risidagi falsafiy qarashning

shakllanishiga, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining mashhur vakillari Ismoilbek Gaspirali, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar O‘zbekistonda fan va ma’rifatni keng rivojlantirish g‘oyasini ilgari surdilar. O‘lkada o‘rta asrchilik bid’atlariga qarshi mavjud siyosiy tuzumni isloh qilish zarurligini anglab etdilar. O‘lka aholisini jahonning ilg‘or fan texnika yutuqlaridan bahramand etishga harakat qildilar. Biroq Rossiya tomonidan Turkistonning mustamlaka o‘lkaga aylantirilishi, mustabid tuzum Turkiston xalqlarining ilm-fan va zamonaviy texnika sirlarini egallashi, boy ma’naviy merosdan bahramand bo‘lishi, ajdodlarning ilg‘or ilmiy-madaniy an’analarini rivojlantirishga imkon bermadi.

Milliy mustaqillik tufayli xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy-intellektual merosini o‘rganish, jahon ilm-fan va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo‘lish, jahonning mashhur ilm dargohlarida o‘qish o‘rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, barkamol inson shaxsini shakllantirishda ilm-fan xulosalariga tayanish hayotiy zaruriyatga aylandi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilm fanni rivojlantirish islohotlar muvaffaqqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosi ekanligini har tomonlama asoslab berildi.

O‘zbekistonning jahondagi "taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, taraqqiy etishi, shubhasiz, uning ilm-fan salohiyatiga bevosita bog‘liq. Bu esa boshqa fanlar qatori ijtimoiy falsafa rivoji uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Ijtimoiy falsafani antropologiya bilan ayniylashtirish yaramaydi. Ijtimoiy falsafa uchun insonning o‘zi emas, balki undagi insoniylik (ijtimoiylik) muhimdir. Holbuki, antropologiya insonni ayni bir vaqtda ham biologik, ham psixologik mavjudot sifatida o‘rganadi. Ijtimoiy falsafa uchun insonning asosiy ijtimoiy sifatlari, uning hayoti va shu orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash muhimdir. Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro‘y beradigan hodisa va jarayonlarni tahlil qilishda muayyan tamoyillarga tayanadi:

Jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida yondashish. Bunda ijtimoiy tizim elementlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq deb qaraladi, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalari va ichki qonuniyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor beriladi.

Tarixiy yondashuv. Bunday yondashuvda jamiyat hayotida ro‘y beradigan hodisa hamda jarayonlar o‘zgarish va rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tizim tarkibiga kiruvchi har bir element boshqa elementlar bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganiladi. Zero ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda ularni tarixiy asosdan sun’iy ravishda ajratib olish yaramaydi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarning rivojlanish manbaini tashkil etuvchi ziddiyatlarni aniqlash hamda tahlil qilish, ham ijtiomiy falsafiy tadqiqot tamoyillari qatoriga kiradi.

Shu bilan birga ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tarixiy vorislik nuqtai nazaridan o‘rganish, taraqqiyotga halaqit berayotgan konservativ, reaksion hodisa va jarayonlarni aniqlash, jamiyat rivojlanishini tahlil qilishda mavhumlikdan aniqlikka va aksincha qarab borish ham mazkur fanga xosdir.

Ijtimoiy bilish o‘z mohiyat va mazmuniga ko‘ra, tabiiy-ilmiy bilishdan farqlanadi. Ijtimoiy bilishga muqarrar ravishda siyosiy mafkura, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy ideallar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu boisdan ham ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilishni bir-biri bilan ayniylashtirish yaramaydi. (Ijtimoiy bilimning o‘ziga xos xususiyatlari quyida alohida ko‘rib chiqiladi).

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro‘y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni miridan sirigacha, ularning juz’iy tomonlarini batafsil o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi. (Bu sotsiologiya fanining vazifasi).

Ma’lumki, biron-bir ijtimoiy fan jamiyat hayotida ro‘y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni to‘laligicha qamrab ololmaydi. Ijtimoiy falsafa jamiyatni bilishda faqat fan xulosalarigagina emas, balki badiiy adabiyot, san’at, din, siyosat, mafkura sohasida erishilgan yutuqlarga ham tayanadi. Hozirgi paytda ijtimoiy falsafada xilma-xil oqimlar va maktablar vujudga kelganligining boisi ham ana shunda.

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro‘y berayotgan jarayon va hodisalarning tub mohiyatini to‘laroq aks ettirib, ijtimoiy amaliyotdan uzilib qolmasagina qadr-qimmatga, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bu fanning insonparvarlik, taraqqiyparvarlik mohiyati shundaki, u jamiyatni aniq bir maqsadga muvofiq ravishda oqilona boshqarishga yordam beradi. Biroq boshqa tizimlarda bo‘lgani singari jamiyatda ham ba’zan onglilik ongsizlik bilan, tartiblilik tartibsizlik bilan almashinib turadi. Jamiyat a’zolarining intellektual salohiyati ortib borishi bilan jamiyatni ongli ravishda boshqarish, uni aniq bir maqsadga yo‘naltirish imkoniyati ortib boradi.

Ijtimoiy falsafaning dunyoqarash va metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan qoidalari barcha ijtimoiy hamda gumanitar fanlarning rivojlanishiga, jamiyatni ongli boshqarishga yaqindan yordam beradi.

Ijtimoiy falsafa qator funksiyalarni bajaradi. U, avvalo, kishilarda ijtimoiy voqelik to‘g‘risidagi qarashlarni shakllantiradi, odamlarning ijtimoiy borlig‘i bilan ularning ongi o‘rtasidagi munosabat muammosini hal etishga yordam beradi. Insonning jamiyatdagi o‘rni, roli, inson hayotining ma’nosi singari masalalar haqida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi ijtimoiy fanlarning rivojlanishi, hodisa va jarayonlarni tadqiq etishning umumiy yo‘nalishlarini belgilashda, uning qoidalaridan dasturul-amal sifatida foydalanishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ijtimoiy falsafaning prognostik funksiyasi shunda namoyon bo‘ladiki, uning qoidalari jamiyatning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko‘rishga, kishilar faoliyatini bilishga yordam beradi, kishilar faoliyati esa jamiyat taraqqiyoti mazmunini

belgilaydi. Kishilar falsafiy bilim, dunyoqarash va metodologiyani chuqurroq egallab borgani sayin ijtimoiy falsafaning yuqorida ko‘rib chiqilgan funksiyalari yanada to‘laroq namoyon bo‘ladi. Falsafiy tafakkur madaniyatiga ega bo‘lgan kishilarda izchil va tizimli fikrlash, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni dialektik bog‘liqlikda o‘rganish qobiliyati shakllanadi. Jamiyatning har bir ongli a’zosi o‘z kasb-kori va ixtisosidan qat’i nazar, jamiyat to‘g‘risidagi falsafiy bilim va ta’limotlarni chuqur egallash orqaligina tevarak-atrofda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilish, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi, bunyodkor, yaratuvchan kuchga aylanadi. Zero ijtimoiy falsafaning inson hayotidagi ahamiyati ham ana shunda.

Jamiyatni falsafiy bilish jamiyat to‘g‘risida eng umumiy bilimga ega bo‘lish, jamiyatni bir butun holda idrok etish demakdir. Bunday bilimga ega bo‘lish orqaligina jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida o‘rganish, uni tashkil etuvchi elementlar faoliyatini muvofiqlashtirishga erishish, jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlash mumkin. Jamiyat to‘g‘risidagi falsafiy bilim barcha ijtimoiy hodisalarning umumiy asosini aniqlashga, ya’ni ijtimoiy hayot barqarorligining fundamental mezonlarini belgilashga, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolishga imkon beradi.

Ijtimoiy falsafaning falsafiy bilimlar va ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni, roli hamda bahs mavzui singari masalalarga aniqlik kiritish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ijtimoiy falsafa va sotsiologiya, tarix falsafasi va ijtimoiy falsafaning o‘zaro munosabatini aniqlash hayotiy zaruriyatga aylandi. Gap shundaki, uzoq yillar davomida sobiq sovet jamiyatida o‘qitib kelingan tarixiy materializmga ayni bir vaqtda ham ijtimoiy falsafa, ham sotsiologiya sifatida qarab kelindi. Holbuki, ijtimoiy falsafa sotsiologiyadan o‘z predmeti, tushunchalari, bilish usullariga ko‘ra tubdan farq qiladi. Ijtimoiy falsafa-umumbashariy falsafaning tarkibiy qismi, yaxlit jamiyat to‘g‘risidagi ta’limot, empirik tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanib, konkret jamiyat to‘g‘risida aniq tushunchalar beradi. U sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning xulosalari, yutuqlariga tayanib, jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning o‘ziga xos taraqqiyot qonunlari to‘g‘risida umumiy tasavvurlar hosil qilishga imkon yaratadi. Ijtimoiy falsafa kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, uning mohiyati, insonning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi o‘rni va roli to‘g‘risida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni tadqiq etish bilan emas, balki jamiyat to‘g‘risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e’tibor beradi. Uning tushunchalari (jamiyat, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, xalq, millat, shaxs va h.o.) hayotda ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu tushunchalar umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan, ajralib turadi. Sotsiologik tushunchalar esa konkret va ilmiyligi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, sotsiologik tushunchalar (sotsial struktura, sotsial strafikatsiya, ijtimoiy harakat, ijtimoiy makon, mobillik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy

jarayon, ijtimoiy birlik, ijtimoiy institut va h.o.) alohida olingan konkret jamiyat (ijtimoiy tizim)ning turli tomonlari to‘g‘risida bilim beradi.

Har bir alohidalikda umumiylik va o‘ziga xoslik bor. Ijtimoiy falsafa butun e’tiborini alohidalikdagi umumiylikka qaratadi. Har bir xalq, mamlakat yoki konkret jamiyat taraqqiyoti qanchalik noyob, o‘ziga xos va betakror bo‘lishiga qaramay, o‘zida umumbashariylik, umumiylikning muhim belgilarini mujassamlashtiradi. Ana shu umumiy jihatlar qanchalik to‘laroq, yaqqolroq namoyon bo‘lishi bilan yaxlit jahon hamjamiyatining shakllanishi, umumiy tinchlik va totuvlikning qaror topishi uchun qulay ' imkoniyatlar vujudga kela boshlaydi.

Ijtimoiy falsafa barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarga, xususan, sotsiologiyaga yo‘nalish beradigan metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy fan vakillarining e’tiborini ijtimoiy organizmning normal faoliyat ko‘rsatishida, har bir a’zo (element)ning qanday rol o‘ynashiga, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga qaratadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat hayotining moddiy, ma’naviy, siyosiy, huquqiy, madaniy, badiiy-estetik, ekologik, etnik, milliy, demografik jihatlariga alohida e’tibor beradi.

Eng muhim, murakkab va dolzarb vazifa jamiyat hayotining eng muhim falsafiy muammolari xususida yangicha fikr yuritish, ilg‘or dunyoqarashni shakllantirishdir. Bunda avvalo, quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni yaxlit holda tasvirlabgina qolmay, balki ijtimoiy institutlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini ham belgilaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyat o‘zaro munosabati masalasi muhim o‘rin tutadi. Uchinchidan, ijtimoiy falsafa jamiyatning asoslarini, ya’ni mavjudlik shart-sharoitlarini aniqlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash muammolari ustida bosh qotiradi. Nihoyat, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni ilmiy bilishning metodologik masalalarini hal etadi.

Ijtimoiy falsafa boshqa ijtimoiy fanlar: iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, politologiya, tarix, huquq, statistika kabi fanlar bilan yaqin aloqador. U mazkur fanlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

a) ijtimoiy hayotni yuqori darajada tahlil qiladi, mavhum tushunchalar, qonunlar va tendensiyalarni ochib beradi, o‘z xulosalarini umumiy nazariya shaklida umumlashtiradi;

b) konkret ijtimoiy fanlar uchun ijtimoiy hodisalarni bilishda metodologik asos hisoblanadi;

v) jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari va tendensiyalarini o‘rganadi, u tarixiy taraqqiyotning umumiy nazariyasi hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafaning umumnazariy va metodologik vazifalari jamiyatning mohiyati, ijtimoiy hayotning asl mazmunini bilishda, jamiyatni yaxlit ijtimoiy sistema sifatida tadqiq etish, ijtimoiy hayotning asosiy sohalarini, jamiyatning moddiy va ma’naviy asoslarini atroflicha o‘rganish, tarixning mohiyati va ma’nosini

to‘g‘ri anglash, insonning falsafiy muammolarini tadqiq etishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy falsafa boshqa fanlarning ilmiy nazariyalarini ishlab chiqishda metodologik asos rolini o‘ynaydi. Har qanday ijtimoiy fan jamiyat rivojlanishi va inson to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotga tayanadi. U, avvalo, insonga xos “Men”ni namoyon etishni hayotiy zaruriyat ekanligini asoslab beradi o‘zi va jamiyat uchun, intiluvchi uchun, o‘z sharoitlarini o‘zgartirmoqchi bo‘lgan kishilar faoliyatining nazariy asosidir. Jamiyat ijtimoiy munosabatlarni tubdan isloh qilish, inson faoliyatini yanada faollashtirish, madaniyat resurslaridan to‘laroq foydalanishga ehtiyoj sezgan vaqtda ijtimoiy falsafaga murojaat qiladi.

Ijtimoiy falsafaning asosiy vazifalaridan biri jamiyat nima, uning inson hayoti uchun qanday ahamiyati bor, uning haqiqiy borlig‘i nimada va u bizdan nimani talab etadi singari savollarga javob berishdir.

Ijtimoiy falsafaning bilish ob’ekti ijtimoiy hayot va ijtimoiy jarayonlardir.

Bu fan jamiyatni bilishda unga xos bo‘lgan tabiiy tomonlarga, individual, jihatlarga emas, balki ijtimoiy hayotning umumiyqonuniyatlarini atroflicha tadqiq etishga ko‘proq e’tibor beradi. Ma’lumki, ijtimoiy hayot iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy harakat va ijtimoiy munosabatlarning asosiy sub’ektlari ijtimoiy guruhlar yoki yaxlit jamiyatdir. Ijtimoiy falsafa ana shu sotsial hodisalarning o‘zaro aloqalari, umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari to‘g‘risidagi falsafiy karashlar sistemasidir.

Ijtimoiy falsafa qator funksiyalarni bajaradi.

1. Gnoseologik funksiya yaxlit jamiyat rivojlanishining umumiy qonun va yo‘nalishlarini tadqiq etish, yirik ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy jarayonlar to‘g‘risida ilmiy bilimlar berish bilan bog‘liq.
2. Metodologik funksiya sotsial hodisalarni bilishning ilmiy metodlari to‘g‘risida bilimlar beradi; nazariya, kategoriya, qonun, prinsiyalarni ishlab chiqadi.
3. Ilmiy bashorat funksiyasi.
4. Dunyoqarash funksiyasi.
5. Aksiologik (qadriyatlar) funksiya.

Bu funksiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ular yaxlit holda ijtimoiy-falsafiy bilimlarning o‘ziga xosligi va mohiyatini belgilaydi. Ijtimoiy falsafa - o‘z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko‘ra oladigan fan. Uning asosiy vazifasi tarixiy voqealarni va ijtimoiy sistemaning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlari (tendensiyalari)ning hal qiluvchi omillarini aniqlashdir. Bu borada ijtimoiy falsafa bilishning turli-tuman nazariy modellaridan va usullaridan foydalanadi, bilish ob’ektiga har tomonlama tarixiy jarayonga jahon tarixi nuqtai nazaridan har tomonlama yondashadi. Unda formatsiyali, sivilizatsiyali, ko‘p variantli shakllar mavjud. Bunday turli-tuman yondashuvlar inson va jamiyat haqida to‘liq tasavvur

beradi. Ijtimoiy falsafa insonga tarixning sub'ekti va ob'ekti sifatida qaraydi, uning hayotdagi o'rni, umrining mazmuni, hayotining ma'nosi kabi masalalarga e'tibor qaratadi.

1.3 Tarkibiy funksional yondashuv.

Falsafada umumiy aloqadorlik tamoyili dialektik metod doirasida izchil ishlab chiqilgan.

Ma'lumki**, dialektika** (gr. bahs, suhbat san'ati, birinchi marta Suqrot ishlatgan)

1) voqealar bir-biri bilan bog'liq, aloqador

2) o'zaro taqozolangan

Tarix: avlodlar almashuvi

Davr: xilma-xil sohalar, avlodlar, yo'nalishlarning birgalikda mavjud bo'lishi va rivojlanishi.

Metafizika (gr. Aristotel asarlarining sistematizatori Andronik Rodosskiy ishlatgan).

Muayyan vaqt oralig'ida o'zgarmaydi. *Kriminalistika*

Sofistika fikrni ko'chma ma'noda ifodalashga asoslangan usul. "Zarbulmasal".

Sinergetika - olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababini bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan metod. N.Prigojin.

Bizni o'rab turgan voqelik o'zaro munosabatda, aloqada bo'lgan xilma-xil predmetlar, hodisalarning majmuidir.

Tarixda biz butun olamni bezovta qilmay turib hatto bitta barmog'imizni ham qimirlata olmaymiz degan qarash ham mavjud bo'lgan.

Leybnits fikricha, koinot bu o'ziga xos okean, undagi kichkina bir harakat ham eng uzoqlarda aks sado beradi.

Barcha hodisa va predmetlarni bir butunga birlashtiradigan aloqalar eng umumiy xarakterga ega. Bu aloqalarda dunyoning mohiyati, hayoti aks etadi. Bu aloqalar buziladigan bo'lsa hamma narsa izdan chiqadi. (**Quyoshning so'nishi).**

Demak, aloqadorlik (svyaz) hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikning umumiy ifodasi, ularning mavjudligi va rivojlanishi, o'zaro taqozolanganligining in'ikosidir.

Munosabat (otnoshenie) esa predmetlar va hodisalar umumiy aloqadorligining bir shakli, momentidir.

Haqiqatan ham, hamma narsa ikki holatda – «o'zi uchun» va «boshqalar uchun», ya'ni o'zgalar bilan munosabatda mavjud bo'ladi.

Turli xil munosabatlar mavjud:

farqlash ob'ektning qanday mezonlar asosida o'rgshanlishiga bog'liq: inson organizmi – ichki, funksional, genetik va h.k. nuqtai nazardan o'rganilshi mumkin.

Aloqadorlik bir tomonlama, ikki tomonlama, ko‘p tomonlama bo‘lishi ham mumkin. Masalan, funksional aloqadorlik ko‘p tomonlama, genetik aloqadorlik bir tomonlama aloqadorlikka misol bo‘la oladi. Zero, u hamisha o‘tmishdan kelajakka ynalitirlgan bo‘ladi.

Har qanday aloqa shakli uning mohiyatini, aytaylik, tasodifiy yoki zaruriy, doimiy yoki o‘tkinchi xarakterini belgilab beradigan **asosga** ega bo‘ladi. Masalan, **ehtiyoj va manfaatlar** kishilarning jamiyatdagi aloqalarining asosini tashkil etadi (Boyning qiziga uylanish).

Inson o‘z faoliyati bilan tabiatdagi aloqalarga, aksariyat hollarda kuchli salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi umumiy aloqadorlikning buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, o‘rmonning kesilishi – parandalar, hashorotlarning yo‘q bo‘lishi, daryolarning qurishi, er eroziyasi, hosilning kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Demak, o‘z holicha mavjud narsa yo‘q, bo‘lmaydi ham. Bizning nazarimizda shunday, xolos.

Ob’ektiv voqelikdagi umumiy aloqadorlikning mavjudligini tushunishga yordam beradigan kategoriyalardan biri o‘zaro ta’sir (vzaimodeystvie) tushunchasidir.

Sodir bo‘layotgan hodisalarning barchasi u yoki bu ko‘rinishdagi o‘zaro ta’sirning natijasidir. M., shamol bo‘lmasa daraxtning shoxi qimirlamaydi.

O‘zaro ta’sir turli ob’ektlarning bir-biriga ta’sir jarayonini, ularning o‘zaro taqozolanganligini, holatining o‘zgarishini, bir-biriga o‘tishini, biri ikkinchisini keltirib chiqarishini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir.

O‘zaro ta’sir ob’ektiv, universal va faol xarakterga ega. Predmetning xossasi faqat o‘zaro ta’sir jarayonidagina bilib olinishi mumkin. M., temirning qattiqligi boshga tushganda bilinadi. **Psixologik eksperiment – tuzli joy shirin – ustanovka.**

Fanda o‘zaro ta’sir turlarini ajratish **kuch (silovoe**) va **axborotga asoslangan ta’sirni** farqlash asosida malga oshiriladi. M., fizikada kuchga asolangan o‘zaro ta’sirning 4 turi: 1) gravitatsion 2)elektromagnit 3) kuchli 4) kuchsiz.

Biologiyada molekulyar, hujayra, organizm, populyasiya, tur, biotsenoz darajasidagi energetik va axborot ta’sirlashuvlari o‘rganiladi.

Jamiyatda murakkablashadi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, shaxs, oila, guruh, davlatlararo.

O‘zaro ta’sirning umumiy va xususiy-konkret ko‘rinishlarini tushunmay turib voqeklikdagi hodisa, jarayonlarning mohiyatini anglab bo‘lmaydi.

II. Olamda takomiliga etgan hech narsa yo‘q. Hamma narsa boshqa bir holatga o‘tish, etishish uchun haraktada bo‘ladi.

Rivojlanish moddiy va ideal ob’ektlarning yangi sifatiy holatini keltirib chiqaradigan qaytarilmas, zaruriy, yo‘nalishli va qonuniy o‘zgarishidir.

Qaytarilmas: sistemalarning siklik mavjudligidan farqli o‘laroq (Quyoshning chiqishi va botishi, Erning aylanishi) bosib o‘tilgan bosqichga qaytishning iloji yo‘q. Har bir bosqich bir marta bosib o‘tiladi **(M., Yoshlikdan qarilikka***).*

Yo‘nalishli: Yuqoridagi holatning o‘zidan ham rivojlanish muayyan yo‘nalishiga egaligi ko‘rinib turibdi. Yo‘nalishlilik rivojlanish jarayonida ob’ektning tashqi olam bilan ta’siri va ichki ziddiyatlari natijasida bir turdagi o‘zgarishlar to‘planib borishini ifodalaydi**.** Bu o‘zgarishlar majmui ob’ekt rivojlanish yo‘nalishini belgilab beradi.

Masalan, kasallik: ichki resurslarning ishlatib bo‘linishi-qarilik

Yoki ta’lim jarayonida tajribaning to‘planib borishi: ta’lim sohasidagi islohotni va sistmening o‘zgarishini tayyorlaydi.

Qonuniy o‘zgarish: Rivojlanish asosida tasodifiy hodisalar yomasligini ifodalaydi. U predmetning ichki mohiyatini, ob’ektning tashqi olam bilan ta’siri natijasida zaruriy tarzda kelib chiqadi.

Yangi sifatning paydo bo‘lishi yakuniy bosqich hisoblanadi: **M., o‘lim.**

Rivojlanish ikki yoqlama jarayon: ESKI yo‘qoladi, YANGI paydo bo‘ladi.

RIVOJLANISH = PROGRESS + REGRESS. Har ikkalasi ham qaytarilmasdir. Har qanday progress regressdir. Murakkab holatlarda progress va regress yonma-yon keladi. Masalan, faylasuf bo‘lmoqchisiz, sportchi bo‘lish qobiiyati yo‘qqa chiqishi mumkin.

Koinot miqyosida har ikki yo‘l ham ahamiyatlidir. Zero, har ikkalkasi ham yangi sifatning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Rivojlanish zamonda sodir bo‘ladi. Ayna ugina rivojlanishning yo‘nalishli va qaytarilmasligini aniqlashga xizmat qiladi.

Aynan mana shu holat tarixiylik prinsipining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Mifologiyada: Xudolar tug‘iladi, kurashadi, o‘ladi.

Geraklit: hamma narsa oqib turadi, o‘zgarib turadi.

Kant: Nebulyar nazariyasi.

Darvin: Evolyusion nazariya.

Ayna mana shunday qarashlar ortida tarixiy tafakkur yotadi.

Rivojlanish va tarixiylik prinsiplari ulkan metodologik ahamiyatga ega.

Hodisa, predmet, jarayonning shakllanish tarixini to‘g‘ri tushunish, uning mohiyatini bilish va oz bo‘lsa-da, taraqqiyotining keyingi bosqichini prognoz qilish imkonini beradi.

Tarixiylik prinsipining sotsial jarayonlarga tatbiq etilishi kishilik jamiyatining quyidagi xususiyatlarini ajratish imkonini beradi:

1. Jamiyat yangi ijtimoiy hodisa, jarayonlarning doimiy paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

2. Jamiyat tarixida progressiv tenedensiyalar ustuvor.

3. Jamiyat rivojlanish manbai har bir davrda hukmron bo‘lgan ziddiyatlardir.

Tarixiylik prinsipi o‘tmish, hozirgi davr va kelajakni yaxlit tasavvur qilish, birining ikkinchisidan kelib chiqishini tushunish imkonini beradi.

Tarixiylik prinsipi:

1. kishilik jamiyati rivojlanishining u yoki bu bosqichini bir butun, tugal holat sifatida qabul qilish;
2. shu asosda uning rivojlanish tenedensiyasini oldindan ko‘rish;
3. ijtimoiy rivojlanishda u yoki bu maqsadlarga erishish uchun konkret chora-tadbirlar tizmini ishlab chiqish imkonini beradi.

Boshqacha aytganda, kelajakda o‘tmish gavdalanishini anglashga yordam beradi.

O‘tmishni dogmalashtirish – xavfi: **tarixiy qoniqish.**

Tarixiy o‘z-o‘zini tanqid.

Sistema deganda o‘zaro aloqada bo‘luvchi va muayyan struktara, yaxlitlikka ega bo‘lgan elementlar majmui tushuniladi.

Element deganda murakkab predmetlar, hodisalar, jarayonlarning (ma’lum sistema, tahlilning muayyan usuli dorasida) o‘zaro aloqada bo‘ladigan tarkibiy qismi tushuniladi.

Struktura butunni (narsani) tashkil qiladigan elementlarning bog‘lanish usuli, qonuni, butun doirasidagi munosabatlar sistemasidir.

Ob’ekt o‘zaro aloqada bo‘ladigan tarkibiy qismlarga bo‘linishi mumkin bo‘lgandagina sistema sifatida qaralishi mumkin.

Bu qismlarning o‘zi ham odatda o‘zining strukturasiga ega bo‘ladi. SHuning uchun dastlabki, katta sistemanining sistemaosti (podsistema) sifatida ajratilishi mumkin.

Lekin sistemani qismlarga bo‘laverishning ma’lum bosqichida shunday elementlar ajratilishi mumkinki, bo‘lishni davom ettirish bu sistmeni o‘rganish doirasidan tashqariga chiqishi mumkin.

Masalan, organizmni sistema sifatida qismlarga bo‘lar ekanmiz, bo‘linishning atom darajasiga kirib boradigan bo‘lsak, u holda noorganik jarayonlar boshlanadi.

Yoki stanok zavod sistemasining elementi hisoblanadi. Detallar esa stanokning elementi hisoblanadi, aslo zavodning emas.

Yoki inson jamiyatning elementi hisoblanadi. Insonning biologik organizm sifatidagi elenmenti uning organlaridir. Shunday ekan, yurak jmiyatning elementi bo‘lishi mumkin emas.

Nazorat savollari:

1.1. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari xaqida nimalarni bilasiz?

1.2. Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari nimalardan iborat?

1.3. Tarkibiy funksional yondashuv nima?

Adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Falsafa. Darslik. //Ahmedova M.A. umumiy tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti., 2006.
2. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-e, pererabotannoe, dopolnennoe. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. – T.: Mehnat. 2004.
3. Shermuxamedova N.A. Falsafa.Darslik. -T.: Noshir, 2012.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Rasulev E., Igoshin V., Abdullaeva G. Osnovi filosofii. Uchebnoe posobie. –T.: Iqtisod-moliya, 2012.
2. To‘raev B. Borliq:mohiyati, shakllari, xususiyati. –T.:O‘zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.
3. Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa.Darslik.–T.:Fan va texnologiya, 2016.
4. Tulenova K.,Izzetova E.M.,Agaronyan Yu.A.,Li E.V.Osnovi filosofskoy nauki. Uchebnoe posobie.-T.: TGPU, 2015.
5. Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004.
6. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. –T.:Noshir,2012.
7. Shermuxamedova N.A.Gnoseologiya– bilish nazariyasi.–T.: Noshir, 2009.
8. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. Izohli lug‘at. –T.: Tamaddun, 2015.
9. Sharipov M. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. –T.: Unversitet, 2007.
10. To‘raev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. – T.,2009.
11. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. – T.: Universitet, 2009.
12. Muhammadjonova L.,Obidjonova F.Etiket.O‘quv qo‘llanma.–T.: Universitet, 2013.
13. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika / Monografiya. – T.: Noshir, 2012.
14. Karmin A.S., Bernaskiy G.G. Filosofiya. –M., 2009.
15. Slovar filosofskix terminov. –M.:Infra-M, 2010.
16. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. –M.: Gardariki, 2013.
17. Krivsun O.A. Estetika. –M.: Gardariki, 2013.

Internet saytlar:

1. http://www.ziyonet.uz
2. www.library.ziyonet uz.
3. http://www.faylasuf.uz
4. http://booksss.ru filosofiya//Slovar_Philosof.rar
5. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Alekseev P., Panin A. Filosofiya. M., 2014.
6. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/

Pod red. V.N. Lavrienko. M., 2013.

7. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.P. Koxanovskogo. M., 2013.

8. Biblioteka Fort/Da: http//yanko.lib/ru Filosofiya. Pod red. A.F.Zotova, V.V.Mironova, A.V.Razina. Uchebnik dlya vuzov. M.:MGU.2004.

9. LOGIC.RU Portal/ Biblioteka // http://logic.ru/ru Voyshvillo E.K., Degtyarev E.K. Logika.Uchebnik. –M.: Vlados, 2001.

10. http://logic.philosophy.pu.ru/Bocharov V.A.,Markin V.I.Osnovы logiki. M.: Forum-INFRA-M, 2005.

11. http://booksss.ru/logika// Bocharov V.A., Markin V.I. Vvedenie v logiku: Uchebnik. M.: ID «FORUM», 2008.

12. Nauchnaya biblioteka MGU http://www.lib.msu.ru Adorno T.V. Esteticheskaya teoriya. M., 2001.

2-mavzu: Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili. (2 soat)

Reja:

2.1. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.
2.2. Falsafada ong masalasi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni.
2.3.Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.

2.1. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.

Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o‘rganilmaydi, degan ma’noni anglatmaydi.

Bugungi kunda olimlar notirik, tirik dunyo va ijtimoiy dunyo nima, degan savollarga javob topishda jiddiy yutuqlarga erishganlar. Ular dunyo haqida o‘tgan asrlarda yashagan o‘z hamkasblariga qaraganda to‘laroq va teranroq tasavvurga egadirlar. Ammo, dunyoning mohiyati haqidagi ko‘pgina muhim savollarga hozir ham aniq va uzil-kesil javoblar mavjud emas. Masalan, nafaqat makon yoki vaqt tushunchalariga, balki nisbatan soddaroq hodisa bo‘lmish gravitatsiya tushunchasiga ham dunyoda biron-bir fizik bugungi kunda ham aniq (ayni paytda tajribada tasdiqlanadigan) ta’rif bera olmaydi.

Shu sababli insonning dunyo haqidagi qarashlarida muhim rol o‘ynaydigan, biroq ilmiy echimini topmagan muammolarni falsafiy anglab etishga kuchli ehtiyoj doimo mavjud bo‘lgan va hozir ham saqlanib qolmoqda. Bu muammolarning aksariyati haqli ravishda «boqiy» muammolar deb ataladi, chunki ular predmeti mos

kelsa ham bilish metodlari va vositalari har xil bo‘lgan fan va falsafa e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, fizika va boshqa muayyan fanlarga joiz bo‘lmagan narsalar falsafa uchun joizdir. Aniq dalillarga tayanadigan va ularga muvofiq qarashlar birligiga erishishga harakat qiladigan tabiatshunoslikdan farqli o‘laroq, falsafa yakdillikka intilmaydi va ayni bir muammolar bo‘yicha ba’zan qarama-qarshi, bir-birini istisno etuvchi javoblar beradi. Shu tariqa u dunyoqarashni kengaytiradi, eski muammolarning odatdagi talqinini o‘zgartiradi, aniq fanlarning metodlari bilan amalga tatbiq etiladigan yangi echimlar ustida ijodiy izlanishga da’vat etadi.

Shu tariqa falsafa evristik va metodologik rolni bajarar ekan, ayni zamonda o‘zi ham tabiatshunoslik oluvchi ishonchli natijalarga muhtoj bo‘ladi va ulardan yangi nazariyalar tuzish uchun asos sifatida foydalanadi. Shu sababli biz borliqning asosiy shakllari va fundamental asoslarini falsafa nuqtai nazaridan o‘rganar ekanmiz, albatta yo ishonchliligi shubha uyg‘otmaydigan, yo borliqni yaxshiroq tushuntirgani uchun qabul qilinadigan tabiiy-ilmiy material va daliliy ma’lumotlarga tayanamiz.

O‘quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o‘rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo‘lib, unda borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o‘rganiladi, shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo‘lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o‘zaklarga ega bo‘lib (ontos – borliq, logos – so‘z, ta’limot), borliq haqidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o‘rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydo bo‘ldi. Lekin ularning barchasi zamirida ontologiya yotadi. O‘z navbatida ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o‘z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko‘p jihatdan belgilaydi.

«Borliq» kategoriyasi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar apparatini tashkil etadigan ko‘p sonli falsafiy kategoriyalar orasida «borliq» kategoriyasi doimo markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki u har qanday predmet, hodisa, voqea va shu kabilarning eng muhim xususiyatini, aniqroq aytganda, ularning mavjud bo‘lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo‘lish, o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi.

Bu inson o‘zligini va o‘zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday ob’ektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Inson aqlli jonzot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o‘z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash keladi:

1. «Men kimman?»
2. «Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?»
3. «Borliq qanday va qaerdan paydo bo‘lgan?»
4. «Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?»
5. «Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsadga muvofiqlik, maqsad, mo‘ljal bormi?»

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi avvalo o‘zi nima bilan bevosita ish ko‘rayotganini qayd etadi. Buni aniq anglamasdan, u o‘zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq-ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. Shu tariqa inson va uning ongi o‘zini qurshagan barcha narsalar avvalo mavjud bo‘lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo‘lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazidan o‘rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydo bo‘lgani va qaerga yo‘qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma’no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur bo‘yicha ta’lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo‘lishlari lozimligini hisobga olib, bu erda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to‘xtalamiz va mazkur muammoni anglab etish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz.

Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Keltirilgan fikr amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. «Yo‘qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo‘lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo‘qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya’ni amalda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar) o‘zligini yo‘qotgan holda «yo‘qlik» atamasi ayni shu ma’noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo‘qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi.

Lekin sof falsafiy ma’noda bu fikrni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Borliq va yo‘qlik o‘rtasida dialektik o‘zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko‘ra, biz yashayotgan Olam bo‘shliqdan bino bo‘lgan. Bo‘shliq materiyaning alohida holati. Bo‘shliq fizik borliqning eng boy tipi, o‘ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo‘ladi, zero unda mumkin bo‘lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni zamonda unda aktual tarzda hech narsa yo‘q.

Yana shuni ham e’tiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshdan kechirayotgan turli Olamlarning cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu ma’noda borliq va yo‘qlikning o‘zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, amalda mavjud bo‘lgan narsaning ob’ektiv borlig‘i yo‘qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya’ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo‘lsa, bu narsa ongda mavjud bo‘ladi va o‘zining «ikkinchi» borlig‘ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki ob’ektning nusxasi, ideal obraz bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, *o‘tgan zamondagi borliq yo‘qlikdir*, deb aytish mumkin. *Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo‘ladi, u faqat hozirgi zamonda o‘zini namoyon etadi,* basharti u dolzarb va amalda namoyon bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lsa, agar u potensial, ya’ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo‘lishi ob’ektiv rivojlanish mantig‘i bilan belgilangan bo‘lsa. Amalda yo‘q bo‘lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O‘tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma’noda so‘z yuritishimiz mumkin.

Ayni shu ma’noda biz g‘oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o‘zimizga yaqin odamlar to‘g‘risida so‘z yuritamiz, bunda ular yo‘qlikka

aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o‘zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz.

Shunday qilib, **borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo‘lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi**. Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o‘z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo‘lmish insonni bilish yo‘lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, ko‘rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar sistemasi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi.

Inson o‘zi va umuman dunyo haqida o‘ylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko‘radi. Ayni zamonda u o‘zini qurshagan dunyoni sinchiklab o‘rganish va uning butun rang-barangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shak-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrotdan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o‘rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko‘ramiz.

Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to‘xtab qolmagan va o‘zini qurshagan borliqning ko‘p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Bugungi kunda insoniyat borliqning ko‘p sonli turli-tuman shakllaridan ularning ayniqsa aniq bo‘lgan bir nechtasini farqlash imkonini beradigan tajriba va bilim to‘pladi.

Borliq shakllari. Inson barcha jonli narsalar jonsiz narsalardan butunlay farq qilishiga qadimdayoq e’tibor bergan, lekin buni ancha keyin tushunib ketgan. O‘z navbatida, jonli narsalar dunyosida inson alohida o‘rin egallaydi. U barcha jonli narsalardan butunlay farq qiladi. Insonning bu asosiy farqi uning ongida, ideal obrazlar bilan ish ko‘rish, ya’ni abstrakt fikrlash va o‘zini fikrlovchi jonzot sifatida anglash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o‘rin oladigan o‘ziga xos piramida hosil bo‘ladi. Ya’ni borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq va inson borlig‘i kabilardir. So‘nggi yillarda

virtual borliq shakli haqida fikr yuritilmoqda. Borliqning bu umumiy shakllari o‘ziga xos xususiyatga, o‘zining betakror mohiyatiga egadir.

Tabiat borlig‘i. U mufassallashtiriladi va o‘z navbatida ,birlamchi tabiat borlig‘i (ya’ni inson va uning faoliyatidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig‘i)ga bo‘linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig‘i – bu butun tabiiy va sun’iy dunyo, shuningdek tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, er, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko‘zgudagi aks va sh.k.)dir.

Birlamchi tabiat borlig‘i ikki darajani o‘z ichiga oladi.

Birinchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, ya’ni ko‘payish qobiliyatiga ega bo‘lgan, atrof muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin ongga ega bo‘lmagan barcha narsalar, ya’ni sayyoramiz hayvonot va o‘simliklar dunyosini o‘z ichiga olgan butun biosferadan iborat.

Ikkinchi daraja – bu inson va inson ongining borlig‘i bo‘lib, bu: ikkilamchi tabiat inson yaratgan yoki o‘zgartirgan tabiatdir.Tabiat makon va vaqtda cheksiz hamda abadiydir. Ikkinchi yoki inson tomonidan yaratilgan tabiat birinchi tabiatga bog‘liq. Bir tomondan, ikkinchi tabiatda birinchi tabiat materiali, boshqacha aytganda ob’ektiv, birlamchi borliq mujassamlashgan, boshqa tomondan esa – unda insonning mehnati, irodasi va bilimlari, uning qalbi o‘z ifodasini topgan. Ikkilamchi tabiat – bu mehnat qurollari va sharoitlari, aloqa vositalari, inson ruhining ehtiyojlari, ma’rifatli borliq, moddiy va ma’naviy madaniyatni belgilovchi barcha narsalar va jarayonlardir.

Inson borlig‘ining. tahlilida insonning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson borlig‘ini farqlash o‘rinli bo‘ladi.

Inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va shu ma’noda uning qonunlariga bo‘ysunadi. Tananing mavjudligi inson o‘limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo‘qlik dialektikasi bilan bog‘lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo‘lish holatlaridan o‘tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o‘tadi. Inson tanasi mavjud bo‘lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish, sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini ta’minlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o‘z-o‘zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini ta’minlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat

mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, sof atrof muhitga ega bo‘lish ehtiyojida o‘z ifodasini topadi;

Ma’naviy borliq sub’ektiv individuallashgan va ob’ektiv (noindividual) ma’naviy borliq sifatida mavjud. Individuallashgan ma’naviy borliq - bu insonning ichki dunyosi. U onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko‘ra, ruh – individual ong bilan ayniy tushuncha, tor ma’noda esa u tafakkurdir. Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig‘ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek g‘oyalar, e’tiqodlar, qadriyatlar, mo‘ljallar, andozalarning ko‘rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo‘lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. Shaklan bu jarayon tartibsiz, lekin shu bilan bir vaqtda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud.

Inson ongi ayni vaqtda uning o‘z-o‘zini anglashi, ya’ni o‘z tanasi, fikrlari va tuyg‘ularini, o‘zining boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini va o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglab etishi, ya’ni o‘zini o‘zi bilishdir. O‘zlikni anglash – bu ongimizning o‘ziga xos markazidir.

Individual ong o‘zining o‘limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual ma’naviy shakl-shamoyil kasb etadi, shuningdek boshqa kishilar mulkiga aylanadi. Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari, mo‘ljallari, maqsadlari, g‘oyalari haqida xulosa chiqariladi.

Noindividual ma’naviy borliqning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va vaqtda erkin harakatlanadi;

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig‘i va jamiyatning o‘z borlig‘iga bo‘linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a’zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Xullas, «borliq» kategoriyasi o‘ta umumiy falsafiy abstraksiya bo‘lib, u turli-tuman tabiat hodisalari va jarayonlarini, odamlar jamoalari va ayrim kishilarni, ijtimoiy institutlarni, inson ongining darajalari, shakllari va holatlarini mavjudlik belgisiga ko‘ra birlashtiradi. Garchi bu hodisalar va jarayonlar borliqning turli sohalariga

taalluqli bo‘lsa-da, ularning barchasini umumiy asos birlashtiradi. Ammo cheksiz darajada rang-barang dunyoning yagonaligi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkinmi? Bu savolga «ha» deb javob berish orqali biz butun borliqning umumiy asosi haqida tasavvur hosil qilamiz.

Virtual borliq texnologiyasi *zamirida birinchi marta XX asr 60-yillarining o‘rtalarida paydo bo‘lgan kompyuterlar yordamida foydalanuvchi boshqara oladigan dunyolar model yaratish mumkin*, degan g‘oya yotadi. Virtual borliq tizimlari ilmiy davralarda texnologiyalar ongda o‘zgarish yasaydigan kelajakning qiyofasi xususida qizg‘in bahsga sabab bo‘lmoqda. Ammo virtual borliq tizimlarini ishlab chiqish va kiber maydonni yaratish inqilobiy - ijtimoiy natijaga olib keladi, degan fikrni virtual borliq texnologiyasining ilk yaratuvchilari ham, kiborg-postmodernizm nazariyachilari ham qo‘llab-quvvatlamoqda.

Inson qo‘lida dunyoni bilishning qudratli quroli, uning yordamchisi, ijodiy faoliyat uchun shart-sharoit yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi axborot texnologiyasi ayni vaqtda dunyoni bilishning an’anaviy verbal usulini audiovizual bilish usuli bilan almashtirmoqda, odamlarda sun’iy olamga kirish illyuziyasini vujudga keltirmoqdaki, ular bu sun’iy borliqni amalda mavjud borliq deb qabul qilmoqdalar. Bu borliq «virtual borliq» deb nomlanadi. Virtual negizga ega bo‘lgan bu borliq odatdagi fizik borliq bilan bir qatorda ob’ektiv tarzda mavjuddir.

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o‘ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. Virtual (lotincha Virtualis – mumkin bo‘lgan) – narsalar va hodisalarning zamon va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o‘laroq, ob’ektiv narsalar yoki sub’ektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi. «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun’iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar.

Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda ob’ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o‘rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun’iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo‘q narsa, uni qo‘l bilan tutish, uning ta’mi va hidini

his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o‘zgartira oladi. *Virtual olam – inson borlig‘ining o‘ziga xos shakli va odamlar ma’naviy aloqasining alohida madaniy shaklidir.*

Virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo‘lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga intilish bizga rivojlangan jamiyatlarda tobora katta rol o‘ynayotgan yangi tajribaning cheksiz imkoniyatlarini qo‘lga kiritish imkonini beradi, degan umid bilan bog‘liqdir. *Virtual borliq tizimlari bu tajribadan va insonning «yangi o‘ziga to‘qligi»dan foydalanish imkonini amalda ta’minlaydi*. Inson faqat o‘z tasavvuri bilan cheklanadigan sun’iy tarzda yaratiluvchi virtual olamlar orasida yashay boshlaydi. Bunday dunyoni yaratish mumkinmi? Biz o‘zimizda kiborglarni kashf etamizmi yoki faqat ongning kompyuterlar modellashtiruvchi muhit doirasidagi hozircha ifodalash mumkin bo‘lmagan holatlarining tajribasinimi - buni kelajak ko‘rsatadi.

Bu yaqinlashayotgan va kompyuter ekranlari yorug‘i bilan o‘ziga chorlayotgan holatlarni qanday baholash hamda tavsiflash mumkin? Hozirgi zamon odamining haqiqiy bo‘lmagan, g‘ayriinsoniy zombi holatidagi mavjudligi borliqni inkor etish demakdir. U shaklan boshqacha borliq, mazmunan esa yo‘qlik sifatida amal qiladi.

Borliqning yuqorida sanab o‘tilgan turli shakllari bugungi kunda fanga aniq ma’lum bo‘lgan, kuzatish, o‘rganish, tahlil, nazorat va hokazolar predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi. Ayni zamonda dunyo fan va inson aqli anglab etmagan jumboqlar va mo‘‘jizalarga to‘ladir. Ammo bu hol borliq haqidagi hozirgi tasavvurlar o‘z kuchini yo‘qotadigan qandaydir o‘zga dunyolar mavjudligidan dalolat beradi, deb aytish uchun etarli asoslar mavjud emas.

Borliqning turli shakllarini jonsiz tabiatdan boshlab mufassalroq ko‘rib chiqamiz, zero u hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan jonli va ijtimoiy tabiatning negizi hisoblanadi.

2.2. Falsafada ong masalasi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni.

Inson borlig‘ida ongning tabiati. Ong muammosini echishga nisbatan yangicha yondashuvlar hozirgi zamon falsafasining irratsionalistik oqimlariga (lot. Irra

Ongning tabiati.) mansub. Ong muammosi o‘ta murakkab muammolardan biri bo‘lib, falsafada doim qizg‘in bahs va munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. Bu bahs va munozaralar hozir ham tugagani yo‘q. Ongning tabiati shunday: u hissiy idrok etiladigan ob’ektiv borliqni tushunish va aks ettirish uchun biz yuqorida foydalangan aksariyat ko‘rsatkichlar va tavsiflarga mos kelmaydi. Ongni o‘lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo‘q, shuningdek u moddiy ob’ektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega emas.

Ong shak-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo‘lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Binobarin, inson borlig‘ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o‘z ichiga oladi, zero uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o‘rganiladi.

Ayni vaqtda mazkur muammo o‘ta murakkabligi tufayli uning falsafiy talqini ayrim fanlar uchun muhim metodologik rol o‘ynaydi. Ularning natijalari esa, o‘z navbatida, ongning tabiati xususidagi falsafiy mulohazalar uchun asos bo‘ladi. Ongning tabiati masalasining qo‘yilishi va unga berilgan tegishli javob, odatda, barcha keyingi falsafiy, chunonchi: ontologik, gnoseologik, ijtimoiy va boshqa mavzulardagi mulohazalarning yo‘nalishini belgilaydi.

Ong va jonning tenglashtirilishi. Atrof muhitda, o‘z ichki dunyosida yuz berayotgan o‘zgarishlarga odamlar qadim zamonlardayoq e’tibor berganlar. Bu jon va ruh haqidagi mulohazalar paydo bo‘lishiga olib kelgan. Shu tariqa bashariyat tarixida animizm - odamlar, hayvonlar hayoti, narsalar va hodisalarga jon va ruhlar ta’sir ko‘rsatishiga bo‘lgan e’tiqod paydo bo‘ldi, shu asnoda shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar keyinchalik u yoki bu tarzda turli dinlar negizini tashkil etdi.

Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar odatda muayyan birinchi asoslar (havo, olov, atomlar harakati va sh.k.) bilan bog‘langan va shaxssiz bo‘lgan, ya’ni inson tabiatining betakrorligi, uning individualligi bilan tenglashtirilmagan. Suqrotdan oldingi falsafa to‘laligicha shunday xususiyatga ega bo‘lib, bu erda ideallik tushunchasini deyarli uchratmaymiz. Masalan, olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan Geraklit jon (psixeya) olov yoki suvdan iborat bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari suradi. Olov ko‘proq bo‘lgan «quruq» jonni - eng oqil va maqbul deb hisoblaydi. Jon namlangach, o‘z kuchini yo‘qotadi, ho‘llangach esa – halok bo‘ladi.

Shu sababli jon olovi kuchliroq yonishi uchun faol ma’naviy va aqliy hayot kechirishga harakat qilish lozim. O‘z navbatida ayrim kishilarning jonlari butun dunyoning birinchi sababi hisoblanadigan va uni boshqaradigan dunyoviy aql olovi – «logos» bilan bog‘liq.

Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Yangi davrda ong haqidagi tasavvurlar ancha kengaydi. R.Dekart (1596-1650) ongni tafakkur bilan tenglashtirib, uni umumiyroq tusdagi «ruhiyat» tushunchasidan ajratdi va ongni mustaqil, erkin fikrlovchi substansiya deb hisoblab, yonma-yon joylashgan boshqa – ko‘lamli, fikrlamaydigan, moddiy substansiyaga qarshi qo‘ydi. Dualizm deb nomlangan mazkur falsafiy yondashuv keyinchalik ongning tabiatini tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shulardan biri ruhiyni jismoniyga (Gobs); ma’naviyni – moddiyga bog‘lash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv sub’ektiv (Berkli, Yum, Fixte, Max va boshqalar) va ob’ektiv (Platon, Foma Akvinskiy, Gegel) idealizm bilan bog‘liq bo‘lib, moddiy va jismoniy narsalar va hodisalarni ikkilamchi, ideal, ma’naviy, ruhiy narsalar va hodisalar mahsuli deb tushunishi bilan ajralib turadi.

Ikkala yondashuv ham nemis klassik falsafasida faol rivojlantirildi. Masalan, Gegel individual ongga butun rivojlanish negizi sanalgan mutlaq g‘oyaning pirovard shakllaridan biri sifatida yondashdi. Bu erda ong tarixan belgilangan faol asos sifatida tushuniladi. Mazkur asosda uning tuzilishi darajalari, xususan, hissiy, mantiqiy, individual va ijtimoiy darajalar farqlanadi.

Byuxner, Foxt, Moleshott kabi faylasuflar ongga «vulgar materializm» nuqtai nazaridan yondashadi. Bu yondashuvga ko‘ra ong sof moddiy jarayon sifatida talqin qilinar, uning mazmuni esa inson eydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog‘lanar edi. Ular jigardan safro ajralganidek, aqldan fikr ajraladi, deb hisoblagan.

Tabiatshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa neyrofiziologiya, biologiya, eksperimental psixologiya sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar so‘nggi yillarda bizning ong tabiati haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada kengaytirdi. Shunga qaramay, sun’iy intellekt yaratish borasidagi ishlar, «fikrlovchi mashinalar»ning paydo bo‘lishi va «axborot portlashi» va kompyuter inqilobining boshqa natijalari, xususan shaxmat o‘yinida hatto jahon chemionlarini ham yutishga qodir superkompyuterlarning yaratilishi inson ongining mohiyati va imkoniyatlari haqidagi masala yangidan qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, avvalgi savollarga javob olish barobarida yangi muammolar ham paydo bo‘ldi. Biroq ular ong muammosini

echishga nisbatan har xil, ba’zan bir-birini istisno etuvchi nuqtai nazarlar va falsafiy yondashuvlar sonini aslo kamaytirgani yo‘q.

Ongsizlik. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko‘proq qiyinchilik tug‘diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z.Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan.

Har xil tushlar, gallyusinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g‘oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo‘lish shakllariga misol bo‘lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtai nazaridan ularga bo‘ysunmaydi. SHu sababli **ongsizlik ongning muayyan lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo‘lmagan parchasi**, deyish mumkin.

Olimlar insonda onglilik va ongsizlikning o‘zaro nisbati to‘g‘risida so‘z yuritar ekanlar, ba’zan ularni okeandagi muztoqqa o‘xshatadilar. Bu muztog‘ning suv ustidagi ko‘zga ko‘rinadigan qismi ongga qiyoslanadi, suv ostidagi ko‘rinmaydigan qismi esa ongsizlikka o‘xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko‘ra faqat taxmin qilishimiz mumkin.

Individual ong borlig‘i. Inson ongini ilmiy tushunish yo‘lidagi birinchi qadam odamzot ongi uning miyasi va fiziologiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular umuman jonsiz yoki jonli tabiat bilan mutlaqo bog‘lanmaydigan alohida narsa sifatida mavjud ekanligini tan olish bilan bog‘liqdir.

Ong inson miyasining ob’ektiv borliqni ideal obrazlarda aks ettirish va bu obrazlardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati sifatida amal qiladi. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Ong faqat inson miyasi ishining natijasi, uning xossasi sifatida, shuningdek ong namoyon bo‘lishining fikrlar, g‘oyalar, e’tiqodlar, qadriyatlar, mo‘ljallar va shu kabilar tarzida ifodalangan turli shakllari orqali tadqiq etilishi mumkin.

Individual ong borlig‘ini odatdagi makon va vaqt koordinatalarida tavsiflash mumkin emas. U nafaqat doim «shu erda va hozir» mavjud bo‘ladi, balki go‘yoki makondan tashqarida yotadi, chunki biron-bir hajm yoki miqdoriy o‘lchanadigan chiziqli ko‘rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Vaqtda u (dalil sifatida, hodisa sifatida), har qanday narsaning borlig‘i kabi, faqat hozirgi zamonda mavjud bo‘ladi, zero u o‘tmishda yo‘q bo‘lgan, kelajakda esa hali mavjud emas. Biroq, moddiy narsalar borlig‘idan farqli o‘laroq, ong bir qancha o‘ziga xos xususiyatlar, chunonchi: vaqt shkalasi bo‘ylab o‘tmishga ham, kelajakka ham bir lahzada ko‘chish, ilgari mavjud bo‘lgan narsalar, yuz bergan voqealarni xayolda aks ettirish, paydo

bo‘lishi, yuz berishi mumkin bo‘lgan narsalar va voqealarni tasavvurda gavdalantirish qobiliyatiga egadir. Ammo o‘tmish yoki kelajakning ideal obrazlari hisoblangan ongni uning haqiqiy borlig‘ida o‘z ekranida tasvirlarni almashtiruvchi aylanuvchan kaleydoskop bilangina taqqoslash mumkin.

Ayrim kishilar borlig‘i haqida so‘z yuritganda, shuni ta’kidlash lozimki, u barcha jonli organizmlarda bo‘lganidek funksionalgina emas, balki o‘z shakllanish jarayonida muayyan bosqichlardan o‘tadi, bunda tana bilan bir qatorda ruh ham rivojlanadi. Garchi bu ikki jarayon dialektik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ulardan har birining rivojlanishi o‘z yo‘lidan boradi va asosan turli qonunlarga bo‘ysunadi. Ayrim kishilar bir-biriga o‘xshamasligi va ularning cheksiz darajada rang-barangligi shu hol bilan belgilanadi. Ular o‘z shakllanish jarayonining ayni bir bosqichlari - inson, individ, shaxsni har biri o‘zicha bosib o‘tadi.

Shaxs – insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa. Shaxs faqat jamiyatda, o‘ziga o‘xshash odamlar bilan muloqot qilish, o‘tgan avlodlar to‘plagan tajriba va bilimlarni, o‘ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish orqali shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham shaxs bo‘lish – ijtimoiy «qiyofa»ga ega bo‘lish demakdir. Bularning barchasi ijtimoiy borliqning turli holatlari va jarayonlarini tavsiflaydi. Ularni to‘la yoritish ijtimoiy falsafa muammolarining butun majmuini tahlil qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ong borlig‘i. Ijtimoiy borliqning o‘ziga xos xususiyatlariga nazar tashlasak, u borliqning biz yuqorida ko‘rib chiqqan boshqa barcha shakllaridan butunlay farq qilishini ko‘ramiz. Yaxlit holda olingan ijtimoiy «organizm» hayvonlar podasidan butunlay farq qiladi. Jamiyatning bu o‘ziga xos, betakror xususiyati falsafada «ijtimoiy ong», «jamoa aqli», «ob’ektivlashgan ma’naviyat» va hokazolar deb ataladi. U har xil shakllarda namoyon bo‘ladi.

Bu fikrni isbotlash uchun muloqot, kommunikatsiya, odamlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvi vositasi sanalgan tilni ko‘rib chiqamiz. Tilning ayrim kishilar ongi, g‘oyalari, fikrlari bilan uzviy bog‘liqligi aniq, ammo hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan til ijtimoiy tabiatga ega ekanligi ham shubhasizdir. Xuddi shuningdek til - inson nutqi odamlar jamiyatida paydo bo‘lgani va faqat shu erda mavjud bo‘lishi mumkin. Uning tashqi og‘zaki, ovoz ko‘rinishi, mazmuni, teranligi, kengligi, boyligi ko‘plab avlodlarning ko‘p asrlik o‘zaro aloqasi va o‘zaro kamol topishi mahsulidir. Bunda ayrim inson u yoki bu tilni faqat muloqot jarayonida o‘zlashtiradi. Ayni holda umuman til haqida so‘z yuritilmoqdaki, u tabiiy ham, sun’iy ham bo‘lishi mumkin.

Endi individual va jamoa (ijtimoiy) ma’naviyatining ideallar, meyorlar, qadriyatlar va tasavvurlarda aks etuvchi o‘xshash jihatlari va farqlariga to‘xtalamiz. Individual ma’naviy borlig‘dan farqli o‘laroq, ijtimoiy ma’naviy borlig‘ haqida uning fan, san’at, din, axloq va umuman madaniyat tarzidagi ko‘rinishlariga qarab hukm chiqarishimiz mumkin. Xususan, u yoki bu ilmiy g‘oyalarning paydo bo‘lishi doim muayyan olimlar bilan bog‘liq, ammo fan ijtimoiy hodisa sifatida muayyan shaxslar bilan bog‘lanmaydi, zero u ayrim olimlar ilgari surgan nazariy qoidalar majmuidan yuqoriroq darajada turadi. Bosma, audiovizual va boshqa axborot manbalari, tegishli asbob-uskunalar va shu kabilarsiz fanni tasavvur qilish mumkin emas. U yaxlit hodisa sifatida mustaqil borliqqa ega. Bugungi kunda, kompyuter texnologiyalari inqilobi davrida fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

San’at sohasi haqida ham shunday deyish mumkin. Qo‘shiqlar, raqslar va musiqa o‘z muayyan ijrochilariga ega bo‘lgan holda, o‘zining odatlar, rasm-rusumlar va ideallar ko‘rinishidagi nisbatan mustaqil hayoti bilan yashaydi va shu tariqa ijtimoiy makon va vaqtda harakatlanib saqlanishi, takomillashishi va ko‘payishi mumkin.

Ijtimoiy ongning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u, individual ongdan farqli o‘laroq, o‘z «tanasi»ni «tark eta» olmaydi, xuddi shuningdek u o‘z «tanasi»dan, ya’ni jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘lishi ham mumkin emas. Shu sababli ijtimoiy ong asrlar mobaynida abadiy mavjud bo‘lgan, yo‘q qilib bo‘lmaydigan narsa sifatida qaralgan, uning borlig‘i esa butun insoniyat borlig‘i yo‘q bo‘lishi bilan barham topishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo XX asrning o‘rtalarida odamlar o‘z-o‘zini qirg‘in qilish vositasi – yadro qurolini yaratdilar va shu paytdan e’tiboran insoniyat o‘zining «umrboqiyligi»ni yo‘qotdi va endilikda u, yashab qolishga harakat qiluvchi ayrim jonli organizm kabi, ijtimoiy hayotni o‘z-o‘zini qirg‘in qilishdan asrab, o‘z ijtimoiy borlig‘ini saqlash haqida qayg‘urishi lozim. Shu bois quyida ongning funksiyasini o‘rganamiz.

Ong falsafiy muammo sifatida. Ratsionalizmdan farqli o‘laroq irratsionalizm (irrationalis – nooqilona, ongsiz) borliqni oqilona anglash imkoniyatini cheklaydi, ba’zan esa butunlay inkor etadi. Xususan, neofreydizmning atoqli namoyandalaridan biri K.G.Yung (1875-1961) ongni ilmiy vositalar bilan bilish mumkin emas, deb hisoblagan va unga ta’rif berishga urinishlardan butunlay voz kechib, uni rasmlar va metaforalar yordamida tavsiflash bilangina kifoyalanishni taklif qilgan. Ongni tushunish irratsionalizm ekzistensializm va neopozitivizm kabi falsafiy oqimlarga ham xosdir.

Irratsionalizmga zid o‘laroq, ongni tushunishga nisbatan materialistik yondashuv ongning paydo bo‘lishini materiyaning o‘zi bilan tushuntirishga intilish, ayni vaqtda uning tabiat va vaqtdan tashqarida hamda nomoddiy kelib chiqishini inkor etish bilan tavsiflanadi. Bunday qarashlarni asoslash uchun ilmiy va amaliy yutuqlardan doim keng foydalanilgan. Mazkur yo‘nalish turli davrlarda sezuvchi, fikrlovchi materiyaning farqi va o‘ziga xos xususiyatlari nimada?, degan mushkul savollarga javob izlagan.

Mazkur muammoni to‘la va uzil-kesil tushunganlikni da’vo qilmasdan, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi zamon fani va *o‘zini bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi, uning funksiyasi sifatida amal qiladi va undan ayri holda namoyon bo‘lmaydi*, deb aytish imkonini beradi.

Hozirgi zamon fani inson miyasida yuz milliarddan ortiq asab hujayralari uzluksiz ishlashini, ularning har biri o‘z navbatida boshqa o‘n ming hujayra bilan axborot va signallar almashishini aniqlagan. Inson miyasi, garchi uning massasi tana massasining atigi ikki-uch foizini tashkil etsa-da, organizm ovqatdan oladigan butun energiyaning yigirma foiziga yaqinrog‘ini iste’mol qiladi.

Mazkur o‘ta murakkab biologik «kompyuter» ishini tadqiq etish mumkin bo‘lib, bu bilan maxsus fanlar shug‘ullanadi, ammo falsafa bunday tadqiqotlarni e’tiborga olib, o‘z oldiga birinchi navbatda ongning tabiati qanday, degan savolga uning vujudga kelishi va genezisini o‘rganish yo‘li bilan javob berish vazifasini qo‘yadi. Bunda falsafa inson miyasining funksiyasi sanalgan ongni o‘rganish bilangina cheklanmaydi, balki masalani kengroq qo‘yadi: ongning boshqa shakllari, xususan o‘zga moddiy tuzilmalardan paydo bo‘lgan ong shakllari mavjud bo‘lishi mumkinmi?, degan savolga javob izlaydi. Shuningdek, falsafa ongning materiyadan oldin paydo bo‘lgan yoki u bilan mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan mohiyat hisoblanishini nazarda tutadigan ta’limotlarni ham istisno etmaydi.

Shunga qaramay bugungi kun nuqtai nazaridan inson aqli tushunishga qodir bo‘lgan borliqqa tayanadigan falsafiy g‘oyalar ishonchliroq xususiyat kasb etadi. Shu ma’noda ong haqida hozircha faqat inson miyasi faoliyati munosabati bilan aniq so‘z yuritish mumkin.

Yangi tabiiy-ilmiy ma’lumotlar olinishi ongning tabiatini tushunishga nisbatan materialistik yondashuvlar mavqeini kuchaytirmoqda. Ammo, kezi kelganda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bu o‘ta murakkab masala xususida falsafaning materialistik yo‘nalishi vakillari o‘rtasida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, XX asrning 50-yillari oxirida AQSh va Avstraliyada ilmiy materializm vujudga keldi. U «vulgar

materializm» an’anasini davom ettirib, mohiyat e’tibori bilan ma’naviy hodisalarni miyaning fizik holatlari bilan tenglashtirdi (R.Rorti, G.Feygl, D.Armstron va boshqalar). 70-yillarda AQSh va Kanadada yana bir falsafiy yo‘nalish – «emerjentistik materializm» shakllandi (ingl. emerge – yuzaga chiqish, paydo bo‘lish, yuzaga kelish). Uning vakillari – M.Bunge, J.Margolis va boshqalar individul ruhiyat va ongning evolyusion kelib chiqishi g‘oyasini himoya qilib, ruhiy hodisalarni jismoniy hodisalarga bog‘lashga qarshi chiqdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ongning materialistik konsepsiyasi hozircha eng mukammal va hozirgi zamon tabiatshunosligi talablariga ko‘proq darajada javob beradigan falsafiy konsepsiya bo‘lib qolmoqda. Ayni shu sababli unga quyida mufassalroq to‘xtalamiz.

Ongning materialistik konsepsiyasi. Materialistlar ongning paydo bo‘lishini faqat notirik materiyadan tabiiy yo‘l bilan vujudga kelgan tirik materiyaning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qildilar va ong tabiatining talqiniga «in’ikos» tushunchasini kiritadilar. Uni materiyaning umumiy xossasi deb hisoblab, ongni in’ikosning oliy tipi deb tavsiflaydilar va ongning genezisiga tabiiy-tarixiy nuqtai nazardan yondashib, uning paydo bo‘lishini mehnat va til bilan bog‘laydi.

Bu nazariya ob’ektiv dunyoning barcha ob’ektlari, jarayonlari va hodisalari muttasil o‘zgarishda bo‘lishi, shuningdek bir-biri bilan universal o‘zaro aloqa qilishi va o‘zaro ta’sirga kirishishini e’tirof etadi.

Bunday o‘zaro ta’sirlar natijasida ayrim jismlar va hodisalar boshqa jismlar va hodisalarga ta’sir ko‘rsatib, ularda tegishli o‘zgarishlar yasash va ularni muayyan tarzda o‘zida gavdalantirish orqali ularda go‘yoki o‘z «izi»ni qoldiradi.

In’ikos - narsa va hodisalarning o‘zaro ta’sirlashuvi asosida hosil bo‘ladigan hodisa, holat, jarayon va o‘zgarishlarni ifodalaydi[1].

Tirik tabiatda in’ikos nisbatan sodda shakllari va passiv xususiyati bilan tavsiflanadi. Ya’ni, sirtdan ta’sirlanish natijasida narsalar va hodisalar o‘z mexanik, fizik yoki kimyoviy xususiyatlarini o‘zgartiradi, lekin mazkur o‘zaro ta’sirga javoban hech qanday faollik ko‘rsatmaydi. Bu erda qumdagi oyoq izlari yoki qadimgi organizmlar va o‘simliklarning tog‘ jinslaridagi izlari, fotosuratlar, ko‘zgudagi aks va shu kabilar misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Hayot paydo bo‘lgan paytdan e’tiboran in’ikosning butunlay boshqacha (biologik) shakli – ta’sirlanuvchanlik barcha jonli narsalarning atrof muhit ta’siriga munosabat bildirish qobiliyati sifatida vujudga keldi. Bu qobiliyat faqat sirtdan

ta’sirlarga nisbatan namoyon bo‘ladi. Jonli organizmlar evolyusiyasining yuqoriroq darajasida (hayvonot dunyosi – fauna vujudga kelishi bilan) ta’sirlanish qobiliyati butunlay boshqa xossa – sezuvchanchanlikka o‘tadi. Bu endi in’ikosning ruhiy shakli bo‘lib, u organizmlarda nerv sistemasi va ruhiyatning elementar shakllari paydo bo‘lishi natijasida vujudga keladi. Sezuvchanlik organizmlarning narsalarning ayrim xossalarini sezgilar tarzida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Sezgilar esa, o‘z navbatida, yuksak darajada uyushgan hayvonlarda, masalan umurtqali hayvonlarda in’ikosning yanada murakkabroq shakllari, xususan idrok etish va tasavvur qilish qobiliyatlari paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Bu in’ikosning ob’ektiv dunyo narsalari va hodisalari miyada ularning ideal nusxalari ko‘rinishida aks etadigan darajasidir. Bu erda «aqlli» hayvonlar miyasi imkoniyatlarining chegarasi namoyon bo‘ladi. Garchi ular o‘zini qurshagan dunyoning ideal obrazlarini tasavvur qilib, shu obrazlarga ko‘ra, masalan, o‘z egalarini tanisalar-da, ularning miyasi ideal obrazlar bilan fikrlash amallari tarzidagi maxsus ishni bajarishga qodir emas. Bu vazifani hal qilishga yuqoriroq darajadagi miya qodir bo‘lib, unga faqat insongina egadir.

Shunday qilib, biologik in’ikos sezish, idrok etish va tasavvur qilish kabi hissiy shakllarda amalga oshiriladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu erda fikrlash jarayonida namoyon bo‘ladigan ong mavjud emas. Ong borliqni aks ettirishning yuqoriroq darajasi bo‘lib, faqat ijtimoiy sohada mavjud bo‘lishi mumkin va inson miyasida avvalo abstrakt fikrlashning tushunish, mulohaza va mushohada yuritish kabi ideal shakllarida amalga oshiriladi. Inson ideal obrazlarni o‘z ongida umumlashtirib, shu tariqa ob’ektiv borliqni tushunchalarda (kategoriyalarda) aks ettiradi. Ularning o‘rtasida mantiqiy aloqa o‘rnatib, turli narsalar, hodisalar va shu kabilarning mohiyatini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri aks ettirish orqali ular haqida u yoki bu xulosaga keladi. Mushohada yuritib inson narsalar va hodisalarni biladi va shu tariqa borliqni ongning muhim xususiyati sanalgan abstrakt fikrlash orqali aks ettiradi.

In’kosning oliy shakli sifatida ongning paydo bo‘lishi «aqlli odam» (homo sapiens)ning shakllanish jarayoni bilan bog‘lanadi va avvalo mehnat faoliyati bilan belgilanadi. Mehnat qilish qobiliyati ruhiyatning rivojlanishida ulkan sakrash bo‘ldi. Maymun anatomiyasi va fiziologiyasidagi evolyusiya inson paydo bo‘lishiga zamin hozirlagan bo‘lsa, tabiati sof ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan mehnat mazkur jarayonning eng muhim omiliga aylandi.

Til va ong. Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlar o‘zaro aloqasi va muloqotining universal vositasi – til bilan ham uzviy bog‘liqdir. Aniq, tushunarli

nutqning paydo bo‘lishi, nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki insonning o‘zi, uning ongi rivojlanishining butunlay yangi va qudratli vositasiga aylandi, chunki biologik omil (irsiyat)dan tashqari odamlarda til yordamida yanada qudratliroq omil – tajriba va ijtimoiy muhim axborot berishning ijtimoiy usuli paydo bo‘ldi. Bu turli avlodlar va tarixiy davrlarning bilimlari, an’analari, madaniyatlarining vorisiyligini ta’minladi, so‘nggi zikr etilgan hol esa, o‘z navbatida, tilning yanada rivojlanishi va takomillashuviga turtki berdi va zamin hozirladi.

Shunday qilib, mehnat, ong va til bir-biri bilan shu darajada uzviy bog‘landiki, ulardan har birining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Bunda *til insonning fikrlash faoliyati amalga oshuvchi muhim shakl hisoblanadi, mehnat esa, o‘z navbatida, tilni rivojlantiradi va boyitadi*.

Xullas, individning ongi ijtimoiy belgilangandir, ya’ni u faqat jamiyatda shakllanadi va undan tashqarida paydo bo‘lishi mumkin emas. U nafaqat kelib chiqishiga ko‘ra, balki borliq usuli jihatidan ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki odamlarning xulq-atvori, harakatlarida namoyon bo‘ladi, ularning faoliyat yo‘nalishini belgilaydi.

Fikrlovchi odamning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘z ongi yordamida o‘zini, o‘zi yashayotgan muhitni tahlil qilib, o‘z «Meni» haqida tasavvur hosil qiladi va o‘zini bu borliqdan ajratib, shu tariqa o‘zligini shakllantiradi. Emotsiyalarga boy bo‘lgan va qadriyatlarga qarab mo‘ljal oluvchi inson ongi faol asos sifatida amal qiladi, chunki u borliqning passiv in’ikosi emas, balki fikrlash faoliyatining izchil, nazorat qilinadigan va boshqariladigan jarayoni hisoblanadi. Shu ma’noda u ijodiy faoliyat sifatida ham namoyon bo‘ladi, zero u nafaqat borliqni aks ettiradi, balki uni o‘zgartirib, borliqning yangi shakllarini yaratadi.

Bu erda har qanday ijodkor faoliyatining negizi, shuningdek inson yaratgan va yaratayotgan «ikkilamchi» tabiatning paydo bo‘lish asoslari mujassamlashadi. Aynan inson ongining faol va ijodiy xususiyati uni sun’iy intellekt manbalari – «aqlli», «fikrlovchi» mashinalar bilan bir qatorga qo‘yish imkonini bermaydi. Garchi ular axborotga ishlov berish borasida insondan ancha ustun va hatto ularning ishida «ijod» unsurlari ham namoyon bo‘lsa-da, lekin ular mashinalar bo‘lib qoladi. Ularning ishi ma’naviyatdan mahrum va umuman olganda odamlarning ongli faoliyati bilan tenglasha olmaydi. Bu faoliyat oldindan belgilangan har qanday dasturdan boyroq, zero madaniy jarayondan uning faol asosi sifatida o‘rin olgan va asosan madaniyat bilan belgilanadi.

2.3.Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati.

Fan borliqning tabiiy, ijtimoiy qonunlarini, shuningdek fikrlash hamda bilish qonunlarini topishga yo‘naltirilgan bilimlarni ishlab chiqish va rivojlantirish demakdir. Fan inson faoliyatining muayyan sohasi bo‘lib, uning maqsadi tushunchalar, nazariyalar, gipotezalarning yaxlit sistemasi hamda ilmiy bilimning boshqa shakllari asosida ob’ektiv olamdagi narsalar va hodisalarni o‘rganishdan iborat.

O‘z tuzilishi, predmeti va bilish metodiga ko‘ra fanlar tabiiy va ijtimoiy bo‘ladi. Texnik va iqtisodiy fanlar alohida guruhlarni tashkil etadiki, ular to‘g‘risida biz keyingi mavzularda batafsilroq va mufassalroq fikr yuritamiz.

Fanning vujudga kelishi va rivojlanishi, pirovard natijada, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish, jamiyat taraqqiyoti, ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Bizga falsafa kursidan ma’lumki, tarixan falsafa va fan dastlab antik naturfalsafa, ontologiya va gnoseologiya doirasidagi yagona ta’limotning ikki tomoni sifatida shakllangan. Shu davrda falsafiy va ilmiy bilimlar deyarli ajratilmagan. Dastlabki yunon faylasuflari ilk olimlar ham bo‘lganlar.

Fan va ilmiy bilimlarning kelib chiqishi va shakllanishini tushunishda fan tarixi va falsafasida ikki xil yondashuv — eksternalistik va internagtistik yondashuvlar vujudga keldi.

Birinchi yondashuv – eksternalizm fanning paydo bo‘lishini faqat tashqi omillar – o‘sha davr ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining shart-sharoitlari bilan belgilanuvchi jarayon deb tushuntiradi.

Ikkinchi yondashuv – internalizm esa, aksincha, fanning kelib chiqishini faqat bilim rivojlanishining ichki ehtiyojlari bilan bog‘laydi, bilish jarayonlarini tavsiflash masalalariga alohida e’tibor beradi.

Mazkur tushunish, bizning nazarimizda, ilmiy bilim haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini bermaydigan bir yoklama tushunishdir. Bu erda muhim omil, fan genezisining asosiy harakatlantiruvchi kuchi – jamiyat ehtiyojlari hisobga olinmagan. Zamirida odamlarning amaliy faoliyati yotuvchi jamiyat ehtiyojlari fanning vujudga kelishi va rivojlanishini belgilaydi. Eksternalizm va internalizm kabi omillar masalasiga kelsak, ular fanning kelib chiqish genezisida, shubhasiz, faol namoyon bo‘ladi, lekin zamirida jamiyat faol rivojlanishining amaliy ehtiyoji yotuvchi fan va ilmiy bilim shakllanishi yagona jarayonining dialektik jidatdan bir-birini isgisno etuvchi va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikki tomoni sifatida amal qiladi.

Tadqiqotchilar odatda fan Qadimgi Yunonistonda mil. av. I ming yillik o‘rtalarida vujudga kelgan va falsafiy ta’limotlarda bilimlarning rivojlanishi bilan bog‘liq deb qayd etadilar.

Ilmiy bilimning ayrim unsurlari miloddan bir necha ming yil oldin qadimgi jamiyatlar (shumer madaniyati, mayya madaniyati, Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo va boshq.)da shakllangan bo‘lsa-da, bo‘lajak fanning ilk asoslari,

kurtaklari Qadimgi Yunonistonda vujudga keldi. Fan hali tarkibiy qismlarga ajralmagan, yaxlit, bir butun, an’anaviy tarzda falsafa deb nomlangan bilim doirasida shakllandi. Mantiq alohida muhim fan ekanligini ta’kidlagan ta’rifini Platonning (mil. av. V asr) diapoglarida (Platondan 30 ga yaqin kichik va katta dialoglar bizgacha etib kelgan) o‘qishimiz mumkin. Aristotel (mil. av. V-IV asrlar) formal mantiqning yaxlit sistemasini yaratdi, dialektik metodni ta’riflab berdi va tabiatshunoslik, fizika, sotsiologiyaning juda ko‘p sohalarida fanning vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Biroq fanning paydo bo‘lishini faqat G‘arbiy Yevropa bilangina bog‘lash to‘g‘ri emas. Jahon sivilizatsiyasi, fan evropaliklar tomonidan yaratilgan degan g‘oyani ilgari faqat «evropotsentrizm» tarafdorlari olg‘a surganlar.

Fan tarixining tanikli tadqiqotchilari (J.Niddam, A.Koyre, V.I.Vernadskiy va boshq.), G‘arbda XVI-XVII asrda sodir bo‘lgan ilmiy inqilobni inkor etmagan holda, fan va ilmiy bilimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq buyuk sivilizatsiyalari qo‘shgan katta hissaga munosib baho berilmasligi va hatto inkor etilishiga qarshi chiqadilar. A.Koyre o‘rta asrlar arab (shu jumladan, Markaziy Osiyo) falsafasi Evropa fani va madaniyati rivojida o‘ziga xos ko‘prik sifatida muhim rol o‘ynaganini, uning yordamida Qadimgi dunyo ilmiy tafakkuri arabiyzabon faylasuflar tomonidan o‘rganilib, Farbiy Yevropaga uzatilganini eslatadi. U «lotin Farbining o‘qituvchilari va tarbiyachilari arablar edi» deb qayd etadi. Biroq ko‘pgina mashhur arabiyzabon faylasuf va olimlar Markaziy Osiyodan chiqqanidan bexabar bo‘lgan A.Koyre ularni arablar deb ataydi va Forobiy, Ibn Sino yoki Ibn Rushdsiz Farbiy Yevropa o‘sha davrda Platon, Aristotel va qadimiyatning boshqa buyuk mutafakkirlari ta’limotlarini hech qachon tushunmagan bo‘lardi, deb ta’kidlaydi. Zero, Aristotel va Platonni tushunish uchun qadimgi yunon tilini bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, falsafadan ham xabardor bo‘lish kerak. Qadimgi lotin tili dunyosi esa falsafadan bexabar edi.

Fan ijtimoiy institut, ya’ni bilimning mustaqil tarmog‘i sifatida XVII asrning boshlarida shakllandi. Bu davrda Yevropaning bir qancha mamlakatlarida ijtimoiy inqiloblar sodir bo‘ldi, ular sanoat, savdo-sotiq, qurilish, harbiy ishi, dengizchilikning rivojlanishiga katta turtki berdi. Yangi davrgacha fan bilim sistemasi sifatida shakllanishi uchun shart-sharoit bo‘lmay, fanning o‘zi emas, balki fan unsurlarigina mavjud edi.

Haqiqiy bilimni tizimga solish va undan samarali foydalanishning yangi shakli bo‘lgan fan ancha murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Ma’lumki, fan dastlabki davrda falsafiy tadqiqot doirasidan chetga chiqmas, muayyan falsafiy qoidalar va xulosalarni dalillashning muhim, ba’zan esa asosiy shakli hisoblanar edi. Ayni vaqtda, fan, falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida, borliqni muvofiq tarzda aks ettirishning o‘ziga xos izlanish shakllarini, haqiqatni topish va isbotlashning shakl va metodlarini asta-sekin ishlab chiqa boshladi.

Bu jarayon ilmiy tafakkurning erkinligi muhitini vujudga keltirgan Uyg‘onish davrida ayniqsa, yorkin namoyon bo‘ldi. Ilohiy sxolastika va Ptolemeyning geotsentrik sistemasiga asoslangan o‘rta asrlar noilmiy va soxta ilmiy qarashlari ta’siridan asta-sekin qutulish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. Bu jixatdan N.Kopernik (1473-1543) ta’limoti fanda burilish yasadi. U o‘zining geliotsentrik sistemasini ilgari surdi va asoslab berdi. O‘sha davr tabiatshunosligi (Bruno, Telezio, Galiley va boshq.) yutuqlari ta’sirida dunyo haqidagi g‘ayriilmiy qarashlar inkor etilib dunyolarning ko‘pligi, ularning cheksizligi, tabiatning o‘z-o‘zini rivojlantirishi haqidagi g‘oyalar ilgari surildi. Ular XVII asrda tabiatshunoslikda sodir bo‘lgan inqilobga zamin hozirladi. Bu inqilob falsafa va fanning uzil-kesil ajralishiga, fan bilimning mustaqil tarmog‘iga va ijtimoiy institutga aylanishiga olib keldi.

Shu davrda va keyingi davrlarda ilmiy bilimning shakllanishi muammolarini yoritishda falsafa va fan uzoq vakt bir-biriga jiddiy ta’sir ko‘rsatmasdan, yonma-yon (parallel) rivojlanganini e’tiborga olish kerak. SHu bois Amerikani qayta kashf etishga, temir yo‘l bo‘lgan joyda falsafadan fanga so‘qmoq ochishga urinishlar ko‘p bo‘ldi. Gegel ta’biri bilan aytganda, F. Bekondan boshlab, yangi davr faylasuflarining xizmati shundan iboratki, ular empirik va nazariy bilimlar orasidagi uzilishni bartaraf etish maqsadida empirizm fanga olib kelmaganidek, empirizmsiz fan ham mavjud emas, degan g‘oyani ilgari surdilar. Tajriba va abstrakt fikr yuritish - yagona, lekin ziddiyatli bilish jarayonining ikki tomonidir. Analiz sintezsiz va sintez analizsiz haqiqatga olib kelmaganidek, ular ham bir-birisiz haqiqatga olib kelmaydi.

Empiriya, sudraluvchan empirizm va falsafiy diletantlik muammosi ana shundan kelib chiqadi: agar, majoziy ma’noda aytganda, olim dunyoni mikroskopdan qarab bilsa, faylasuf uni teleskopdan qarab biladi. Ratsionalistlarning zaif joyi ya’ni Axilles to‘pig‘i shundaki, ular tajribaga man-manlik va bepisandlik bilan qaraydilar. Agar faylasuflar ko‘pincha umumiydan xususiyga, asbtraktdan aniqlikka o‘tishga majbur bo‘lgan, o‘rmon daraxtlardan tashkil topganini tushunmagan bo‘lsalar, tabiat hodisalarini tadqiq qiluvchi olimlar umumiyni tan olmasdan xususiy holatlarni o‘rganishga berildilar, daraxtlardan o‘rmon hosil bo‘lishini tushunmadilar.

Tajribaga asoslangan, empirik bilimlar olimga ma’lumot, «xom» material, fakglar, misollar beradi. Biroq ular, qoida tariqasida, empiriyadan nariga o‘tmaydi, chuqur nazariy tushuntirishlarga hojat sezmaydi, rivojlanish jarayonidagi qonuniyatlarni ochishga, ilmiy tushunchalarni, narsalar va hodisalarning ob’ektiv aloqalari va munosabatlarini aks etgiruvchi abstraksiyalarni asta-sekin, lekin izchillik bilan ta’riflashga harakat qilmaydi.

Fanning kuchi hissiy ma’lumotlar va aqliy bilimlarning birligi va bir-birlariga kirishishlaridadir. Shu bois xam ularni tushuntirish va qarama-qarshi qo‘yish o‘rniga, ularni birlashtirish yo‘llarini qidirish kerak. Bu vazifani aql-aqllilik muvaffaqiyatli bajaradi. Aql hissiyotdan ustun turadi, u biz sezgi organlarimiz yordamida oluvchi

bilimlarga faol va talabchanlik bilan yondashadi. Muayyan fanlar va falsafa o‘rtasida sodir bo‘lgan uzilish XX asrda muvaffaqiyat bilan bartaraf etila boshlandi.

Agar XIX asrda falsafa bilan tabiatshunoslik o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ular o‘rtasida tobora mustahkamlanib boruvchi aloqadar o‘rnatilmoqda.

Bu holat ko‘proq hozirgi zamon fani mezon va ideallari haqidagi tasavvurlarni asoslovchi falsafiy g‘oyalar va aqidalar (tamoyillar) tizimini tahlil qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Aynan falsafa, fanlarning falsafiy asoslari ilmiy bilishning zamon madaniyatiga qo‘shilishini ta’minlash bilan birga tadqiqotchi - olimdan o‘ziga xos falsafiy va ilmiy iqtidorni falsafiy va ilmiy bilish bilan qo‘shishni talab etadi.

Differensatsiya va integratsiya jarayonlarining dialektik uyg‘unligi butun fan tarixini qamrab oladi. Har bir bosqichda ilmiy bilish fundamental kategoriyalar va tushunchalarni bilish shakllarining, tushuntirish metodlari, tamoyillari va chizma-tasvir chizmalarining muayyan majmuidan foydalanadi. Misol uchun, antik davr ilmiy tafakkuriga bilim olishning asosiy usuli sifatida kuzatish bo‘lgan bo‘lsa xos; yangi davr sharoitida fan eksperimentga va analitik fikrlashning ustuvorligiga tayanadi; hozirgi zamon fani o‘rganilayotgan ob’ektlarni yaxlit va har taraflama qamrab olishga intiladi. Umuman olganda, fanga rivojlanishning ekstensiv va intensiv davrlari almashishi xosdir.

Bu erda fan va falsafa o‘rtasidagi aloqa ancha murakkab xususiyatga ega ekanini qayd etib o‘tish o‘rinlidir. Falsafa doim fanga nisbatan metodologik va dunyoqarashni shakllantirish vazifasini muayyan darajada bajaradi. Ammo uni fan bilan bilimni nazariy shaklda tuzishga, mantiqiy dalillashga intilish ham birlaiggiradi. Boshqa tomondan, fanda ham, falsafada ham mazkur yondashuvga nisbatan qarama-qarshi fikrlar va yondashuvlar mavjud. Pozitivizm, ssientizm va shunta o‘xshash ayrim konsepsiyalar falsafaning ilmiy bilishdagi rolini inkor etadi, falsafani fanga singdirib yuborishga harakat qiladi.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib asosan mif va din ta’sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U abstrakt nazariy fikrlash qobiliyati va real asoslarga ega bo‘lishi natijasida o‘z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko‘tarildi. Bunga, hech shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma’lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo‘sh vaqtning paydo bo‘lishi ham imkoniyat yaratdi. Bularning barchasi muayyan shaxslar doirasiga intellektual faoliyat bilan professional darajada shug‘ullanish imkonini berdi.

Shunday qilib, taxminan 2500 yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli – falsafa paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit Yevropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindan farqli o‘laroq, *falsafa dunyoni e’tiqod va tuyg‘ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayangan holda tushuntiradi.*

Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda avvalo dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o‘zlarining tayyor va uzil-kesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan tinimsiz kuchayib borayotgan qiziqishini qondira olmay qoldi. Ular shuningdek sezilarli darajada o‘sgan va murakkablashgan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish va avlodlarga qoldirish vazifasining ham uddasidan chiqolmay qoldi.

Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati, unda dunyoni bilish, sezish, ko‘rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat *falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig‘i va bilishining umumiy tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiy qonunlari kashf etiluvchi va ta’riflanuvchi ma’naviy faoliyatdir.* Ya’ni *bu dunyoga va insonning undagi o‘rniga nisbatan qarashlarning umumiy tizimidir.*

Xullas, falsafa haqiqat qanday bo‘lsa, uni shunday ifodalab ko‘rsatishdir, din esa –uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo‘lsa, din timsol va shakl. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo‘lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta’limi uchun kerak.

Insonda bilishga qiziqish uyg‘otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o‘ziga ma’lum bilimlar va tajribaga, muayyan e’tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug‘diradigan har qanday ob’ektiv va sub’ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonda *kosmotsentrizm* ilk falsafiy ta’limotlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bunda asosiy e’tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab etishga qaratilgan. Evropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o‘rta asrlar falsafasi ***teotsentrik*** xususiyat kasb etdi, ya’ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg‘onish davrida falsafa *san’atga* va ko‘p jihatdan *insonga murojaat qilindi.* Yangi davr, ya’ni XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog‘landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan *bilish va ilmiy metodlar* masalalari o‘rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi *irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik* muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi. XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida *hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini* va *yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni* kun tartibiga qo‘ygan postnoklassik falsafa shakllandi.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o‘ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o‘rin olgan yana bir

mavzu *globallashuv* jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy echimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab etishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda *ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo‘yish* muammolarini kiritish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat’iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog‘lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob’ektiv sabablar to‘plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o‘ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo‘lmay qoladi, degan ma’noni anglatmaydi.

Nazorat savollari:

2.1. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili xaqida nimalarni bilasiz?
2.2. Falsafada ong masalasi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni nima?
2.3.Dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati xaqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Falsafa. Darslik. //Ahmedova M.A. umumiy tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti., 2006.

2. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-e, pererabotannoe, dopolnennoe. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. – T.: Mehnat. 2004.

3. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. Izohli lug‘at. –T.: Tamaddun, 2015.

4. Sharipov M. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. –T.: Unversitet, 2007.

5. To‘raev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. – T.,2009.

6. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. – T.: Universitet, 2009.

7. Muhammadjonova L.,Obidjonova F.Etiket.O‘quv qo‘llanma.–T.: Universitet, 2013.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Расулев Э., Игошин В., Абдуллаева Г. Основы философии. Учебное пособие. –Т.: Иқтисод-молия, 2012.

2. To‘raev B. Borliq:mohiyati, shakllari, xususiyati. –T.:O‘zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.

3. Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa.Darslik.–T.:Fan va texnologiya, 2016.

4. Туленова К.,Иззетова Э.М.,Агаронян Ю.А.,Ли Э.В.Основи философской науки. Учебноэ пособиэ.-Т.: TGPU, 2015.

5. Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004.

6. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. –T.:Noshir,2012.

7. Shermuxamedova N.A.Gnoseologiya– bilish nazariyasi.–T.: Noshir, 2009.

8. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. Izohli lug‘at. –T.: Tamaddun, 2015.

9. Sharipov M. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. –T.: Unversitet, 2007.

10. To‘raev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. – T.,2009.

11. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. – T.: Universitet, 2009.

12. Muhammadjonova L.,Obidjonova F.Etiket.O‘quv qo‘llanma.–T.: Universitet, 2013.

13. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika / Monografiya. – T.: Noshir, 2012.

14. Karmin A.S., Bernaskiy G.G. Filosofiya. –M., 2009.

15. Slovar filosofskix terminov. –M.:Infra-M, 2010.

16. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. –M.: Gardariki, 2013.

17. Krivsun O.A. Estetika. –M.: Gardariki, 2013.

Internet saytlar:

1. http://www.ziyonet.uz

2. www.library.ziyonet uz.

3. http://www.faylasuf.uz

4. http://booksss.ru filosofiya//Slovar_Philosof.rar

5. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Alekseev P., Panin A. Filosofiya. M., 2014.

6. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.N. Lavrienko. M., 2013.

7. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.P. Koxanovskogo. M., 2013.

8. http://logic.philosophy.pu.ru/Bocharov V.A.,Markin V.I.Osnovы logiki. M.: Forum-INFRA-M, 2005.

9. Научная библиотека МГУ http://www.lib.msu.ru Adorno T.V. Эстетическая теория. M., 2001.

10. http://www.faylasuf.uz

11. http://booksss.ru filosofiya//Slovar_Philosof.rar

12. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Alekseev P., Panin A. Filosofiya. M., 2014.

13. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.N. Lavrienko. M., 2013.

14. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.P. Koxanovskogo. M., 2013.

15. Biblioteka Fort/Da: http//yanko.lib/ru Filosofiya. Pod red. A.F.Zotova, V.V.Mironova, A.V.Razina. Uchebnik dlya vuzov. M.:MGU.2004.

3-mavzu: Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar. (2 soat)

Reja:

3.1. Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar.

3.2. Fanda metod va metodologiya tushunchasi.

3.3.Ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifi.

3.1.Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar.

Agnostitsizm (yunoncha Agnostos a — inkor qo‘shimchasi, gnosis — bilish) — borliqni, voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning mohiyatini bilish mumkinligini qisman yoki mutlaqo inkor etuvchi nazariya. A. vakillari borliqning cheksizligi, nihoyasizligi va murakkabligi, inson sezgi a’zolari imkoniyatlarining cheklanganligiga asoslanib borliqni bilish mumkin emas deb hisoblaydi. A.ning yirik vakillaridan biri ingliz faylasufi David Yum, inson aqli sezgilarimiz bergan ma’lumotlarga tayanib voqelikni biladi, lekin, sezgi a’zolarimiz bizga to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot beradimi, sezgilarimiz aks ettirayotgan voqelikning o‘zi mavjudmi, degan masalalarni o‘rtaga tashlagan va shu asosda olamni bilish mumkinligini rad etgan, ob’ektiv voqelikning mavjud-ligiga shubha bildirgan (bu jihatdan Yum A.i skeptitsizmning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi). A.ning ikkinchi bir yo‘nalishi nemis faylasufi Immanuil Kant falsafasida ifodalangan. I.Kant tashki olamni ikkiga: „biz uchun narsa“ va „narsa o‘zida“ga ajra-tib tushuntiradi, olamning biz bilgan va bilib olishimiz mumkin bo‘lgan qismini „biz uchun narsa“ deb ataydi. Olamning „narsa o‘zida“ qismining ay-rim jihatlarinigina bilish mumkin bo‘lsa ham, uning asl mohiyatini bilish mumkin emas deydi. Bilish ob’ektining cheksizligini, nihoyasizligini, hodisalar ichki mohiyatining tubsizli-gini mutlaqlashtirish A.ning gnoseologik ildizlariga kiradi. Haqiqatda, har qanday narsani bir qarashda, bir zumda har taraflama bilib bo‘lmaydi, uni bilib olish uchun muayyan vaqt kerak bo‘ladi. Shuningdek, har qanday narsani va uning mohiyatini bilib olishimiz uchun yordamchi qurol va vositalarning qay darajada takomillashganligi jiddiy ahamiyatga ega. Bizga nisbatan keyingi avlodlarimizning tajribalari yanada boyib, takomillashib boradi va natijada ular bizlarga nisbatan ko‘proq narsalarni biladi. Biz sezgi a’zolarimizning bilish imkoniyati yetmagan ob’ektlarni aql va tafakkur kuchi bilan bilib boramiz.

Bilish shu tarzda yaxlit va uzluksiz jarayondir. Inson aql-tafakkuri fan va amaliyetni taraqqiy ettirishga, bilish va izlanish vositalarini takomillash-tirishga yo‘l ochadi

Inson o‘zining bevosita borligini, mavjudligini uni qurshab turgan dunyo bilan doimiy aloqada amalga oshiradi. Dunyoda yashash va optimal moslashish uchun inson, uning aql-idroki va hislari tashqariga, ya’ni dunyoni bilishga qaratilgan. M.Xaydeggerning so‘zlari bilan aytganda «bilish tadqiqot sifatida mavjud narsani hisobotga jalb etadi». Bilish faoliyatiga inson hayoti va faoliyatining zarur elementi deb qaramoq zarur. Bilishning maqsadi va vazifasi turli hodisalarni o‘rganish yo‘li bilan ularning chuqur, turg‘un, belgilovchi tomonlari va qirralarini, ularning mohiyatini ochib, xaqiqatni anglab olishdan iborat. Antik falsafadayoq sofistlar va Sokrat dunyoqarashining asosiy masalasini insonning tabiatga, sub’ektning ob’ektga, tafakkurning borliqqa munosabati masalasi sifatida ilk bor ta’riflab bergan edilar. YAngi zamonda F.Bekon va R.Dekart bilish to‘g‘risidagi ta’limotni boyitib, uni sub’ektning ob’ektga munosabati deb ta’rifladilar. Dekartning so‘zlariga ko‘ra, sub’ekt – bu bilish harakatining sohibi bo‘lgan shaxsdir, fikrlovchi «Men» dir. Ob’ekt – bu sub’ektning bilish faoliyati yo‘naltirilgan narsadir, ya’ni bizni qurshab turgan butun olamdir. Bilish ob’ekti bilish vaziyatida bevosita berilgan emas, u ijtimoiy amaliyotning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi, determinatsiyalanadi. Bilish sub’ekti ham o‘zining bilish faoliyati keng amalga oshiriladigan konkret ijtimoiytarixiy vaziyat orqali belgilanadi. Binobarin, bilishning o‘zi ham ijtimoiy tabiatga ega, uni ijtimoiy amaliyot belgilab beradi. Dunyoni bilib bo‘ladimi yoki yo‘qmi, agar bilib bo‘lsa, bu bizning ongimizda qanday aks etadi, degan masala hamisha falsafiy fikrni qiziqtirib kelgan. Bilish nazariyasi, yoki gnoseologiya (yunoncha – bilish haqidagi ta’limot) – falsafiy ta’limotlarning ajralmas qismidir. Gnoseologiya sub’ektning bilish faoliyatining prinsiplari, qonuniyatlari, shakllari, bosqichlari va darajalarini, shuningdek, shu prinsip va qonunlardan kelib chiqadigan, haqiqiy bilimga erishilishini ta’minlaydigan talablar va mezonlarni o‘rganadi. Bilish nazariyasi bilish jarayonining oddiy, kundalik darajasini ham, bilishning umumiy ilmiy shakllari va metodlarini ham tadqiq qiladi. Bilish jarayoni, bu – to‘laligicha ratsional, faqat aqlga bo‘ysunuvchi, formal, quruq jarayon emas, chunki u tirik kishilar tomonidan amalga oshiriladi, shu sababli bilish emotsional elementlarni – iroda, niyat, istaklarni o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan aytish joizki, narsalar, atrofdagi voqelik hodisalari sub’ektning nazariga tushgan, nimasi bilandir uning diqqatini tortgan, u bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan, uning tomonidan jami boshqa predmetlar va jarayonlardan ajralib olingan taqdirdagina bilish ob’ektiga aylanadi. Shu ma’noda sub’ekt ob’ektni shakllantiradi, shuning uchun ham ob’ektsiz sub’ekt bo‘lmaganidek sub’ektsiz ob’ekt ham bo‘lmaydi, deydilar. Falsafa tarixida vaqti-vaqti bilan dunyo haqida ishonchli bilimlarga erishish mumkinligini shubha ostiga qo‘yuvchi ta’limotlar paydo bo‘lib turgan. Bunday ta’limotning birinchisi eramizdan avvalgi IV asrda paydo bo‘lgan antik skeptitsizmidir. Skeptiklar bilishning

mumkinligiga e’tiroz bildirmaganlar, lekin bizning bilimlarimizning ishonchliligini, ularning tashqi dunyo hodisalariga muvofiqligini shubha ostiga qo‘yganlar. Skeptitsizm tarafdorlari ikki qoidadan kelib chiqqanlar. Birinchisi – falsafada tizimni tashkil etuvchi yagona asos yo‘q, ya’ni u o‘z ichida mantiqan ziddiyatlidir. Ikkinchisi – faylasuflar bir-biriga zid keladigan va bab-baravar rad etilishi mumkin bo‘lgan qoidalarni asoslashlari sababli falsafa xaqiqatni topa olmaydi. Binobarin, dunyo haqida ishonchli bilimning bo‘lishi mumkin emas. Skeptitsizmning asoschilaridan biri Pirron (eramizdan oldingi taxminan 365- 275 yillar) hissiy idrokni ishonchli deb hisoblagan (masalan, agar biron narsa sub’ektga achchiq yoki shirin tuyulsa, shu haqidagi fikr xaqiqat bo‘ladi, yanglishuv esa, uningcha sub’ekt bevosita hodisadan mohiyatni, ob’ekt asosini bilishga o‘tmoqchi bo‘lganda paydo bo‘ladi). Uning fikricha, ob’ekt haqidagi har qanday da’voga uning mazmuniga zid bo‘lgan da’voni qarama-qarshi qo‘yish mumkin. Demak skeptik uzil-kesil hukmlardan tiyilib turmog‘i lozim. Sinopalik Diogen va Sekst Empirik shunga o‘xshash g‘oyalarni yoqlab chiqdilar. Ular bilish faoliyatida, shuningdek kundalik hayotda ham sub’ekt o‘z sog‘lom fikriga tayanmog‘i kerak deb hisoblaganlar. O‘rta asrlar davrida skeptitsizm g‘oyalari G‘arbda ham (Per Abelyar), Sharqda ham (al-G‘azzoliy) rivoj topdi. Masalan, Al-G‘azzoliy bunday degan: «Oxirigacha bilishga ojizlik ham bilishdir; kishilarga Uni bilish yo‘lini faqat Uni bilishga ojizlik orqali yaratib bergan Zotga sharaflar bo‘lsin». Yangi zamon falsafasida skeptitsizm pozitsiyasini Yum izchilik bilan himoya qilib chiqdi. Yum tashqi dunyoning realligini shubha ostiga oldi. Faqat o‘z sezgilarimizning realligiga shubhalanish mumkin emas, deydi shotlandiyalik bu mutafakkir. Sezgi organlarining bu taassurotlari yo ularga tashqi dunyo ta’siri tufaylik yoki inson aqlining alohida energiyasi tufayli kelib chiqishi mumkin. Bu erda tajriba sezgilarimizning haqiqiy manbaini aniqlashga ojizdir. Yum dunyoni bilish mumkinligini inkor etibgina qolmasdan, balki, shu bilan birga, sub’ektning xissiy taassurotlari doirasidan tashqarida biron-bir real narsaning mavjudligi to‘g‘risidagi masalani ochiq qoldirdi. Nemis klassik falsafasining asoschisi I.Kant D.Yum g‘oyalarini tanqidiy jihatdan qayta ishlab chiqdi. Kantning transsendental idealizmi shundan iboratki, u, bir tomondan, bizning ongimizdan mustaqil ravishda «o‘zida narsalar» («vesh v sebe») mavjudligiga shubhalanmagan, ikkinchi tomondan esa, u «o‘zida narsalarni» prinsip jihatidan bilib bo‘lmaydi, deb da’vo qilgan. Narsalarning mohiyatini hech nima bilan payqab, ilg‘ab bo‘lmaydi. Bilish sub’ekti bo‘lgan odam faqat hodisalar va jarayonlar sirtida yotgan bilan kifoyalanadi, faqat hodisa, «biz uchun narsa» («vesh dlya nas») bilan ish ko‘radi. «Biz uchun narsa» bizga «o‘zida narsalar» haqida hech nima demaydi. Dunyo inson uchun «o‘zida narsalar» ning bilib bo‘lmas siri bo‘lib qoladi, shuning uchun bu falsafa agnostitsizm nomini oldi (yunoncha, a – inkor, gnostos – bilib bo‘ladigan). Agnostitsizm – bu shunday ta’limotki, unga ko‘ra dunyo haqida haqiqiy, ishonchli bilimlarga erishib bo‘lmaydi. Agnostitsizm bilishni faqat biluvchi aqlning faoliyati

deb biladi. Materialistlar Kantni u «o‘zida narsalarni» e’tirof etgani holda ularni bilib bo‘lmaydi deb e’lon qiladi, deb tanqid qilsalar, idealistlar uni u sub’ektdan tashqarida va unga bog‘lik bo‘lmagan holda allaqanday sirli «o‘zida narsalarni» e’tirof etadi, deb tanqid qiladilar. Agar Kant nazdida «o‘zida narsa» ni mutlaqo bilib bo‘lmasa, hozirgi zamon materialistlari uni hali bilib olinmagan narsadir, lekin bu uni mutlaqo bilib bo‘lmaydi, degan ma’noni bildirmaydi, deb biladilar. XIX-XX asrlar chegarasida agnostitsizmning yana bir turi – konvensionalizm shakllandi. Konvensionalizm (lotincha konvensio – shartnoma, kelishuv, bitim) – bu falsafiy ta’limot bo‘lib, unga ko‘ra ilmiy nazariyalar va tushunchalar tashqi dunyoning, uning tomonlari va xossalarining real tafsifi emas, balki olimlar o‘rtasidagi kelishuv mahsulidir. Konvensionalizmning eng yirik vakili fransuz matematigi va filosofi Anri Puankaredir (1854-1912). Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va informatsion sivilizatsiya davrida hozirgi zamon gnoseologiyasida shuni hisobga olmoq muhimki, bilish sub’ekti bilan ob’ekt orasida ko‘pincha vositachi pribor, tadqiqot qurilmasi turadi. Bu o‘ziga xos gnoseologik vaziyatni vujudga keltiradi. Pribor ob’ektni adekvat, aynan aks ettirish jarayoniga muayyan uzluksiz va tasodifiy xatolar kiritishi sababli, tadqiqotchi ularga zarur korrelyasiya qilmog‘i lozim. Biroq bu agnostitsizmning tantanasini bildirmaydi, balki bizning bilish usullarimiz, metodlarimiz, vosita va shakllarimiz doimiy takomillashtirilib turishga muhtoj ekanligini ko‘rsatadi. Bizni qurshab turgan dunyoni bilish mumkin, bilish esa – sub’ektning xaqiqatni anglash va uni o‘z amaliy, yaratuvchilik, o‘zgartiruvchilik faoliyatida qo‘llash maqsadida tashqi dunyoni ongli ravishda aks ettirishidir.

Har qanday narsani, har qanday predmet yoki hodisani bilish fikr hissiy idrokdan predmetning mohiyati tomon boradigan jarayondir. Hissiy bilim, jonli mushohada insonning qurshab turgan dunyo bilan bevosita aloqasi shaklidir. Hissiy anglash tashqi ta’sir energiyasining ong faktiga aylanishidan boshqa narsa emas. Usiz biz borliqning hech qanday shakllari haqida hech nima bila olmaymiz. Biz jonli mushohada yordamida atrofdagi vokelikning turli xossalari va tomonlarini bilib olamiz, lekin birgina hissiy obrazlar bilan ularning mohiyatini anglab ololmaymiz. Bunga sabab, eng avvalo, inson sezgi a’zolarining tabiiy cheklanganligidir. Masalan, odamning ko‘zi elektromagnit to‘lqinlarning butun spektrini to‘lik idrok eta olmaydi, uelektromagnit to‘lqinlar spektrining infraqizil, ultrabinafsha va rentgen qismlarini sezmaydi. Bunday tabiiy cheklanganlik boshqa sezgi a’zolariga ham xosdir. Masalan, odamning qulog‘i tebranish chastotasi 16 dan 20 ming Gs gacha bo‘lgan tovush to‘lqinlarini qabul qila oladi, yuqori chastotali yoki past chastotali tovush to‘lqinlarini eshitmaydi. Tabiiy sezgi a’zolari bilan idrok etib bo‘lmaydigan hodisalarni maxsus yaratilgan sun’iy organlar orqali, ya’ni mikroskop, radioteleskop, lokator, barometr, Geyger hisoblagichi va boshqa xil priborlar vositasida idrok etish mumkin. Bu priborlar hissiy bilish quvvatini ancha kengaytiradi va kuchaytiradi. Shu bilan birga hissiy bilish bizni yanglishtirib qo‘yishi mumkin – ko‘z chalg‘ishi, sarob, xomxayol,

ko‘z gallyusinatsiyasi, tovush effekti va hakozolar. Falsafa tarixida yangi zamon mutafakkirlari barcha bilimlarning hissiy kelib chiqishi muammosiga yuqori darajada ahamiyat berganlar. Masalan, Jon Lokk materialistik sensualizm (lotincha sensus - sezgi, sezish) prinsiplarini asoslab berar ekan, avval sezgida bo‘lmagan narsa intellektda bo‘lmaydi, shuning uchun kimki hech nimani sezmasa u hech nimani bilmaydi, deb yozgan edi. Sezgilar, bu – shunday kanallarki, ularning vositasida odam qurshab turgan olam bilan bog‘langan, olam haqida bevosita axborot olib turadi. Sezgilar abstrakt tafakkur amalga oshishining asosi bo‘lgan ozuqadir. Sezgi hissiy bilishning eng oddiy shakli, ob’ektivlik bilan sub’ektivlikning qorishmasidir, u manbai jihatidan ob’ektiv va u yoki bu sezgi a’zolarining tuzilishiga bog‘lik holda shakli jihatidan sub’ektivdir. Garchi sezgi bilish uchun yagona kanal bo‘lsada, birgina sezishning o‘zi tashqi dunyoni butun yaxlitligi, chuqurligi va konkretligi bilan anglab olish uchun etarli emas. Sezgi sub’ektga o‘rganilayotgan ob’ektning ayrim tomonlari yoki xossalarini bilishga yordam beradi, ammo o‘zining tabiiy cheklanganligi sababli ob’ektni yaxlit holida bilishga imkon bermaydi. Shuning uchun bilish sezishdan idrok qilish tomon boradi. Idrok – bu bir sezgi emas, u turli xil sezishlarning jamul-jami, kombinatsiyasidir. Biz idrok qilish orqali predmetning ayrim tomonlarini emas, balki uni yaxlit holda aks ettiramiz. Masalan, sharsimon, yashil-qizil, yaltiroq, xushbuy, chuchuknordon narsalarni his qilishlar birgalikda ongimizda olma obrazida assotsiatsiyalashadi. Hissiy bilishning idrokdan keyingi bosqichi tasavvurdir. U sezishdan ham, idrok qilishdan ham sifat jihatdan farq qiladi. Tasavvur – bu hissiy idrok bilan tushuncha o‘rtasidagi oraliq bosqichdir. Sezish va idrok qilishdan farqli o‘laroq, tasavvur endi sub’ekt bilan ob’ektning bevosita o‘zaro ta’siri bo‘lib chiqmaydi. Ilgari biron-bir hodisa yoki predmetni idrok etgan, ko‘rgan odam ularning obrazlarini hatto ular bizning sezgilarimizga ta’sir etmagan taqdirda ham xotirlab, ko‘z oldiga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, biz tasvirlashlariga asoslanib, masalan, ilgari o‘zimiz hech qachon ko‘rmagan tropik changalzorlarni tasavvur qila olamiz. Birok sezgi va idrokdan farqli o‘laroq, tasavvur ilgari idrok etilgan predmetni gavdalantirar ekan, uning konkrethissiy detallarining hammasini emas, balki faqat eng muhim, xarakterli qismlari, tomonlari va belgilarini ifodalaydi. Hissiy bilishdan keyingi bosqich ratsional bilishdir, abstrakt-mantiqiy tafakkurdir. Agar biz sezgilar vositasida hodisalar olamini aks ettirsak, sezgi bilan idrok etib bo‘lmaydigan mohiyatni aql bilan bilib olamiz. Aql bizning sezgi a’zolarimiz tashqi olamdan olgan axborotlarga asoslanib, hodisalar mohiyatini xiralashtiruvchi va yashiruvchi tashqi, tasodifiy holatlardan abstraktlashib hodisalar dunyosini tashqi, nomuhim xususiyatlar va aloqalardan xalos qiladi. Muhimni nomuhimdan farqlantira va ajrata olmaydigan sezgilardan farqli o‘laroq, aql hodisalardan hamma narsani emas, balki faqat eng muhimini, barqarorini, qonuniyatlisini oladi. Shuning uchun abstraksiyalar hissiy bilish uchun g‘oyat xarakaterli bo‘lgan yorqinlik, bevositalik va yaqqollikdan mahrumdir. Ratsional, abstrakt-mantiqiy tafakkur hodisalar olamining qonuniyatli

aloqalarini bilishga imkon beradi, bu esa insonga tashqi dunyoni bemalol tushunib olish va tevarak-atrofdagi voqelik hodisalari va jarayonlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun zarurdir. Ratsional bilishning asosiy shakli tushunchadir. Tushuncha – bu tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish natijasidir, dunyoni o‘rganish yakunidir. Tushunchalarning paydo bo‘lish jarayoni o‘rganilayotgan predmetning bir qator ikkinchi darajali alomatlari va xossalarini e’tiborga, hisobga olmaslik, ulardan chalg‘ishdir, abstraktlashishdir. Tushunchaga ta’rif berish – torroq tushunchani kengroq tushuncha ostiga qo‘yishdir. Masalan: olma - meva, fil - hayvon, Erkin - odam, terak - daraxt va hakozo. Tushunchalarning paydo bo‘lishi – bu biluvchi inson ongi faoliyatining oliy maxsulidir. Bilish jarayonida tushunchalarni ifodalabgina qolmasdan, balki ularni qo‘llay bilish ham kerak. Tushunchalarni qo‘shib biz hukm shakllantiramiz, hukmlarni bir-biri bilan qo‘shib ulardan aqliy xulosa chiqaramiz. Hukm tafakkurning shunday shakliki, unda inson narsani uning aloqalari va munosabatlarida ifodalaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan, hukm – bu biron bir narsani tasdiqlash yoki inkor etish yo‘li bilan voqelikni aks ettirish shaklidir. Shu boisdan hukm tasdiqlovchi («hozir yomg‘ir yog‘moqda» kabi) yoki inkor etuvchi («bugun yomg‘ir yog‘maydi» kabi) hukmlarga bo‘linadi. Agar biz ikki yoki bundan ko‘proq hukmni bir-biri bilan tenglashtirib, taqqoslab, solishtirib ko‘rsak, u holda biz yangi hukmga ega bo‘lishimiz, ya’ni aqliy xulosa chiqarishimiz mumkin. Aqliy xulosaning, mantiqiy natijaning chinakam to‘g‘ri bo‘lishi uchun ikki shart zarur. Birinchisi: mantiq ilmida asoslar deb atalgan dastlabki hukmlar haqiqiy bo‘lmog‘i, ya’ni voqelikka mos kelmog‘i lozim. Ikkinchisi: boshlang‘ich asoslardan aqliy xulosa chiqarish jarayonining o‘zi mantiq ilmining qonunlariga muvofiq to‘g‘ri bo‘lmog‘i lozim. Mantiq ilmining asoschisi Aristotel sillogizmga klassik misol keltiradi: Hamma odamlar o‘ladi} asos Suqrot odam} asos Suqrot o‘ladi – aqliy xulosa Agar biz mantiq qonuniga amal qilsagu, lekin boshlang‘ich hukm haqiqiy bo‘lmasa, u holda sillogizm ham haqiqiy bo‘lmaydi, balki soxta bo‘ladi. Masalan: Suqrot – odam Hamma odamlar o‘lmaydi Suqrot o‘lmaydi – soxta aqliy xulosa Insonning olamni bilish jarayoni uning sezgilari va ongi zo‘r berib ishlashini talab qilibgina qolmasdan, uning uzluksiz qizg‘in g‘ayrishuuriy faoliyat ko‘rsatishini ham taqozo etadi. Insonning g‘ayrishuuriy bilish faoliyati intuitiv bilish nomini oldi, intuitsiyaning o‘zi esa - bu bilish ob’ektining muayyan sharoitda boshqacha yo‘l bilan asoslab berish mumkin bo‘lmagan xossalarini bevosita, g‘ayrimantiqiy tarzda xaqiqat deb bilishdir. Intuitsiya sezgi va aql harakatiga qarshi turmaydi, balki bilishning hissiy va ratsional jihatlari bilan birgalikda chiqib ularni to‘ldiradi. Inson biron-bir hodisani g‘ayrishuuriy tarzda oldindan sezgan oddiy, kundalik hayotda ham, olim bilib olinmagan jabhada uzoq vaqt adashib toliqib yurganidan keyin to‘satdan uning ko‘z o‘ngida yorishish, insayt sodir bo‘lib, shu asnoda ilmiy kashfiyot yuzaga keladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham intuitsiyaning roli juda kattadir. Intuitsiya tasavvur bilan uzviy bog‘liqdir, chunki biz biror narsani tasavvur qilar ekanmiz shu tasavvur

qilinayotgan obrazga ilgari bilib olingan ob’ektlar belgilarini, tomonlarini intuitiv tarzda nisbat beramiz. Mantiqiy-strukturaviy sxema: Bilish turlari Oddiy Falsafiy Diniy Intuitiv G‘oyibona Ilmiy Mifologik Hissiy Badiiy estetik Bilish bosqichlari Hissiy bilish Aqliy Sezgi Tasavvur His-tuyg‘u Idrok Tafakkur Tushuncha Til Hukm Bilishning bosh vazifasi xaqiqat izlashdir. Xaqiqat masalasi butun bilish nazariyasining eng muhim vazifasidir. Faylasuflar orasida xaqiqat va uning bilishdagi roli to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Sub’ektiv idealizm uchun xaqiqat sub’ektiv narsadir. Masalan, nimaiki foydali bo‘lsa u xaqiqat deb da’vo qiluvchi pragmatizmda, yoki hamma e’tirof etgan, hamma uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa xaqiqatdir deb hisoblovchi konvensionalizm va neopozitivizmda ham xaqiqat sub’ektiv narsadir. Materializm uchun xaqiqat – bu tashqi dunyoning ongimizda adekvat, to‘g‘ri aks etishidir.

Xaqiqat, bu – bizning dunyo to‘g‘risidagi bilimlarimiz va tasavvurlarimizning dunyoning o‘ziga, ob’ektiv reallikka muvofiq kelishidir. Xaqiqatni noxaqiqatdan, yanglishuvdan, yolg‘ondan farqlashtirish, ajratish uchun bizning bilimimiz ob’ektiv voqelikka, uning yashash va rivojlanish qonunlariga qanchalik mos kelishini aniqlab olmoq kerak. Aristotel xaqiqatning «klassik» konsepsiyasi muallifidir. U o‘zining «Metafizika» sida bunday deb yozadi: «Bor narsani yo‘q deyish yoki yo‘q narsani bor deyish yolg‘on gapirishdir; borni bor va yo‘qni yo‘q deyish esa xaqiqatni gapirishdir»1 . Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy adabiyotida ob’ektiv xaqiqat tushunchasi tez-tez uchrab turadi. Ob’ektiv xaqiqat – bu bilimlarimizning shunday mazmuniki, u bir kishiga ham, butun insoniyatga ham bog‘liq emas. Xaqiqatning ob’ektivligini u mavjud olamning in’ikosi bo‘lishi belgilaydi. Absolyut xaqiqat – bu bilish ob’ekti haqidagi inkor etib bo‘lmaydigan to‘liq va tugal bilimdir, nisbiy xaqiqat esa – bilish predmeti to‘g‘risidagi noto‘liq va notugal bilimdir. Absolyut xaqiqat to‘liq hajmdagi ob’ektiv xaqiqatdan boshqa narsa emas, nisbiy xaqiqat esa – notugal shakldagi, notuliq hajmdagi ob’ektiv xaqiqatdir. Absolyut xaqiqatni absolyutlashtirish dogmatizmga, nisbiy xaqiqatni absolyutlashtirish relyativizmga olib keladi. Relyativizm va dogmatizmning cheklanganligiga sabab ularda absolyut xaqiqat bilan nisbiy xaqiqat bir-biridan ajratib olinganligi va qarama-qarshi qilib qo‘yilganligidadir. Bizning bilimlarimiz ayni bir vaqtning o‘zida ham absolyut, ham nisbiydir. Egallagan bilimlarimiz va tajribamiz asosida biz bilib olgan va tasvirlay oladigan narsa, sodir bo‘lgan, inkor etib bo‘lmaydigan narsa bizning bilimlarimizning absolyut jihatini tashkil etadi. Lekin, shu bilan birga, biz har bir bosqichda hamma narsani ham bilavermaymiz. Bizning bilimlarimiz ayni bir vaqtning o‘zida uzluksiz kengayib va chuqurlashib boradi. Shu ma’noda ular absolyut emas, balki nisbiydir, shu boisdan absolyut xaqiqatning o‘zi nisbiy xaqiqatlar yig‘indisidan tarkib topishini e’tirof etmoq kerak. Bilimlarimizning xaqiqat yoki yolg‘onligini, ularning absolyutlik va nisbiylik darajasini konkret joy va vaqt sharoiti belgilab beradi. Joy va vaqt sharoiti almashinib, o‘zgarib turadigan omil ekanligi sababli bir sharoitda xaqiqat bo‘lgan

narsa o‘zgargan sharoitda yanglish yoki yolg‘on bo‘lib chiqadi. Agar xaqiqatga jarayon deb qarab unga uning rivojlanishi nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsa, bu holda konkret xaqiqatga abstrakt xaqiqat qarama-qarshi qo‘yiladi. Abstrakt xaqiqat – bu to‘liq bo‘lmagan, rivojlanmagan, birtomonlama xaqiqat, konkret xaqiqat esa, aksincha, - to‘liq, rivojlangan, ko‘ptomonlama xaqiqat. Har qanday xaqiqat, u bilish jarayonida rivojlanib borganligi sababli, abstraktlikni ham, konkretlikni ham o‘z ichiga oladi.

Dunyoni bilish – bu nafaqat nazariy, balki hayotiy, amaliy jarayondir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, insoniyatning amaliyoti – bu insoniyatning tabiatni ongli ravishda va maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatidir, bu insoniyatning ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan birga qaralgan mehnat jarayonidir. Amaliyot hamisha ijtimoiy harakterda bo‘ladi, kishilar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarsiz amaliyot bo‘lishi mumkin emas. Amaliyot tarixiydir, u qurshab turgan tabiatni ham, insonning o‘zini ham, kishilarning turmush sharoitini ham o‘zgartirishdan iborat. Gnoseologik kategoriya sifatida amaliyot sub’ekt bilan ob’ekt o‘rtasidagi shunday munosabatni ifodalaydiki, bunda sub’ekt ob’ektni biron-bir jihatdan o‘zgartirish maqsadida unga ongli ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Amaliy faoliyat jarayonida, ob’ektning o‘zgarishi ta’siri ostida sub’ekt ham o‘zgaradi, uning amaliy qobiliyati va malakasi chuqurlashadi, fikrlash doirasi kengayadi, ongi va xotirasi boyiydi, dunyoqarashi o‘zgaradi. Amaliyot nazariy bilimdan yuqori turadi. U nafaqat umumiylik, balki bevosita voqelik xislatiga ega. Amaliyotda asosiy qarama-qarshiliklar – ideal qarama-qarshilik (sub’ektiv reallik sifatida) va moddiy qarama-qarshilik (ob’ektiv reallik sifatida) – birga qo‘shilishadi. Amaliyot – bu voqelikni insoniyat oldida turgan maqsadlarga muvofiq tarzda uzluksiz o‘zgartirish jarayonidir. Agar jamiyatda biron-bir amaliy ehtiyoj paydo bo‘lsa, bu bilish jarayoniga o‘nlab universitetlarga qaraganda ko‘proq asos bo‘ladi, chunki amaliyot ehtiyojlari ilmiy bilishning o‘zini olg‘a siljitadi. Amaliyot bilish jarayoniga boshidan oxirigacha «amaliyot – nazariya, yana amaliyot – yana nazariya» tarzidagi formula bo‘yicha kirib borib uni boyitadi. Amaliyotdan ajralgan bilish bo‘lishi mumkin emas. Faqat amaliyotgina u yoki bu nazariyaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ko‘rsatib beradi. Amaliyot o‘zgarmas emas, fan yutuqlari tufayli u doimo takomillashib, boyib va rivojlanib boradi. Bilish va amaliyot bir-biridan ajralmasdir. Amaliyot bilish haqiqatligining asosiy nuqtasi, harakatlantiruvchi kuchi, maqsadi va mezonidir. Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to‘plashning o‘ziga xos uzillari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi. Ilmiy bilish metodlarini o‘rganadigan maxsus soha — metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o‘z harakteriga ko‘ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo‘linadi. Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo‘lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavxumlashtirish, induksiya va

deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo‘lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi. Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so‘rovi, hujjatlarni o‘rganish sotsiologiya faniga xos bo‘lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to‘g‘ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o‘rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o‘rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi. Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ilg‘or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo‘lib, u ilgarigi ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o‘sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o‘zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi. Fan falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko‘r-ko‘rona sig‘inish muqarar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi. Ilg‘or ilmiy nazariyalar ma’lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo‘nalishini o‘zgartirishi, ilmiylikning o‘ziga xos mezoni bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyusion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o‘zgarishlarni vujudga keltirdi.

3.2. Fanda metod va metodologiya tushunchasi. .

"Metod" va "metodologiya" tushunchalari. Metod (yunon. metods — usul) keng ma’noda yo‘l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma’nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega — faoliyatda qo‘llaniladigan ma’lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san’atda va h.k.); haqidagi ta’limot.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo‘llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o‘rganadi. Shuningdek, metodologiya metodlar yig‘indisi va faoliyat turi haqidagi ta’limotdir.

Metod u yoki bu shaklda ma’lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig‘indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo‘lib, sub’ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma’lum natijalarga erishish sari yo‘naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo‘l bilan etishishga yordam beradi.

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq: birinchidan, metod va metodologik muammolarning

rolini inkor qilish yoki to‘g‘ri baholamaslik ("metodologik negavizm"); ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo‘rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto‘g‘ridir.

Har qanday metod ma’lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O‘z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya’ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko‘lami ham o‘zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo‘l, ya’ni metod ham haqiqiy bo‘lmog‘i lozim. Shunga ko‘ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to‘la holda namoyon bo‘lmasa-da, ma’lum darajada predmetning sifat o‘zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi.

Metod bilish predmeti va harakatni sun’iy ravishda bog‘lamaydi, balki ularning xususiyatlari o‘zgarishi bilan o‘zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma’lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo‘ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (ob’ekt) predmetining mazmuni bilan bog‘liq.

Metod sub’ekt bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytgan-da, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod y yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod sub’ekt va ob’ektivlikning murakkab dialektikasi acosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu ma’noda, har qanday metod, eng avvalo, ob’ektiv, mazmunli va konkret bo‘lsada, ayni paytda, y sub’ektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki ob’ektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma’naviy, g‘oyaviy (shuningdek, ilmiy) va moddiy, amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo‘ldi va y albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o‘z sohasida amaliyotda ham qo‘llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e’tibor qaratmoq kerak.

Fan metodlarilarining guruhlarga bo‘linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o‘rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O‘z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud.

Metodika. Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig‘ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

Usullarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo‘llash o‘rganilayotgan hodisa tabiati va qo‘yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi. Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog‘liq. Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san’ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o‘z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqeliqdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o‘zida metodologik tamoyil bo‘lib, oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo‘qdan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba’zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Fanda, ko‘p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o‘rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to‘g‘ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni yo‘lovchining yo‘lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto‘g‘ri yo‘ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zero nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo‘l ham to‘g‘ri bo‘lmog‘i lozim.

Metod o‘z-o‘zidan tadqiqotning muvaffaqqiyatli bo‘lishini ta’minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo‘llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko‘ra, ular keng yoki tor ko‘lamda qo‘llaniladi. Har qanday fan o‘z predmetini o‘rganishda y yoki bu ob’ektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo‘lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo‘lni ko‘rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va h.k.lar taalluqli. Agar maxsus metodlar ob’ektning qonuniyatlarini o‘rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo‘lsa, falsafiy metodlar shu ob’ektlarda namoyon bo‘ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aynan shu o‘rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har

bir metod ob’ektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi. Ular quyidagilar:

Falsafa metodlari. Eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo‘lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud.

Dialektika (yunon. dialektika — bahs, suhbat) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta’limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san’ati, degan ma’noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo‘li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o‘zgarishda, o‘zaro aloqadorlik va bog‘liklikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishdir. Unga ko‘ra, olamda o‘z o‘rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yunalishiga ega bo‘lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog‘liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog‘lanishlar orqali namoyon buladi.

Masalan, insoniyat tarixida bu usulga asosan yondashilganida, u uzluksiz tarzda ro‘y beradigan avlodlar o‘rin almashuvi, birining o‘rniga ikkinchisi kelishi, muayyan qadriyatlarni meros qoldirishi va yangilikning eskilikni inkor kilishidan iborat doimiy va takrorlanib turadigan jarayondir. Bashariyatning muayyan davrida esa, shu zamonning ijtimoiy manzarasini belgilaydigan turli urug‘ yoki qabilalar, davlat, millat va xalqlar, oqim va yunalishlar, g‘oya va mafkuralarning xilma-xil shakllarini ko‘rish, ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

Taraqqiyot jarayonida avlodlar, davrlar, siyosiy tuzumlar, umuman ijtimoiy voqea va hodisalar o‘z-o‘zidan avtomatik tarzda codir bo‘lib, nom-nishonsiz yo‘qolib ketmaydi. Balki ularning barchasi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlarning xosilasi, ijtimoiy jarayonlarning natijasi, biror sababning oqibati sifatida namoyon buladi. Bir davr ikkinchisining o‘rniga, bir avlod oldingisidan keyin, bir voqea boshqasining ortidan sodir bo‘lib turadi. Ana shu abadiy va azaliy uzluksizlik, doimiy alokadorlik, vaqtning orqaga qaytmasligi va voqealarning ketma-ketligi tarzidagi bog‘lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang-barangligi va uyg‘unligi dialektikaning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi.

Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni — dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni — dialektik dunyoqarash, yondashuvni — dialektik yondashuv, metodni — dialektik metod deb atash an’anaga aylangan. SHu bilan birga, u yoki bu olimning ushbu tamoyillarga asoslanadigan dunyoqarashi, falsafiy

ta’limotlari ham bor. Masalan, Demokrit va Geraklit dialektikasi, Kant yoki Gegel dialektikasi deyilganda ana shunday hol nazarda tutiladi.

Falsafa tarixida dialektika to‘g‘risida xilma-xil qarashlar bo‘lgan. Antik davr dialektikasi sodda va stixiyali bo‘lib, asosan, hayotiy tajribaga asoslangan. O‘sha davrda "Dialektika" so‘zini birinchi bo‘lib, Sukrot qo‘llagan. Suqrot dialektikani mayevtika (harflarni yaratish san’ati) bilan taqqoslagan. Zotan, mulohaza qilish shunday dialektik usuldirki, uning natijasida raqib nutqidagi ichki zidsiyatlar ochiladi yoki fikrlash jarayonida yangi ixtilofli fikr-mulohazalar paydo bo‘ladi.

Geraklit umumiy o‘zgaruvchanlikning universalligini shunday izohlaydi: "Ariqda oqayotgan muayyan suvga ikki marta tushib bo‘lmaydi, chunki yangi va yangi suvlar oqib kelaveradi. O‘zgaruvchanlikning manbai kurashdir". O‘zgaruvchanlik antik dialektik nazariyada yangini yaratmasdan bir-birini takrorlovchi jarayon sifatida mavhum tushunilgan. Aynan shundan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi dunyoning yagona birligi sifatida cheksiz koinot obrazi yaratilgan. Shunga ko‘ra, Geraklit ziddiyatlarning ayniyligini yaxshilik va yomonlikning bir xil ekanligini ta’kidlaydi, Bu mutafakkir ijodining qonuniy natijasi bo‘lib, u reallikning nazariy modelini yaratadi. Geraklit ziddiyatlar haqida gapirmaydi, bu tushuncha fanga Aristotel tomonidan kiritilgan, Aristotel Aflotun ta’limotini tanqidiy o‘rganar ekan, o‘zgaruvchanlik muammosini taraqqiyot omili sifatida tahlil qiladi. Uning dialektikasiga xoc alohida xysusiyatlar, avvalo, taraqqiyotni moddiylik, harakatda, formal va sababiy bog‘lanishdaligini tan olishda, yangi bosqichni boshqalari bilan bog‘liq emas, deb tushunishda yaqqol ko‘rinadi. Ikkinchidan, Aristotel ziddiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar doirasini yaratadi. Ziddiyatlarning mutlaq mos kelishini inkor qilar ekan, mutlaqo mos kelmasligini ham inkor qiladi, biroq ularning qandaydir holatida mavjudligini tan oladi. Uchinchidan, Aristotel formal mantiqqa acoc solar ekan, uning ontologiyada namoyon bo‘lishi va u esa, o‘z navbatida, mazmunan progressiv, shaklan mukammal falsafiy metodni yaratish zarurligiga olib keladi, deb hisoblaydi. To‘rtinchidan, Aristotel o‘sha davrdayoq bu asosiy falsafiy metodning yo‘nalishini belgilab beradi.

Dialektik metod yangi davrda, xususan, nemis falsafasida, ayniqsa, Kant, Fixte, Shelling va Gegel tomonidan yanada chuqurroq tahlil qilingan.

Yangi davrning o‘ziga xoc xususiyati shundaki, bu davrga kelib taraqqiyotga yangicha munosabat shakllandi. Dialektik metod predmetlarda emas, balki munosabatlarda o‘z aksini topa boshladi. Bu cheksizlik haqidagi g‘oyani qayta ishlash bilan bog‘liq edi. Cheksizlik g‘oyasining yangicha talqini paradoksal nazariya shaklida namoyon bo‘ldi. Bu Kantning planetar sistemalarning tumanlikdan paydo bo‘lganligi haqidagi gipotezani yaratishi bilan bog‘liq. Bilish nazariyasida Kant ikki mulohazaning ziddiyatliligi antinomiyasini ochib tashlar ekan, bunda har ikkalasini etarli asosga ega, deb hisoblaydi. Masalan: 1. Dunyo vaqtda boshlang‘ich nuqtaga ega

va zamonda cheklidir. 2. Dunyo vaqtda boshlang‘ich nuqtaga ega emas va zamonda cheksizdir.

Kant ziddiyatlarga eskicha, ya’ni inson aqlining illyuziyasi sifatida qaraydi. U bu ziddiyatlarni yangi nazariya yaratish jarayonida kashf qiladi, biroq undan qutilish yo‘lini ko‘rsata olmaydi. Ularga aqlning xatosi sifatida qarash kerakmi? Hissiy idrok qilishda xatoga yo‘l qo‘yilar ekan, aqlning xatoligidan shubhalanish to‘g‘rimikan? — degan savollarga javob izlagan Kant aqldagi ziddiyatlarni bartaraf qilish yo‘lini topadiki, aynan shu yo‘l pozitiv dialektikaning asosi bo‘ladi. Bunda inson aqli o‘zgaruvchanligining tarixiyligi tan olinadi, aqlning xatosi esa, tarixiy asosga ega bo‘lib, u taraqqiyotning cheksizligi, bilish jarayonini to‘g‘ri tushunish qobiliyatiga ega emas. Kant dialektika metodidan yangicha foydalanish imkoniyatini ko‘rsatdi, taraqqiyot muammosini yangicha qo‘yish va hal qilish zaruriyatini e’tirof etdi. Taraqqiyotningyangi nazariyasini Kant sub’ekt aqlining dialektik xarakteri bilan bog‘ladi va sub’ektiv dialektikani asoslab berdi.

Dialektika taraqqiyotining keyingi imkoniyatlari Gegel falsafasida o‘z ifodasini topdi. Gegel dialektikani falsafa taraqqiyotining umumiy nazariyasi sifatida asoslab bergan. Ma’lumki, o‘rta acp ratsionalizmi tajribaning ahamiyatini va nazariyaning empirik paydo bo‘lishini tan olishi bilan xarakterlanar edi. Gegel fikrlari boshqacha xarakterga ega. U falsafa o‘z xususiyatlarini asoslovchi metodga ega bo‘lmas ekan, fan bo‘la olmaydi, deb hisoblaydi.

Gegel dialektik metodni mukammallashtirish mumkinligini va u yagona haqiqiy metodligini ta’kidlaydi. Falsafa metodi tabiat va ruh taraqqiyotini ifodalovchi fikr harakatiga adekvat bo‘lishi lozim. Gegel o‘z metodida shunday adekvatlikka erishilganligiga ishonadi. Gegel dialektikasini tushunish uchun dastavval, gegelcha dialektikaning rezonans, salbiy, pozitiv dialektika kabi shakllarini tahlil qilish lozim.

Rezonans (sub’ektiv) dialektika — sub’ekt tafakkuri bo‘lib, u predmetdagi ziddiyatlarni ifodalaydi, biroq mavjud ziddiyatlardan ilgarilab ketadi. Sub’ekt faqat buni izohlash bilan kifoyalanadi, xolos.

Salbiy (ob’ektiv) dialektika rezonans dialektikadan ba’zi ustuvorlikka ega, chunki u boshlanishidan ancha ilgariroq harakat qiladi. "U tomon", "Bu tomon" kabi izohlashlar mutlaq butunlikni inkor qiladi. Salbiy dialektika mustahkam narsalarni sindirishga intiladi. Uning kuchi aynan shundadir. Ojizligi esa, ularning uzidagi cheklanganlikni izohlar ekan, judayam kam maqsadga erishiladi. Uning natijasi nol, salbiy, tasdiqlash unda hali namoyon bo‘lgan emas.

Dialektikaning rezonans va salbiy shaklidan farq qiluvchi yuqoriroq shakli ichki (immanent) dialektikadir. Bu nafaqat rezonans va inkor qiluvchi, balki yaratuvchi dialektikadir. Chunki u predmetning immanent harakat birligidagi taraqqiyot mantig‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga binoan, fan predmetni immanent o‘rganadi. Predmetni immanent o‘rganmoq nima? Bu mazmunni sof tushunchada isbotlamoq, ya’ni predmetning mohiyatini isbotlamoqdir. Gegel fikricha, dialektik ziddiyatlar —

ruhning ziddiyati. Pirovard natijada mazkur ziddiyatlar real borlikdagi ziddiyatlarni aks ettiruvchi sub’ekt tafakkuridagi ziddiyatlar bo‘lib, Gegel uni g‘oyaning o‘z-o‘zini namoyon qilishidagi ziddiyatlar sifatida aks ettiradi. Gegel fikricha, dialektika mutlaqlikdan boshlanadi va u bilan tugaydi. Dialektik nuqtai-nazardan faqat mutlaqlik real bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, Gegel dialektikasi mutlaq aql faoliyatining nazariyasi, mantig‘i va metodi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, idealistik dialektika bo‘lgani singari materialistik dialektika ham bor. U moddiylikning yashash tamoyillari, kategoriyalar va qonunlarining yagona, bir butun tizimini ifodalaydi.

Umuman olganda, dialektik metodga ko‘ra, agar ob’ektiv olamda doimiy rivojlanish, paydo bo‘lish va yo‘qolish, hodisalarning o‘zaro bir-biriga o‘tishi bo‘lar ekan, unda tushuncha, kategoriya va tafakkurning mavjud shakllari, harakatchan, o‘zaro bog‘liqlikda, ziddiyatlar birligida bo‘lib, rivojlanuvchi real haqiqatni to‘g‘ri aks ettirishi kerak. Shuning uchun dialektikaning asosiy tamoyili tarixiylik bo‘lib, u predmetning doimiy rivojlanishda, o‘zgarishda va harakatdaligini ifodalaydi.

Bizni o‘rab turgan olam yagona bir butunlik, aniq tizim bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘liq predmetlar xilma-xilligi yagonalikda, bir-biri bilan o‘zaro ta’sir va o‘zaro uzviy bog‘liqliqda namoyon bo‘ladi. Shunga mos ravishda dialektikaning yana bir tamoyiliga ko‘ra, har qanday narsani faqat undagi ichki va tashqi tomonlar mujassamligini tadqiq qilgandagina, to‘g‘ri tushunish mumkin. Dialektikaning ob’ektivlik, konkretlik, determinizm va boshqa tamoyillari ham mavjud.

"Metafizika" (yunon.— fizikadan keyin) - dialektika kabi universal metoddir. Bu so‘z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi, uning she’rlari sharhovchisi Rodosskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so‘ng "birinchi falsafa"ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o‘rganadigan qismi sifatida talqin qilgan.

Ko‘p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o‘rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o‘zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko‘proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo‘llanganida olamning namoyon bo‘lish shakllari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e’tibor beriladi. Voqea, hodisa va jarayonlarni doimiy o‘zgarish holatida o‘rganish nihoyatda kiyin bo‘lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o‘zgarmay turgan holatini o‘rganadilar, tadqiq etadilar.

Aslini olganda, olam garchand dialektik o‘zgarish va harakatda bo‘lsada, bu jarayon doimo ham nihoyatda tez sodir bo‘lavermaydi. Biz esa dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga shunchalik metafizik tarzda o‘rganib qolganmizki, go‘yo kechadan bugunning farqi yo‘qdek, kecha ko‘rgan kishiga bugun duch kelganimizda unda hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmaganday tuyuladi. SHu ma’noda, hayotda ko‘p

hollarda metafizik usulda fikr yuritamiz, nimalargadir ana shunday munosabatda bo‘lamiz. Aclida esa, ular ham azaliy o‘zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va kishilar ekanligini juda kamdan-kam hollarda o‘ylab ko‘ramiz. Xuddi shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir. Biz ham ana shunday o‘zgarib boramiz, ammo ko‘p hollarda bunga unchalik ko‘p e’tibor berilavermaydi. SHu tariqa maktabni tugatib qo‘yganimizni, ulg‘ayganimizni, bolalikning ortda qolganini go‘yoki bilmay qolamiz...

Alohida ta’kidlash lozimki, metafizik usulning hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda ham o‘z o‘rni bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar, tadqiqotlar yo‘k,. Qolaversa, uni dialektika bilan butunlay qarshi qilib qo‘yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko‘tarish ham maqsadga muvofiq emas. Aynan ana shunday yondashuv sobiq ittifoqda dialektikani mutlaqlashtirishga, metafizikani esa quruq va o‘lik ta’limot sifatida qarashga, uning imkoniyatlaridan foydalanilmasligiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi zamon fanida metafizika uch asosiy ma’noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandir. Bu ta’limotning asoschisi Aristotel bo‘lib, u "narsaning birinchi turi" haqidagi ta’limotdir. Bu ma’noda, "metafizika" tushunchasini XX acpning yirik nemis faylasufi M. Xaydegger ham o‘rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob’ekti va sub’ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxcyc falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta’limot bo‘lib, nazariya bilish mantig‘i va uning xususiy ko‘rinishlaridan mustasnodir. Shu ma’noda, bu tushuncha G‘arb falsafasida o‘tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo‘llaniladi.

3. U bilish (tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma’nosida dialektikaga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bunda shu ma’nodagi tushuncha, ya’ni antidialektika haqida so‘z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat bir qismini mutlaqlashtirishdir.

Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o‘zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo‘lgan.

Eski metafizika XVII—XIX acp falsafasi va fanida ayniqsa kamol topdi (metafizik materializm, naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) Metafizikaning bu shakliga xoc xususiyat umumiy o‘zaro aloqadorlik va taraqqiyotni inkor qilish, olamga bir butun tizimli yondashuvning yo‘qligi, tafakkurning ikkilanuvchanligi, umumiy dunyoviy aloqadorlikning tugaganligiga ishonishdir.

Eski metafizik tafakkur uslubi shakllanishining ob’ektiv asoslari butunning alohida elementlari xususiylikni, alohida tomonlar (fikran) nima uchun bir butunlikdan ayri holda bo‘lishi va bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanishini tushuntirish zaruriyatidir. Bu usul kundalik turmushda, aql darajasida,

predmet taraqqiyotidagi aloqa munosabatlarda zarur va to‘g‘ridir. Shuning uchun metafizikaning bu shakli predmetlardagi barqarorlikni, ulardagi o‘zgarishlarni tizimli o‘rganish, taraqqiyotning manbalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog‘liq.

XIX—XX acplarda eski metafizikadagi keskin kurashda taraqqiyot g‘oyasining yangi dalillar bilan mustahkamlanishi ikki muhim natijaga olib keldi: dialektik tafakkurning yangi uslublari paydo bo‘ldi; XX asrda eski metafizikaning ilmiy dalillarini inkor qiluvchi yangi metafizika shakllandi.

Yangi metafizika eski metafizikadan farqli o‘laroq, narsalarning umumiy aloqadorligini va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi. Bu fandagi va jamiyatdagi buyuk kashfiyotlar davrida absurddir. Antidialektika yangi shaklining asosiy xususiyati — taraqqiyotni izohlashning turli variantlari va yo‘llarini izlashdan iborat.

Buni quyidagi yo‘nalishlarda tushunish mumkin: a) eng umumiy, abadiy o‘sish, o‘zgarish yoki aksincha kichrayish (tekis evolyusionizm) tarzida; b) xuddi sifat o‘zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri (katastrofizm) shaklida; v) takrorlash sifatida qat’iy liniyali yo‘nalishga ega bo‘lgan doimiy jarayon (to‘g‘ri chiziqli rivojlanish) holatida; g) hech qanday yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko‘rinishida; d) mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida; e) progress sifatida, ya’ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida. Taraqqiyotning o‘zaro aloqadorlik va ta’sirning boshqa aralash izohlari ham bo‘lishi mumkin.

Metafizikaning turlari har xil asoslar, mezonlar bilan farqlanishi mumkin. Bilishning metafizik metodi — byurokratizm, konservatizm, volyuntarizm va h.k. amaliy faoliyatning boshqa bir tomonlama harakatlari tarzida namoyon bo‘lishi ham mumkin.

Bilimning metafizik usullari turlicha bulib, idealizm, sensualizm, ratsionalizm, empirizm, dogmatizm, relyativizm va boshka shakllarda namoyon bo‘lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo‘ladi.

Sofistika. Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo‘lib, qadimgi Yunonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgan. Sofistika namoyandalari Pratagor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo‘lishi antik Yunonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Bu oila urug‘ an’analaridagi turg‘unlikni bartaraf qilish, yangi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV acp o‘rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g‘oya va uslublarini qayta ishlashga intiluvchi yangi oqim paydo bo‘ldi.

Sofistika mavjud nazariya va ma’lumotlarni saqlashga intiladi. U yangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalaniladi. Ko‘pgina darslik

va qo‘llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "sopism" so‘zi asosida, ya’ni ataylab xilma-xil ma’noga ega bo‘lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, ko‘chma ma’no-mazmunga erishish usuli, deb ta’kidlanadi. Bu usul qullanilganda fikrning mazmuni ko‘chma ma’noda bayon qilinadi, ya’ni "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit ", deganga o‘xshash holat nazarda tutiladi. U, nafaqat, kadimgi Yunoniston, balki o‘pta asrlarda Evropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul yolg‘on xulosalarga olib kelsa, nega o‘z davrining ko‘pgina dono kishilari undan foydalanganlar, degan savol tug‘ilishi mumkin. Ma’lumki, insoniyat tarixida hurfikrlilik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni to‘g‘ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlar ko‘p bulgan. Bunday holni inkvizitsiya hukmron bo‘lgan o‘pta asrlar Yevropasiga ham tatbiq etish mumkin. O‘sha davrda ham ko‘pgina ziyolilarning ana shu usulga suyanmasdan iloji yuq edi. Umuman olganda, falsafada “do‘ppi tor kelib qolgan” ana shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashhur “Zarbulmasal” acapi kabi ifodalash hollari uchrab turadi. Buni o‘rta asrlar Yevropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning “Don Kixot” acapi nima sababdan shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu lavhalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani aniq bo‘ladi.

Sofizm — qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo‘lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan, Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o‘g‘liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to‘g‘ri gapirsang, seni odamlar; yolg‘on so‘zlasang — Xudolar yomon ko‘radi, degan ekan. Sofizmga ko‘ra afinalik ayolga shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirok qilishing kerak, chunki to‘g‘ri so‘zli bo‘lasan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar ham yaxshi ko‘radi.

Sofistika mavjud bilimlar tizimidan ziddiyatlarni siqib chiqaradi, bu bilan eski va yangi bilimlarni murosaga keltiradi. Sofistika inson bilimi doirasida cheksiz relyativizmni ulug‘laydi. Predmet haqida har narsa deyish mumkin. Qanday maqsad ko‘zlanmasin, so‘zlar ifodasida hech qanday chegara yo‘q (masalan, asal — shirin; asal — achchiq; qo‘rg‘on — aylanasimon, qo‘rg‘on — to‘rtburchak va h.k.) shunga ko‘ra sofist — mohir usta, so‘zamol donishmand ma’nolarini anglatadi.

Sofistikaga faqat salbiy munosabatda bo‘lish noo‘rindir. U odatda yangi g‘oya, nazariya va turmush sharoitining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Sofistika bilish tizimidagi mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash, eski bilim tizimini qayta qurishda zaruriy element sifatida namoyon bo‘ladi. Sofizm muayyan, yaxlit xususiyatga ega, chunki hodisaga ta’sirchan bo‘lib, eski narsa xavf ostiga olinadi. Shuning uchun har qanday sofizm o‘ziga xosdir.

Sofistika qadimgi Yevropa tafakkur uslubining asosi bo‘lib xizmat qildi. Ammo sofistikani tanqid qilish orqali antik davr falsafasi dunyoning yangicha konsepsiyasiga erishdi. Bu konsepsiya fikr va borliq ayniyligiga asoslanadi. U

Aristotel falsafasida o‘zining nihoyasiga etdi va nasroniylikda mustahkamlandi. Shu ma’noda, sofistika insoniyat tafakkurining umumiy taraqqiyotida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega.

Eklektika. Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog‘lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg‘on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidagi yo‘nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba’zida ob’ektni o‘rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir.

Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo‘ldi va iqtiboslarga asoslangan o‘rta acp sxolastik bahslarida, yangi davr XV-XVIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo‘llanilib, inson psixikasidagi an’analar, ko‘nikmalar, intilishlarni bo‘rttiradi. Bunday usulning bema’niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo‘llanilmokda. Sinergetika so‘zi yunoncha ("sinergena") bo‘lib, kelishuv, hamkorlik, o‘zaro ta’sir kabi ma’nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko‘p qismlardan iborat bo‘lgan, o‘zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o‘rganadi. Bu so‘zni Xaken hamkorliqdagi harakat bilib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma’nosida talqin qiladi.

Barcha ta’limotlar paydo bo‘ladi, rivojlanadi va, nihoyat, eskiradi. Xaken sinergetikasi ham vorisiylikka asoslangan. Uning davomi bo‘lgan I.Sherringtonning sinergetik uslubi, C.Ulamning sinergiyasi, I.Zabusskiyning sinergetik yo‘nalishlari ana shular jumlasidandir.

I.Sherrington sinergetik yoki integrativ tafakkurni muskullar harakatining boshqaruvida (orqa miya) asab sistemasidagi kelishilgan ta’sirni izohlash usulidir, deb tushunadi. S.Ulam esa, EHMning birinchi avlodi vakillaridan biri bo‘lib, u sinergiyaning, ya’ni mashina va uning operatori orasidagi uzluksiz hamkorlikning foydaliligi, ahamiyatining hozirgi zamondagi ta’siriga e’tiborni qaratadi.

I.Zabusskiy 60-yilning o‘rtalarida liniyasizlik masalalarini hal qilishda analitik jihatdan cheklanganlik bir yoklamalikka yo‘l ochganligini ta’kidlaydi. Liniyasiz matematika va fizika masalalarida sinergetika usulining tatbiq etilishini odatdagi matematika hisoblash mashinasining faoliyatini tahlil qilish bilan qiyoslaydi.

Hozirgi davrda I. Prigojinning sinergetika to‘g‘risidagi fikrlari ham ko‘pchilikning e’tiborini tortmokda.

Yuqoridagi barcha holatlarda uzluksiz harakat haqida so‘z boradi. Sinergetika orqali sodda tizimlardan murakkablarini yaratuvchi o‘lik tabiatdagi o‘z-o‘zidan harakatning tamoyili shakllandi. Sinergetika bilan fizikada evolyusion yo‘nalish

paydo bo‘ldi va fan ijodkorlikdan yangilik yaratish tushunchasi tomon rivojlandi. Sinergetika makroskopik darajalarga tasodifiylikni fanga kiritdi va bu bilan mexanika metodlarini makroskopik darajaga, ya’ni mikrodunyo masalalariga tatbiq qildi. Sinergetika nisbiylik nazariyasidagi energiya va narsaning o‘zaro bir-biriga o‘tishini tasdikdaydi va narsalarning paydo bo‘lishini o‘ziga xoc tarzda izoxdaydi. U biz yashayotgan makrosistemalar qanday paydo bo‘lganligi masalasini hal etishga harakat qiladi.

Sinergetika nazariyasida energiya kristall sifatida qotib koladi va kinetiklikdan potensiallikka aylana boshlaydi, deb talqin qilinadi. Bunga ko‘ra, narsa qotib qolgan energiyadir. Energiya faoliyatning ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlovchi tushuncha, lekin hozirda energiya nafaqat mexanik faoliyat, balki yangi strukturalarni yaratuvchisi sifatida ham o‘rganilmoqsa. Sinergetika tabiatdagi evolyusiya nimaning hisobiga sodir bo‘lishi mumkinligini asoslaydi. Barcha yangi strukturalar yaratilayotgan joyda energiyaning kuchli to‘lqini va muhit bilan almashinuv zarur (evolyusiya hayot kabi), metabolizmni talab qiladi. Agar osmon jismlari evolyusiyasida biz ishlab chiqarishning natijasini kuzatsak, sinergetika tabiatni yaratish jarayonini o‘rganadi. Sinergetika nisbiylik nazariyasining xulosalarini tasdiklaydi: energiya olamning yanada yuqoriroq darajalarini yaratadi.

Xullas, sinergetika — olamning o‘z-o‘zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o‘zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog‘lanishlar asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta’limotni dialektika asosida shakllangan va uni to‘ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o‘laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo‘q emas.

Umumilmiy tadqiqot metodlari. Ular falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o‘rtasida o‘ziga xos «oraliq metodologiya» bo‘lib xizmat qiladi. Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko‘pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o‘laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o‘ziga xos jihatlaridir.

Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa, umumilmiy tushunchalarga ko‘proq umumiy abstrakt (bir xil) daraja xoski, bu ularni abstrakt-formal vositalar yordamida ifoda etish imkonini beradi. Falsafaning asosiy masalasini (to‘la hajmda) echishda «ishtirok etish» sharti muayyan «tafakkur shaklini

yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir.

Umumilmiy tushuncha va konsepsiyalar asosida bilishning tegishli metodlari, tamoyillari ta’riflanadi, ular esa, o‘z navbatida, falsafaning maxsus ilmiy bilim va uning metodlari bilan oqilona o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. Umumilmiy metodlar qatoriga tizimli va strukturaviy-funksional, kibernetik, ehtimoliy yondashuvlar, modellashtirish, formalizatsiya hamda boshqalar kiradi.

Umumilmiy tushunchalarning muhim roli shundan iboratki, ular o‘zining «oraliq xususiyati» bilan falsafiy va alohida ilmiy bilimning (shuningdek tegishli metodlarning) o‘zaro o‘tishini ta’minlaydi. Gap shundaki, birinchi bilim ikkinchi bilimga sof yuzaki tarzda, bevosita o‘tmaydi. SHuning uchun ham maxsus ilmiy mazmunni darhol falsafiy tushunchalar tilida ifodalashga urinishlar, qoida tariqasida, nokonstruktiv va samarasiz bo‘ladi.

Xususiy ilmiy metodlar – materiya harakatining asosiy shakliga mos bo‘lgan muayyan fanda qo‘llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir.

Fan metodlari – ma’lum fan tarmog‘iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo‘llaniladigan usullar tizimi. Har bir fundamental fan, mohiyat-e’tibori bilan, o‘z predmetiga va o‘ziga xos tadqiqot usullariga ega bo‘lgan sohalar majmuidir.

Fanlararo tadqiqot metodlari – asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui. Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo‘llaniladi.

Metodologiyaga faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta’minlovchi boshqa vositalarni ham o‘rganish xos. Tamoyil, qoida va ko‘rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o‘zlashtirishning o‘ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususiy fanlar metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a’zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o‘lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko‘p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur fanlarda odatdagi kuzatish (faktlar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi) va ishtirokchilikka asoslangan (ichdan turib) kuzatish (bunda tadqiqotchi ma’lum ijtimoiy muhitga qo‘shiladi, unga

moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o‘z-o‘zini kuzatish (introspeksiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi–sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

Etnometodologiya ichdan turib kuzatishning turlaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy hodisa va voqealarni tavsiflash hamda kuzatish natijalarini ularni tushunish g‘oyalari bilan to‘ldirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv hozirda etnografiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va kulturologiyada tobora keng qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy eksperimentlar tobora rivojlanmoqda, ular ijtimoiy tashkil etish va jamiyatni boshqarishni oqilonalashtirishning yangi shakllarini amalga tatbiq etishga ko‘maklashmoqda. Ijtimoiy eksperiment ob’ekti odamlarning ma’lum guruhi eksperimentning bevosita ishtirokchilaridan biri bo‘lib, ularning manfaatlari bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladi, tadqiqotchi esa o‘zi o‘rganayotgan vaziyatga bevosita qo‘shiladi.

Psixologiyada muayyan ruhiy faoliyat qanday shakllanishini aniqlash uchun tajriba o‘tkazilayotgan shaxs turli eksperimental sharoitlarga qo‘yiladi va unga ma’lum masalalarni hal qilish taklif etiladi. Bunda murakkab ruhiy jarayonlarni shakllantirish va ularning tuzilishini yanada chuqurroq tadqiq qilish mumkin. Mazkur yondashuv pedagogik psixologiyada shakllantiruvchi eksperiment, deb nomlanadi.

Ijtimoiy eksperimentlar tadqiqotchidan axloqiy va yuridik norma va prinsiplarga qat’iy rioya etishni talab qiladi. Bu erda (tibbiyotda bo‘lgani singari) «ziyon etkazma!» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Insonning intim dunyosiga kirish quroli bo‘lib xizmat qilish - ijtimoiy eksperimentlarning asosiy xususiyati.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda falsafiy va umumilmiy vositalar, metod va amallardan tashqari, mazkur fanlarning predmeti bilan bog‘liq maxsus vositalar, metod va amallardan ham foydalaniladi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

Ideografik metod–alohida tarixiy faktlar va hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.

Dialog («savol-javob metodi»).

Tushunish va oqilona (intensional) tushuntirish (bu haqda ushbu keyingi mavzuda batafsil so‘z yuritiladi).

Hujjatlarni tahlil qilish–son va sifat jihatidan tahlil qilish (kontent-analiz).

So‘rovlar o‘tkazish–«yuzma-yuz» so‘rov (intervyu) yoki sirtdan (so‘rovnoma yordamida, pochta, telefon orqali va sh.k.) so‘rov o‘tkazish. Ommaviy va maxsus so‘rovlar farqlanadi. Maxsus so‘rovlarda professional ekspertlar axborot olishning bosh manbai hisoblanadi.

Proektiv metodlar (psixologiyaga xos)–insonning produktiv faoliyati natijalariga qarab, uning shaxsiy xususiyatlarini bilvosita o‘rganish usuli.

Testlash (psixologiya va pedagogikada)–standartlashtirilgan topshiriqlar bo‘lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, xotira, zehn va

sh.k.)ni o‘lchash imkonini beradi. Testlarning ikki asosiy guruhi farqlanadi–intellekt testlari (mashhur Q koeffitsienti) va erishilgan (kasbda, sportda va h.k.) natijalar testlari. Testlar bilan ishlashda axloqiy jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, layoqatsiz yoki g‘irrom tadqiqotchining qo‘lida testlar jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Biografik va avtobiografik metodlar.

Sotsiometriya metodi–ijtimoiy hodisalarni o‘rganishda matematika vositalaridan foydalanish. Undan ko‘pincha «kichik guruhlar»ni va ulardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda foydalaniladi.

O‘yin metodlari–boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Imitatsion o‘yinlar (ishbilarmonlik o‘yinlari) va ochiq o‘yinlar (ayniqsa, nostandart) vaziyatlarni tahlil qilishda farqlanadi. O‘yin metodlari orasida psixodrama va sotsiodrama alohida o‘rin tutadi. Ularda ishtirokchilar tegishincha individual va gruppaviy vaziyatlarni ko‘rib chiqadilar.

Hozirgi zamon metodologiyasi. «Kumatoid», «case studies», «abduksiya» tushunchalari an’anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin. Ammo, aynan ular metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o‘ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo yangi tushunchalarni kiritish bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur tushunchalarning aksariyati muayyan (xususiy) fanlar sohasi bilan bog‘liq. Bunday tushunchalar qatoriga hozirda ancha mashhur bo‘lgan bifurkatsiya, «fluktuatsiya», «dissipatsiya», «attraktor» tushunchalarini, shuningdek, «kumatoid» (yunoncha–to‘lqin) degan innovatsion tushunchani kiritish mumkin.

Kumatoid - suzayotgan ob’ektni anglatadi va ob’ektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo‘lishi, shuningdek yo‘qolishi, parchalanishi mumkin. U o‘zining barcha elementlarini birvarakay emas, balki o‘ziga xos «hissiy-o‘ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli ob’ekt–o‘zbek xalqini ma’lum zamon, makon bo‘lagida ifoda etish va mahalliylashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ob’ektni yaxlit ifoda etish uchun o‘zbek xalqining barcha vakillarini yig‘ish mumkin emas. SHu bilan birga, mazkur ob’ekt soxta emas, realdir. Uni kuzatish, o‘rganish mumkin. U butun sivilizatsion-tarixiy jarayonning yo‘nalishini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Yana bir misol–Tinglovchilar guruhi. U dam paydo bo‘ladigan, dam ko‘zdan yo‘qoladigan suzuvchi ob’ekt sifatida o‘zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quv mashg‘ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit ob’ekt sifatida mavjud bo‘lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma’lum vaziyatlar (guruh raqami, Tinglovchilar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u ob’ekt sifatida namoyon bo‘ladi va o‘z-o‘zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashqari, mazkur kumatoid guruh a’zolari o‘rtasidagi do‘stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo‘llab-quvvatlanadi.

Kumatoidning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u zamon va makonda mahalliylashishga befarq bo‘libgina qolmay, substrat–o‘zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog‘lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo‘nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog‘liq. Kumatoidni moddiy tarzda mustahkamlangan ma’lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to‘plami bilan aniq identifikatsiya qilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi ob’ektlar–kumatoidlar bilan to‘lib-toshgan.

«Case studies», ya’ni vaziyatli tadqiqotlar o‘tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o‘tkazishda fanlararo tadqiqotlar o‘tkazish metodologiyasiga tayaniladi, ammo individual sub’ektlarni, mahalliy gruppaviy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o‘rganish nazarda tutiladi. «Case studies» atamasi pretsedentning, ya’ni kuzatish ostida bo‘lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig‘maydigan individuallashtirilgan ob’ektning mavjudligini aks ettiradi.

Vaziyatli tadqiqot metodologiyasi neokantianlar Baden maktabining idiografik metodi bilan bog‘liq. Vaziyatli tadqiqotlarning ikki tipi: tekstual va maydondagi tadqiqotlar farqlanadi. Ularning ikkalasida ham mahalliy determinatsiya birinchi darajali ahamiyatga ega. Mahalliy determinatsiya «ichki ijtimoiylik» tushunchasi bilan muayyanlashadi va ayni guruh yoki vaziyatga xos bo‘lgan faoliyat, muloqot shakllari ta’sirida shakllanadigan bilimning noaniq shartlarining tutash tizimi deb, alohida so‘zlar va harakatlarning ma’no-mazmunini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy kontekst deb tushuniladi. Vaziyatli tadqiqotlarning ustunligi shundaki, ularda bilim tizimining mazmuni shartlarning pirovard to‘plami, hayotiy vaziyatlarning muayyan va alohida shakllari nuqtai nazaridan ochib beriladi.

Hozirgi zamon metodologiyasi o‘z an’anaviy metodlarining universalligi cheklanganligini tushunadi. Masalan, gipotetik-deduktiv metod ishni tayyor gipotezalardan boshlab, «dalillarni eng yaxshi tushuntirish» bosqichidan sakrab o‘tganligini uchun tanqid qilinadi.

«Abduksiya» fikr yuritish orqali empirik faktlardan ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi. Bunday fikr yuritish turmushda va amaliyotda ko‘p uchraydi. Har bir inson tushuntirish yo‘llarini izlashda beixtiyor abduksiyaga murojaat etadi. Masalan, vrach kasallik alomatlariga qarab, uning sababini, detektiv esa jinoyat izlariga qarab jinoyatchini qidiradi. Xuddi shuningdek, olim ham sodir bo‘layotgan hodisani tushuntirishda abduksiya metodidan foydalanadi. Mazkur atama induksiya va deduksiya singari mashhur, keng e’tirof etilgan bo‘lmasa ham, u yangi hamda samarali metodologik strategiyani ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, metodologiya ma’lum bir, hatto, «eng muhim metod»ga ham bog‘liq bo‘lmaydi. «Olim hech qachon faqat bitta ta’limotga tayanib qolmasligi, hech qachon o‘z tafakkur metodlarini faqat bitta falsafa bilan cheklab qo‘ymasligi kerak».

Metodologiya alohida metodlarning oddiy yig‘indisi, ularning «mexanik birligi» ham emas. Metodologiya – turli darajadagi usul va tamoyillarning faoliyat sohalari, yo‘nalishlari, evristik imkoniyatlar, mazmunlar, tuzilmalar va hokazolarning murakkab, yaxlit hamda muvofiqlashtirilgan tizimi.

Evristika. Evristika yunoncha heurisko–topaman, kashf etaman, degan so‘zdan kelib chiqqan. «Evristika» atamasining qo‘llanilishi qadimgi yunon olimi aleksandriyalik Papp (miloddan avvalgi III asr) nomi bilan bog‘lanadi. Bu nuqtai nazardan evristika matematika masalalarini echishni o‘rganishni istaganlarga mo‘ljallangan qoidalarning maxsus to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi. «Mahorat sirlari» hamisha qat’iy sir tutilgan va tavsiflanmagan. Evristikani kashfiyotlar to‘g‘risidagi fan sifatida tavsiflash barcha zamonlarda ham juda murakkab vazifa hisoblangan. G. Leybnitsning «Kashfiyot san’ati» g‘oyasi amalga oshmadi. B. Spinoza to‘g‘ri metod oqilona tanlashni ta’minlashi, noma’lumni bilish qoidalariga ega bo‘lishi, foydasiz imkoniyatlarni chetlatish tartibini belgilashi lozimligini qayd etgan bo‘lsa-da, buni asoslovchi nazariyani yaratmadi.

Muayyan ilmiy bilimdan haydaladigan barcha ikkilamchi, noaniq metodologik qoidalar evristika sohasini to‘ldiradi. Shuning uchun ham evristika ba’zan qayg‘urish, ilhomlanish, insayt bilan bog‘lanadi. Metodologik tafakkurning izchil tizimida evristikaga ko‘pincha etarli darajada anglab bo‘lmaydigan, ammo izlash va topish salohiyati katta bo‘lgan soha deb qaraladi. Formal mantiqiy metodlar evristik metodlarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Barcha mumkin bo‘lgan hollarda evristikadan bilim mazmunini kengaytirish, ilgari ma’lum bo‘lmagan yangilikni yaratish kutiladi.

Ko‘pincha «evristika» tushunchasini tafakkurga bog‘lab, «evristik tafakkur» tarzida qo‘llaniladi. Aytish mumkinki, bunday hollarning barchasida tafakkurning yaratuvchi funksiyasi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. G‘arb falsafasida evristik tafakkurni tushuntirishga harakat qiluvchi nazariyalarning uch turkumi farqlanadi: «tinch oqar suv» yoki o‘rtacha hisobga keltirilgan mehnat nazariyasi; blitskrig yoki insayt nazariyasi; yaxshi qopqon yoki oqilona metodologik qoida nazariyasi.

Evristika metodologiyaning bo‘limi sifatida hali rasman e’tirof etilgani yo‘q. Ammo, o‘z-o‘zidan ayonki, ilmiy bilimning har bir sohasida u eng tez, samarali va o‘ziga xos echim topishning strategiyasi hisoblanadi, evristik usul va qoidalar noan’anaviy yo‘llarni izlash, ulardan foydalanishga turtki beradi. Evristika fanlararo xususiyatga egaligi mazkur sohaning o‘ziga xos belgisidir. Ammo evristik xususiyat fan ichidagi bilimda ham mavjud. Evristik sezgi ilmiy izlanishning deyarli har bir qadamiga hamroh bo‘ladi. Reduksiya, metodlarini o‘zlashtirish, gumanitar va texnika fanlarining usullarini birlashtirish, muayyan ilmiy ishlovlarni amalga tatbiq etishni tanlash, hal qiluvchi eksperimentning o‘zi ma’lum darajada evristik farazlarga asoslanadi. Evristika ilmiy va noilmiy bilim, oqilonalik va nooqilonalik o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. U xulq-atvor taktikasini tanlashga va rivojlanish jarayonida to‘g‘ri yo‘l topishga ko‘maklashadi. Ilmiy tavakkal mezoni

sifatida evristiklik ilmiy bilimni rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida hamisha olqishlangan, dunyoning postnoklassik manzarasida esa nazariyaning evristiklik xususiyati bilim berish jarayonini o‘zgartirish, uni ijodiy, muammoli, o‘yin tarzida o‘tkazish imkonini beradigan ilmiy bilim mezoni darajasiga ko‘tarildi.

Evristika sirlariga yaqinlashishga bo‘lgan eng so‘nggi urinishlardan A.F. Osbornning «miyaga hujumi»ni qayd etish mumkin. Unda kashfiyotchilikning o‘rindoshlik, o‘tkazish, birlashtirish va ajratish bilan bog‘liq an’anaviy usullari bilan bir qatorda, xayolni rag‘batlantiruvchi usullar: tig‘iz muddatlar tizimi, muammoni tanqidsiz vaziyatda erkin muhokama qilish, tortishuvlik muhitini yaratish, shuningdek hazil taxminlar qilish qayd etiladi. Ammo, evristika yo‘nalishining vakili D. Poyya ilgari surgan ijodning (yoki muammolarni samarali hal qilishning) muqarrar tarzda amal qiladigan qoidalarini ishlab chiqish amalga oshirib bo‘lmaydigan vazifa, degan g‘oyasi yanada an’anaviyroq hisoblanadi.

Darhaqiqat, evristika o‘ziga xos metodologiya, ya’ni ijodiy faoliyat metodlarining majmui sifatida ma’lum talablar qo‘yadi:) U oddiy tanlash usullariga emas, balki muammoni hal qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradigan usullarga tayanadi; 2) qo‘llaniluvchi usullar an’anaviy qabul qilingan va eskirgan usullardan jiddiy farq qilishi mumkin; 3) usullardan foydalanishga tadqiqot ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan tashqi cheklashlar qarshilik ko‘rsatadi; 4) izlanish modellari jiddiy darajada individuallashtirilgan bo‘lib, bilish sub’ektining ruhiy va motivatsion faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

«Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta’limot, fan so‘zlaridan kelib chiqqan. So‘zma-so‘z ma’nosi - «bilish haqidagi ta’limot (fan)», «ong haqidagi ta’limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug‘atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so‘zi ham qo‘llaniladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasiva epistemologiya nomlarining qo‘llanilishini o‘rinli deb bo‘lmaydi. Zotan, «episteme» so‘zi «pistis» - e’tiqod so‘zi bilan uzviy bog‘liq. Biroq, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e’tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Shu bois G‘arbiy Yevropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba’zan esa – uch xil talqin qilinadi.

Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda – falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e’tiborni qaratadi. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e’tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o‘rganadi.

Demak, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Tom ma’nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning

mazmunini, shuningdek diniy e’tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to‘g‘risida bahs yurituvchi falsafiy ta’limot ma’nosidagi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. Shu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo‘limi bo‘lib, unda 1) insonning dunyoni bilish imkoniyati; 2) insonning o‘zlikni anglash jarayoni; 3) bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi, 4) bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o‘zaro nisbati o‘rganiladi.

Shunday qilib, umuman olganda, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o‘z-o‘ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta’siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko‘ramiz. Biroq bu jarayonda ongning o‘zi ko‘rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o‘laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go‘yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko‘rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o‘zaro aloqalarini aniqlash, uni o‘z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat.

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta’rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap shundaki, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta’rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko‘p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo‘yib bo‘lmaydi. SHuni e’tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko‘ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o‘zimiz bu «nimadir» haqida ancha to‘g‘ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. SHuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o‘z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo‘ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. SHunday qilib, o‘z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma’lum asoslarga ega bo‘lgan ishonch, e’tiqodni bilim deb hisoblaymiz.

Teran ma’no bilan sug‘orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni zamonda, gnoseologiya bu talqin zamirida mujassam ba’zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi. «S sub’ekt qandaydir P predmetni biladi» degan standart gnoseolgik talqin quyidagi uch shartni o‘z ichiga oladi:

- haqiqiylik (muvofiqlik) sharti – «agar P haqiqiy bo‘lsa, u holda S P ni biladi». Biz Chimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilaman, basharti Chimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo‘lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga quyiladi, deb aytsak, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki yanglish fikr, xato bo‘ladi.
- ishonchlilik (e’tiqod, maqbullik) sharti – «agar S P ni bilsa, u holda S P ga ishonadi (uning mavjudligiga e’tiqodi komil bo‘ladi). Masalan, agar biz

O‘zbekistonda dengiz bor desak, biz uning amalda mavjudligiga ishonamiz. Odatda bilim shunday ishonch yoki shunday e’tiqod hisoblanadi va ularni ajratish mumkin emas. Shunday bir vaziyatni tasavvur qiling: siz oyna oldiga kelib, tashqarida yomg‘ir yog‘ayotganini ko‘rasiz. Siz: «Yomg‘ir yog‘yapti, lekin men bunga ishonmayman», deysiz. Bu iboraning noto‘g‘riligi bilimimiz bizning e’tiqodimiz ekanligini ko‘rsatadi.

- asoslilik sharti «S P ni biladi, basharti u o‘zining P ga bo‘lgan ishonchini asoslab bera olsa». Bu shart bilimni to‘g‘ri chiqadigan taxminlar yoki tasodifan mos kelish hollaridan farqlash imkonini beradi. Aytaylik, siz besh yashar bolakaydan: «Quyosh sistemasida nechta sayyora bor?», deb so‘radingiz va «To‘qqizta», degan javobni eshitdingiz. Siz bola sayyoralar sonini tasodifan to‘g‘ri aytdi deb hisoblaysiz. Agar u o‘z javobini hech bo‘lmasa buni onasidan eshitganini aytib, asoslab bera olmasa, siz bolakayda bu dalil haqida haqiqiy bilim mavjud emas, degan to‘xtamga kelasiz.

Shunday qilib, bu «uch qismli» talqinga muvofiq, quyidagi muxtasar ta’rifni berish mumkin: bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir.

Bu ta’rif ancha sodda bo‘lib, uni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkin. Bu so‘zlar zamirida muayyan muammo yotadi. Masalan, biz Nyuton mexanikasi haqiqatga etarli darajada muvofiq emas va uning o‘rnini Eynshteynning aniqroq nazariyasi egalladi, deb hisoblaymiz. Biroq buning natijasida Nyuton nazariyasi o‘zining bilim xususiyatini yo‘qotgani yo‘q-ku? Eynshteynga qadar, uning haqiqiyligiga ko‘pchilikning ishonchi komil bo‘lgan davrda u bilim edimi? Shunga o‘xshash so‘zlarni hozirda fan tarixidan o‘rin olgan minglab nazariyalar sha’niga aytish mumkin. Bilimni qanday qilib asoslash mumkin va etarli asoslar mavjudmi? Bu savol ham ancha mavhum. Gipoteza, faraz odatda bilim shakli sifatida qaraladi, biroq olimlar o‘zlari ilgari surayotgan gipoteza yoki farazlarning to‘g‘riligiga ba’zan ishonchi komil bo‘lmaydi.

Balki bilimni standart tushunish haddan tashqari taxminiy va nisbiydir? Qisman shunday, biroq bilim-bir ta’rif chegaralariga sig‘dirish juda qiyin bo‘lgan rang-barang hodisa ekanligi muhimroq. Agar «bilmoq» so‘zi tilimizda qanday qo‘llanilishiga nazar tashlasak, bilim turlari juda rang-barang ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi gaplarni ko‘rib chiqamiz. Men bu mashinani qanday qilib tuzatish mumkinligini bilaman. Men gitara chalishni bilaman. Men Po‘latni o‘n yildan beri bilaman. Men Toshkentni yaxshi bilaman. Men uchburchak burchaklarining yig‘indisi ikki to‘g‘ri burchakka teng ekanligini bilaman. Men kit sut emizuvchilar oilasiga mansub ekanligini bilaman.

Bu bir qarashda o‘xshash gaplarda «bilaman» so‘zi har xil ma’nolarda keladi. Dastlabki ikki gapda bilish nimanidir bajara olishni anglatadi. Gnoseologiyada u «bilim-ko‘nikma» deb ataladi. Keyingi ikki misolda bilish – bu «bilim-tanishuvlik» demakdir. U inson yoki qandaydir ob’ektni tanish qobiliyatini anglatadi. So‘nggi gaplarda bilim «nimanidir bilish»ni ifodalaydi, chunonchi: u narsalarda qandaydir

xossalar, nisbatlar, qonuniyatlar va shu kabilarning mavjudligini tavsiflaydi. Bilim bu erda ma’lum axborot ko‘rinishida keladi deb aytish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, «bilim-ko‘nikma» va «bilim-tanishuvlik» bilimning standart talqiniga uncha mos kelmaydi. Umuman olganda, ularga nisbatan haqiqiylik va asoslanganlik tushunchalarini tatbiq etish mumkin emas. Po‘latni yaxshi yoki orqavarotdan bilish mumkin, biroq biz uni «to‘g‘ri» yoki «ishonchli» bilishimiz mumkinmi? Biroq, bu erda shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida zikr etilgan bilim turlari o‘rtasidagi chegaralar aniq emas. Masalan, sizning Toshkent haqidagi bilimingiz siz shaharning kattaligi, aholisining soni, u O‘zbekiston poytaxti ekanligi va hokazolar haqida ma’lum axborotga ega ekanligingizni nazarda tutadi. Biroq bu bilim – avvalo shahar bilan tanishlik, unda yaxshi mo‘ljal ola bilish demak.

Gnoseologiyada asosiy e’tibor muayyan narsalar haqidagi bilimni tahlil qilishga qaratiladi. Zero, faqat shunday bilimni asosli va asossiz, ishonchli va ishonchsiz, haqiqiy yoki soxta bilim sifatida aniq baholash mumkin. Bilimni asoslash usullari, uning ishonchliligi, haqiqiyligini aniqlash mezonlarini izlash qadimdan bilimni falsafiy tahlil qilishning asosiy omili bo‘lib keladi.

Biroq hatto bilimning shu turini falsafiy tushunishda ham muammolar bisyor. O‘ttiz yilcha muqaddam epistemologlar shunday misollarni o‘ylab topdilarki, ularda ishonch, e’tiqod bilimning yuqorida zikr etilgan uchala xususiyatiga ega, biroq, shunga qaramay, ular bilim hisoblanmaydi. Mana, shunga o‘xshash oddiy misollardan biri.

Masalan, o‘qituvchi falsafadan yozilgan referatlarni tekshirayotib, Tinglovchilardan biri – Valiev o‘z ishini kompyuterda terganini ko‘rdi. O‘qituvchi darsda bu guruhda o‘qiydigan Tinglovchilarning qaysi birida uyida kompyuter borligini so‘rashga qaror qiladi. Valiev o‘zida chindan ham yaxshi kompyuter borligini va bu kompyuterda u ishlashni o‘rganganligini aytdi. Qolgan talablarning birortasi ham o‘zida bunday buyum borligini aytmadi. SHunga asoslanib o‘qituvchi guruhda bir talabada kompyuter bor ekan, degan xulosaga keldi. O‘qituvchining bunga ishonchi komil va u o‘zining bu e’tiqodiga etarli darajada asoslangan va ishonchli bilim sifatida yondashadi. Biroq, endi faraz qilaylikki, Valievda kompyuter aslida yo‘q va u yolg‘on gapirib, o‘zi yoqtiradigan bir talaba qizning e’tiborini o‘ziga qaratmoqchi bo‘lgan. Ammo boshqa talaba – Alievning uyida kompyuter bor, biroq u ma’lum sabablarga ko‘ra buni oshkor etmaslikni lozim topgan. Natijada o‘qituvchi o‘zi dars beradigan guruhda kamida bir talabada kompyuter bor deb hisoblar ekan, u asoslangan va o‘z nuqtai nazaridan haqiqatga mos keladigan ishonch, e’tiqodga ega bo‘ladi. Biroq bu e’tiqodni bilim deb hisoblash mumkin emas, chunki uning haqiqiyligi zamirida faqat tasodifiy haqiqatga muvofiqlik yotadi.

Albatta, bunday misollarni bor-yo‘g‘i tafakkur o‘yini deb hisoblash mumkin. Biroq, haqqoniy tasavvurlar soxta fikrlardan kelib chiqqan yoki ularga asoslangan hollar hatto fanda ham uchraydi.

Ammo bunday qarshi misollarga yo‘l qo‘ymaslik uchun bilimga yanada qattiqroq talablar qo‘yish, masalan, bilim roliga da’vogar e’tiqodlar faqat ishonchli va xatosiz deb qarash mumkin bo‘lgan fikrlar va ma’lumotlarga tayanishini talab qilish mumkin.

Bilim zamirida aniq, ishonchli va xatosiz asoslar yotishi lozim, degan tasavvur bilish nazariyasidagi eng nufuzli yondashuv hisoblanadi. Unga antik faylasuflarning asarlaridayoq duch kelish mumkin, eng aniq ko‘rinishda va dasturilamal sifatida u yangi davrda mashhur faylasuflar F.Bekon, R.Dekart va J.Lokk tomonidan ta’riflab berilgan. Bu yondashuvni klassik fundamentalizm deb nomlash, uning barcha muqobillarini esa, hozircha undan ma’lum darajada chetga chiqish sifatida tavsiflash mumkin.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oliy shakli fandir. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta’riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog‘laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o‘zining aniqligi bilan ajralib turadi.

Ilmiy bilim, ma’naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur. Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Fan amaliy faoliyat predmetlarining (boshlang‘ich holatdagi ob’ektning) tegishli mahsulotlarga (pirovard holatdagi ob’ektga) aylanish jarayonini oldindan ko‘ra bilishni o‘z oldiga pirovard maqsad qilib qo‘yadi. Bu o‘zgarish har doim ob’ektlarning o‘zgarish va rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi, faoliyat shu qonunlarga muvofiq bo‘lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Shu sababli fanning asosiy vazifasi ob’ektlarning o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini aniqlashdan iborat.

Tabiatning o‘zgarish jarayonlariga tatbiqan bu vazifani tabiiy fanlar va texnika fanlari bajaradi. Ijtimoiy ob’ektlarning o‘zgarish jarayonlarini ijtimoiy fanlar o‘rganadi. Hamonki faoliyat jarayonida har xil ob’ektlar – tabiat predmetlari, inson (va uning ongi holatlari), jamiyatning kichik tizimlari, madaniyat hodisalari sifatida amal qiluvchi belgilar ko‘rinishidagi ob’ektlar va hokazolar o‘zgarishi mumkin ekan, ularning hammasi ilmiy tadqiqot predmetlari bo‘lishi mumkin.

Fanning faoliyatga jalb qilinishi mumkin bo‘lgan ob’ektlarni o‘rganish va ularni faoliyat va rivojlanishning ob’ektiv qonunlariga bo‘ysunuvchi ob’ektlar sifatida tadqiq qilishga qarab mo‘ljal olishi ilmiy bilimning birinchi eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Ilmiy bilim o‘zining ayni shu xususiyati bilan inson bilish faliyatining boshqa shakllaridan ajralib turadi. Masalan, borliqni badiiy o‘zlashtirish jarayonida inson faoliyatiga jalb qilingan ob’ektlar sub’ektiv omillardan ajratilmaydi, balki ularga o‘ziga xos tarzda bog‘lanadi. Ob’ektiv dunyo predmetlarining san’atdagi har qanday in’ikosi ayni zamonda insonning predmetga munosabatini aks ettiradi. Badiiy obraz

– bu ob’ektning shunday bir in’ikosiki, unda inson shaxsi, uning qadriyatlarga munosabati aks etadi, bu xossalar aks ettirilayotgan borliq tavsifidan o‘rin oladi. Bu mushtaraklikni istisno etish – badiiy obrazni buzish demakdir. Fanda esa, bilim yaratayotgan shaxs hayot faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, uning mushohadalari yaratilayotgan bilim tarkibiga bevosita kirmaydi (Nyuton qonunlari Nyutonga nima yoqqani va yoqmaganligi haqida xulosa chiqarish imkonini bermaydi, vaholanki, masalan, Rembrandt mo‘yqalamiga mansub portretlarda Rembrandt esse, uning dunyoqarashi va o‘zi tasvirlayotgan ijtimoiy hodisalarga shaxsiy munosabati o‘z ifodasini topadi; buyuk musavvir tomonidan yaratilgan portret doim uning avtoportreti sifatida ham amal qiladi).

Ilmiy bilim borliqni moddiy va ob’ektiv o‘rganishga qarab mo‘ljal oladi. Biroq bu olimning shaxsiy xususiyatlari, uning qadriyatlarini belgilashda, ilmiy ijodida rol o‘ynamaydi va uning natijalariga ta’sir ko‘rsatmaydi, degan ma’noni anglatmaydi. Ilmiy bilim nafaqato‘rganilayotgan ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlari, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan ko‘p sonli omillar bilan ham belgilanadi.

Ilmiy bilimning tarixiy rivojlanishi madaniyatning o‘zgarishi ilmiy bilimni bayon etish andozalari, fanda borliqqa yondashish usullari va tafakkur uslublarning o‘zgarishga bog‘liq. Bu andozalar, usullar va uslublar madaniyat kontekstida, uning har xil hodisalari ta’sirida shakllanadi. Bu ta’sirni ilmiy bilimning rivojlanish jarayoniga har xil ijtimoiy-madaniy omillarning qo‘shilishi sifatida tavsiflash mumkin. Biroq har qanday bilish jarayonida ob’ektiv va sub’ektiv narsalar va hodisalarning aloqalarini qayd etish hamda fanni inson ma’naviy faoliyatining boshqa shakllariga bog‘lab o‘rganish zarurligi fan bilan bu shakllar (kundalik bilish, badiiy tafakkur va sh.k.) o‘rtasidagi farq masalasini kun tartibidan chiqarmaydi. Ilmiy bilimning ob’ektivligi va moddiyligi bunday farqning birinchi va eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Fan inson faoliyatida faqat uning moddiy tuzilishini farqlaydi va hamma narsani shu tuzilish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Qadimgi afsonada podsho Midas nimaga qo‘l tekkizmasin, hammasi oltinga aylanganidek, fan ham nimaga murojaat etmasin, hamma narsa uning uchun ob’ektiv qonunlarga ko‘ra yashaydigan, faoliyat ko‘rsatadigan va rivojlanadigan predmetdir.

Fan nafaqat hozirgi amaliyot jarayonida o‘zgartiriladigan, balki kelajakda amalda ommaviy o‘zlashtirish predmetiga aylanishi mumkin bo‘lgan ob’ektlarni o‘rganishga qarab mo‘ljal olishi ilmiy bilimning ikkinchi o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu xususiyat ilmiy va odatdagi, stixiyali-empirik bilimni farqlash va fanning tabiatini tavsiflovchi ayrim tushunchalarni ta’riflash imkonini beradi.

3.3.Ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifi.

Hozirgi zamon fanlarining metodlari ilmning o‘zi kabi turli-tumandir. Shunga muvofiq metodlar turlicha klassifikatsiya qilinadi. Ilmiy nazariyalarni yaratish va ularni tekshirish metodi, ilmiy xulosalarni bayon etish metodi; falsafiy, umumnazariy va maxsus ilmiy metodlar; bulardan tashqari voqe’likni sifat va miqdor bo‘yicha o‘rganish metodlari farqlanadi. Fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning chuqurlashishi, muayyan fanlarning natijalari, modellari va metodlarni boshqa fanlarda qo‘llanilishiga olib kelmoqda. Fan metodining asosiy mazmunini yoki avval amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi: har qanday nazariya boshqa nazariyani yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunini yoki izchilligini belgilovchi metod vazifasini bajaradi. Ilmiy bilishda falsafiy metodlarning roli katta. Falsafaning aksariyat metodlari fan taraqqiyoti va differensiatsiyasida umumilmiy metod vazifasini bajargan. Xususan, falsafaning universal metodi bo‘lgan tarixiylik va mantiqiylik tamoyilining birligi metodi biologiya, ximiya, antropologiya, tarix va boshqa fanlarda evolyusion ta’limotning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Ijtimoiy bilishda tarixni mushohada qilish va tizimlashtirish, qiyoslash va modellashtirish barcha ijtimoiy fanlar uchun metod vazifasini bajaradi. SHuningdek alohida fan doirasida tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan o‘ziga xos metodlar mavjud bo‘lib, ular xususiy metodlar deb ataladi. Misol uchun, fizika, ximiya, astronomiya yoki mantiq fani doirasida muayyan holatni o‘rganish jarayonida ishlatiladigan tamoyil, tadqiqot usullari boshqa fan doirasida qo‘llanilishining iloji bo‘lmaydi.

Fanlararo tadqiqot metodlari esa bir nechta fan doirasida ditsiplinalararo tadqiqotlarga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan metodlardir. Misol uchun ijtimoiy sotsiologiya, ijtimoiy falsafa, sotsial psixologiya predmetlari orasida o‘rganilayotgan muammolar echishga yordam beradi. Bunga ma’lumotlarni sintetik va integrativ usulda ishlash, tizimli yondoshuv asosida xulosa chiqarish metodi ham misol bo‘la oladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlarining o‘ziga xos xususiyati. Hozirgi zamon metodologiyasi. Ijtimoiy gumanitar fanlar sohalar nuqtai nazaridan bir nechta yo‘nalishga bo‘linsada, mazmunan va mantiqan falsafaning klassik davridan shakllanib kelgan metodlarni o‘z sohalarida qo‘llaydilar. Bu holat ijtimoiy-gumanitar fanlar falsafadan differensiallashgani tufayli o‘z tarixiy ildizlarida tarixiylik va mantiqiylikning birligi, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyoslash va modellashtirish tamoyillari va metodlariga binoan nazariy korpusining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek zamonaviy metodologiyada postmodernistik falsafaning germenevtik, sinergetik va integratsion metodlaridan unumli foydalanish, ularni umumiy metodologik yo‘nalish sifatida qabul qilish ijtimoiy -gumanitar fanlarga xosdir.

Xususan germenevtika falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya fanlarida keng qo‘llaniladi. Germenevtika hozirgi zamonda etakchi falsafiy oqimlardan biri, tarixiy-falsafiy fan doirasida matnlarni nazariy asoslovchi va metodologik jihatdan tushuntiruvchi sohadir. Nemis faylasufi, psixologi, madaniyat tarixchisi Vilgelm Diltey (1833-1911) ijodida germenevtika fan sifatida takomillashdi va konseptual yo‘nalishiga ega bo‘ldi. Uning «Germenevtikaning vujudga kelishi», «Dunyoga bo‘lgan qarash, insonni Uyg‘onish va Reformatsiya davridan boshlab tadqiq etish» asarlarida inson ruhiyatini o‘rganish bilan bog‘liq yangi tafakkur tarzi shakllanishi masalalari tahlil etiladi. Aynan shu metod tufayli psixologiya fani falsafadan ajralib chiqdi. Diltey nazarida falsafa va tarixiy fanlarni bog‘lovchi vosita «talqin to‘g‘risidagi ta’limot», yoki germenevtika bo‘lib, u o‘tgan qaytarilmas va qorong‘u madaniy dunyolarni qaytadan yaratishga vositadir»1. Dilteyning germenevtikaga bergan ushbu ta’rifida tarixiy jarayon insonni emas, balki inson tarixiy jarayonning nimadan iborat bo‘lganini ochib beradi, degan muhim fikr bor2. U ushbu fikrni metod sifatida «Dunyoga bo‘lgan qarash, insonni Uyg‘onish va Reformatsiya davridan boshlab tadqiq etish» asarida qo‘lladi. Mazkur asarda inson ruhiyati, mental borlig‘ining din, madaniyat, mafkura va qadriyatlar mushtarak ta’siri doirasida shakllanishi va bu dinamik jarayonning konuniyatlari yoritib berilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda sinergetik metod ham muhim o‘rin tutadi. O‘z-o‘zini boshqarish, nochiziqli hodisalarni o‘rganish, o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish nazariyasi, tafakkur uslubi, metodi sifatida sinergetika shakllanish va tashkil bo‘lish jarayonini, inqilobiy o‘zgarishlarning ong-tafakkurga ta’sir etish holatlarini, ijtimoiy jarayonlar shakllanishidagi ichki va tashqi xususiyatlar mushtarakligini yaxlit ilmiy konsepsiya sifatida ochib berishga vosita bo‘ladi. Sinergetikada nochiziqli tafakkur tarzining e’tirof etilishi ijtimoiy ong shakllaridagi o‘zgarishlar va qonuniyatlarning imkoniyatlarini keng tadqiq etishga yo‘l ochadi.

Integratsion metod hozirgi zamon ijtimoiy gumanitar fanlarida keng qo‘llanilayotgan metod hisoblanib, ushbu metod fanlar aro tadqiq etiladigan mavzularni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodning shakllanish davri o‘tgan asrning 80-yillaridagi G‘arb sotsial antropologiyasiga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot davrida fanlarning va ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi bir fanning ikkinchisiga, yoki bir nazariyaning ikkinchisiga qo‘shilib ketishini emas, balki ularning sintezini va organik birligini ifodalaydi. Tushunchalar aloqasining yangi tizimida integratsiyalashgan fanlar transformatsiyalashadi»1. Dastlab bu kabi metod o‘tgan asrning o‘rtalarida aniq fanlar doirasiga kirib kelgan va bu sohada katta kashfiyotlarga sabab bo‘lgan edi. O‘tgan asrning oxirgi o‘n yilligida G‘arb ijtimoiy fanlarida bu metodning ommaviylashib ketishi etakchi yo‘nalish hisoblangan sotsial antropologiyaning o‘z tarkibida takomillashib ketishiga hattoki uning doirasida aniq fanlar tajribalari ham qo‘llanishiga olib keldi. Ijtimoiy antropologiya fani uchta asosiy yo‘nalish:

antropologiya, lingvistik antropologiya, etnologiya yoki sotsial-madaniy antropologiyaga bo‘linsa, uning tarkibidagi mental sog‘liq va madaniy taraqqiyot darajasini o‘rganuvchi fan etnologiya o‘z ichidan turli yo‘nalishlarga differensiallashdi: «Jumladan, G‘arbiy Evropa etnologiyasida iqtisodiy (xo‘jalik) etnologiya, ijtimoiy etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya yo‘nalishlari shakllandi va istiqbolli rivojlanib bormoqda».

Ijtimoiy falsafa, sotsialantropologiya, tarix fanida bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan metod «oral history»-«og‘zaki tarix» metodidir. Bu xalq og‘zidan eshitilgan, sistemalashtirilgan, lekin tarixiy xujjatlarda o‘z ifodasini ba’zi siyosiy vaziyatlar sabab topa olmagan materiallardan foydalanish uslubi. Xususan, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida O‘zbekistonda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda, “ocharchilik”, “qatog‘on”, “paxta ishi” kabi siyosiy o‘yinlarda tarixiy haqiqatning ob’ektiv dinamikasini aniqlashda mazkur metod - «og‘zaki tarix»ga murojaat qilingan. Mazkur metod haqidagi g‘oya birinchi bo‘lib Italiyada 1979 yili «Og‘zaki tarix uslubining spetsifik xususiyatlari» maqolasida paydo bo‘ldi. Ushbu metodning G‘arbiy Evropa zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlariga kirib kelishi XX asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. «Og‘zaki tarix» metodi asosida bo‘lib o‘tgan voqea hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, boshidan o‘tkazgan respondentlar bilan suhbatlar olib borish, bu kabi suhbatdoshlarning bir nechtasining hikoyalaridagi faktlarni tarixiy manbalar bilan solishtirish, tarixdagi oq dog‘lar yoki buzib ko‘rsatilgan voqea-hodisalarni informatorlarning ma’lumotlaridan aniqlashtirishdan iborat.

Og‘zaki tarix uslubi etnografiya, tarix, sotsiologiya, mantiq, psixologiya kabi fan yo‘nalishlarining ilg‘or metodlarini o‘z tizimida birlashtirib, o‘zbek xalqi tarixida qaytadan jiddiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalarga gumanitar fanlarning integratsion yondashuvini taqozo qilib qo‘ydi.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Shakllanish, o‘zgarish va rivojlanish tushunchalari.

Asrlar mobaynida insoniyat ongida o‘zgarish, rivojlanish, taraqqiyot yoki turg‘unlik kabi jarayonlar tushuncha sifatida shakllanib kelgandir. Dastlab bu g‘oya bir hodisaning vujudga kelishi va boshqasiga aylanishi, shakllanishi haqidagi tasavvur ko‘rinishida uyg‘ongan. Insonlar ongida tarixiy jarayonda hosil bo‘lgan madaniy taraqqiyot, sivilizatsion o‘zgarishlar, jamiyat rivojlanish xususiyatlari, urush va tinchlik omillarining insonlar turmush tarziga ta’siridan olingan tasavvur va tajribalar bu tushunchalar haqidagi bilimlarni boyitdi. Masalan, qadimgi yunonlar dunyoda hamma narsa takrorlanadi va aylanib-aylanib ma’lum muddat o‘tgach «o‘zining dastlabki doirasiga» qaytib keladi, deb hisoblashgan. Dunyo mangu va yaratilmagan, u muayyan siklda takrorlanuvchan xilqatdir. Geraklit: «Dunyo yagonadir va u na biror odam, na biror xudo tomonidan yaratilmagan, u bo‘lgan, bor, bo‘ladi va u mangu alangalanib va so‘nib turuvchi olovdan iboratdir»- deb xitob

qilgan edi. Antik falsafaning aksariyat vakillari borliqning doimiy ravishda harakat, o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lish g‘oyasini talqin qiluvchi ta’limotlar yaratdilar.

Sharq falsafasida ham zardushtiylikning abadiylik va cheksizlikni targ‘ib qiluvchi dualistik ta’limoti borliqning atributi bo‘lmish abadiy va to‘xtovsiz harakat g‘oyasini targ‘ib qiladi. Hindiston va Yaqin Sharq, Markaziy Osiyoning qadimgi an’analarini davom ettirgan Ilk o‘rta asr Sharq falsafasi Islom teologiyasiga borliqning makon, zamon va harakatda abadiyligi va cheksizligi g‘oyasini olib kirdi. Bu fikrlar rivojlanishini o‘tmishdan kelajakka qarab yo‘nalgan jarayon sifatida tushunishga turtki bergan muhim g‘oyalardir.

Rivojlanish jarayonining zamirida harakat va o‘zgarish yotadi. O‘arakat - bu ham bir o‘zgarishdir. Agar harakatni umuman o‘zgarish, ya’ni har qanday o‘zgarish ma’nosida tushunsak, rivojlanish alohida shakldagi o‘zgarishdir. Rivojlanish jarayonida ob’ektni tashkil etuvchi barcha elementlar o‘zgarishga uchraydi. Lekin, bu elementlar bir-biriga asoslangan va bir-biriga aloqador holda, kompleks va yahlit holda o‘zgaradi.

Rivojlanayotgan sistema kompleks va yaxlit o‘zgarishi natijasida bir miqdoriy va sifatiy holatdan boshqa o‘zgargan miqdoriy va sifatiy holatga o‘tadi. Shu tariqa o‘zgarish sistemaning yaxlit o‘zgarib ketishiga (boshqa sistemaga aylanishiga) sababchi bo‘ladi, ya’ni rivojlanish - bu holatlarning aylanib turishidir. Agar biz bu jarayonni vaqtning o‘tishi nuqtai nazaridan izohlasak, quyidagi fikrga kelamiz: hozirgi zamon o‘tgan zamonning aylangan holati va kelgusi zamonning aylanadigan holati, kelajak esa hali aylanishga ulgurmagan hozirgi zamondir. Bundan, siklik aylangan holat rivojlanishning natijasidir, degan xulosa kelib chiqadi. Sistemaning aylanishi o‘zining yo‘nalishiga egadir. Sistema paydo bo‘lishda, yangilanishda, gullab-yashnashda, ravnaq topishda, qarish-chirishda va halokat holatida bo‘lishi mumkin. Bularning hammasi aylanish oqibatida sodir bo‘ladi. Aylanishlar sistema tashkiliy holatini murakkablashtirishi, yoki aksincha soddalashtirishi mumkin. SHunga qarab sistema ravnaq sari, yoki inqiroz sari yo‘naladi. Bu esa, rivojlanish - yo‘nalishga ega bo‘lgan o‘zgarishdir, degan xulosani beradi.

Dunyoda absolyut izolyasiyalangan, alohida ajratilgan, absolyut yopiq sistemaning o‘zi bo‘lishi mumkin emasligidan rivojlanayotgan sistema, u bilan yonma-yon yashayotgan boshqa qo‘shni sistemalar bilan o‘zaro aloqadorlikka kirishadi, buning oqibatida u ichki va tashqi o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar mazkur sistemaning erkinlik darajasining (ichki va tashqi aloqalarning) kuchayishiga (progressiv rivojlanishda) yoki susayishiga (regressiv rivojlanishda) olib boradi. Bunday ichki va tashqi aloqadorliklar oqibatida rivojlanayotgan sistema har tomonlama o‘zgarishga uchraydi. Bunday xilma-xil o‘zgarishlar esa orqaga qaytmaslik xususiyatiga egadir. Bundan, rivojlanish - orqaga qaytmas jarayonlar, degan xulosa kelib chiqadi. Rivojlanish jarayonida sistemadagi o‘zgarishlarning bunday xususiyatlardan kelib chiqib rivojlanishga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Rivojlanish sistemaning shunday yaxlit, kompleks, yo‘nalishga ega bo‘lgan, orqaga qaytmaydigan fazo-vaqt strukturasi o‘zgarishiki, uning natijasida sistema bir miqdoriy va sifatiy holatdan boshqa miqdoriy va sifatiy holatga o‘tadi.

Rivojlanish jarayonida sistemaning yangi holati uning avvalgi holatini inkor etish natijasida paydo bo‘ladi. Rivojlanayotgan sistemaning hozirgi holati uning o‘tmishdagi holatini inkor etish evaziga vujudga keladi. Sistemaning avvalgi va keyingi holatlarini taqqoslash natijasida biluvchi sub’ekt rivojlanishning sur’atini va yo‘nalishini aniqlashi mumkin. Agar rivojlanuvchi sistema nisbatan kam tashkillashgan holatdan yuqoriroq darajada tashkillashgan holatga o‘tgan bo‘lsa, bunday sistemadagi rivojlanish progressiv yo‘nalishga ega bo‘ladi, agar sistema nisbatan yuqori darajada tashkillashgan holatdan pastroq darajadagi tashkillashgan holatga o‘tsa, rivojlanish regressiv yo‘nalishda borayotgan bo‘ladi. Agar rivojlanish natijasida sistemaning tashkillashgan holati o‘zgarishsiz qolsa, bunday rivojlanish bir tekisdagi rivojlanish deyiladi. Bunday holatlarda sistemaning murakkablik va tashkillashish darajasi ilgarigidek qolgani bilan, uning elementlari o‘rtasidagi va uning boshqa sistemalar orasidagi o‘rni o‘zgaradi, bunday o‘zgarishlar u bilan yonma-yon yashayotgan yoki unga nisbatan kengroq bo‘lgan boshqa sistemalarda progressiv yoki regressiv rivojlanishlar sodir bo‘lishga zamin yaratadi. Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi, bir solatdan ikkinchi holatga o‘tib turishi, rivojlanishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zaro tasir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o‘rtasida turli aqs, munozara, tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Chunki ular to‘g‘risida aniq bilimga ega bo‘lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to‘g‘risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo‘lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, yani eng mayda zarrachalardan tortib to er, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o‘zgarish va rivojlanishdadir. Ular o‘rtasida abadiy o‘zaro bogliqlik, o‘zaro tasir va aloqadorlik mavjud. Olamda o‘z-o‘zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o‘zgarish ham yuz bermaydi.

Nazorat savollari:

3.1.Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlari haqida nimalrni bilasiz?

3.2. Metod va metodologiya tushunchasi ?

3.3.Ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifi haqida nimalarni bilasiz?

Asosiy adabiyotlar:

1. Falsafa. Darslik. //Ahmedova M.A. umumiy tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti., 2006.

2. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-e, pererabotannoe, dopolnennoe. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. – T.: Mehnat. 2004.

3. Shermuxamedova N.A. Falsafa.Darslik. -T.: Noshir, 2012.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Rasulev E., Igoshin V., Abdullaeva G. Osnovi filosofii. Uchebnoe posobie. –T.: Iqtisod-moliya, 2012.
2. To‘raev B. Borliq:mohiyati, shakllari, xususiyati. –T.:O‘zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.
3. Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa.Darslik.–T.:Fan va texnologiya, 2016.
4. Tulenova K.,Izzetova E.M.,Agaronyan Yu.A.,Li E.V.Osnovi filosofskoy nauki. Uchebnoe posobie.-T.: TGPU, 2015.
5. Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004.
6. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. –T.:Noshir,2012.
7. Shermuxamedova N.A.Gnoseologiya– bilish nazariyasi.–T.: Noshir, 2009.
8. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. Izohli lug‘at. –T.: Tamaddun, 2015.
9. Sharipov M. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. –T.: Unversitet, 2007.
10. To‘raev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. – T.,2009.
11. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. – T.: Universitet, 2009.
12. Muhammadjonova L.,Obidjonova F.Etiket.O‘quv qo‘llanma.–T.: Universitet, 2013.
13. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika / Monografiya. – T.: Noshir, 2012.
14. Karmin A.S., Bernaskiy G.G. Filosofiya. –M., 2009.
15. Slovar filosofskix terminov. –M.:Infra-M, 2010.
16. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. –M.: Gardariki, 2013.
17. Krivsun O.A. Estetika. –M.: Gardariki, 2013.

Internet saytlar:

1. http://www.ziyonet.uz
2. www.library.ziyonet uz.
3. http://www.faylasuf.uz
4. http://booksss.ru filosofiya//Slovar_Philosof.rar
5. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Alekseev P., Panin A. Filosofiya. M., 2014.
6. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.N. Lavrienko. M., 2013.
7. http://znanium.com/bookread2.php?book=309109. Filosofiya/ Pod red. V.P. Koxanovskogo. M., 2013.

8. Biblioteka Fort/Da: http//yanko.lib/ru Filosofiya. Pod red. A.F.Zotova, V.V.Mironova, A.V.Razina. Uchebnik dlya vuzov. M.:MGU.2004.

9. LOGIC.RU Portal/ Biblioteka // http://logic.ru/ru Voyshvillo E.K., Degtyarev E.K. Logika.Uchebnik. –M.: Vlados, 2001.

10. http://logic.philosophy.pu.ru/Bocharov V.A.,Markin V.I.Osnovы logiki. M.: Forum-INFRA-M, 2005.

11. http://booksss.ru/logika// Bocharov V.A., Markin V.I. Vvedenie v logiku: Uchebnik. M.: ID «FORUM», 2008.

12. Nauchnaya biblioteka MGU http://www.lib.msu.ru Adorno T.V. Esteticheskaya teoriya. M., 2001.

13. Nauchnaya biblioteka MGU http://www.lib.msu.ru Вычkov V.V. Estetika. M., 2003.

14. Nauchnaya biblioteka MGU http://www.lib.msu.ru Sotsiokulturnые problemы dizayna. Rostov-na-Donu, 2008.

4-Mavzu. Analitik falsafaning vujudga kelishi. (2 soat)

Reja:

4.1. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari.

4.2. Mantiqiy pozitivizm neopozitivizmning shakli sifatida

4.3. Analitik epistemologiya.

4.1.Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari.

Analitik falsafa — XX asr falsafasidagi g‘arbiy, asosan ingliz-amerikacha yo‘nalish; falsafani bilishning asosan til vositalari orqali tahlili deb tushunadi; neopozitivizmning boshqa bir ko‘rinishi. Asosiy oqimlari: 1) mantiqiy tahlil qilish falsafasi; zamonaviy matematik mantiq vositalari — mantiqiy empirizm (R. Karnap, K. Gempel, F. Frank) va mantiqiy pragmatizmda foydalanadi (U. Kuayn, N. Gudmen);

XX asr intellektual madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu analitik falsafaning rivojlanishi va kuchayib borishi bo‘ldi. Uning kelib chiqishi ingliz faylasuflari Jorj Edvard Mur va Bertran Rassel hamda nemis mantiqshunosi va matematigi Gott-lob Frej (1848-1925) bilan bog‘liq edi. Analitik falsafa bilim asoslarini o‘rganish an’analarini meros qilib oladi - hissiy, empirik va oqilona, nazariy shaklda. T. Xobbs, J. Lokk, J. Berkli, D. Xyum, J.S.Mill, E. Mach, shuningdek Aristotel va o‘rta asr sxolastikasi, R. Dekart, G.V. Leybnits, I. Kant va boshqalar. O‘tgan asrlarda ishlab chiqilgan inson tajribasini tahlil qilish g‘oyalari va usullari unda ushbu tajriba ifoda etilgan va talqin qilingan tilni o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq holda ishlab chiqilgan.

"Mantiqiy tahlil" atamasini fanga J.Mur va B.Rassellar kiritdilar. Dastlab u tadqiqot usulini tavsiflagan bo‘lsa, keyinchalik bu usulni qo‘llagan falsafiy yo‘nalish nomini aniqladi. "Analitik" to‘lqinning faylasuflari doirasi biroz xiralashgan: ularni falsafiy tushunchalar mavzusi yoki turi emas, balki ish uslubi birlashtiradi. Uning

umumiy xususiyati - falsafiy muammolarni hal qilish uchun tilni batafsil o‘rganish (mantiq va tilshunoslikning so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda). Tahlil falsafasining asosiy maqsadlari tafakkur tuzilishini aniqlash, noaniq va tushunarsiz bo‘lgan hamma narsaga oydinlik kiritish, til va haqiqat o‘rtasidagi "shaffof" o‘zaro bog‘liqlikka erishish, mazmunli va bo‘sh ifodalarni, mazmunli va ma’nosiz iboralarni aniq ajratishdir.

Analitik falsafa doirasida ikkita yo‘nalish ajratiladi: mantiqiy tahlil falsafasi va lingvistik tahlil falsafasi (yoki lingvistik falsafa). Birinchisining tarafdorlari asosan fan falsafasi va mantig‘iga qiziqishadi. Ikkinchisining tarafdorlari bunday yo‘nalishni sun’iy va juda tor deb hisoblashadi, falsafiy qarashni haddan tashqari cheklaydi. Ularning nuqtai nazari bo‘yicha falsafa insonning haqiqiy tushunchasida, hayotiy vaziyatlarda, tabiiy til mexanizmlarida yotadi.

Mantiqiy tahlil falsafasi G.Frege va B.Rassel g‘oyalariga, shuningdek, L.Vittgensteynning "Mantiqiy-falsafiy traktat" konsepsiyasiga asoslanib, butun analitik falsafa tamoyillarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Tilshunoslik falsafasining kelib chiqishi J.Mur faoliyati bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalishning etuk kontsepsiyasi Vitgenstayn tomonidan ham ishlab chiqilgan - uning ishining ikkinchi davrida.

Analitik falsafaning dastlabki muammolari va tushunchalari G. Frejening "Hissiyot va ahamiyat to‘g‘risida" (1892) maqolasida bayon qilingan. O‘sha paytda mutlaqo boshqa tipdagi falsafa kuchliroq mavqega ega edi. Keng xalqaro neogellik harakatining ta’siri oshdi. Angliyada uning shakllaridan biri - mutlaq idealizm hukmronlik qildi. Ushbu maktab XIX asrning 70-yillarida kuch topdi, XIX asrning birinchi yarmida bu erda ongda hukmronlik qilgan "sog‘lom fikr" va pozitivizm falsafasini soya qildi.

Mutlaq idealizm tarafdorlari o‘zlarining falsafasining asosiy g‘oyasi - Mutlaq g‘oyasini - Absolyutni o‘zaro bog‘liq ruhiy yaxlitlik sifatida tasavvur qilish mumkin bo‘lgan eng yuqori, mukammal haqiqat deb tushunib, Gegeldan olishdi. Haqiqat oqilona, "mutlaq", oxir-oqibat ilohiy "tajriba" bilan aniqlandi. Oddiy odamning tajribasi tashqi ko‘rinish deb e’lon qilindi. Mutlaq idealizm falsafasi dunyodagi odamlarning yo‘nalishi uchun juda muhim bo‘lgan haqiqat tuyg‘usiga zid edi. Demak, idealizmni realizm nuqtai nazaridan tanqid qilish tushunarli - 20-asrning falsafiy mentaliteti (neorealizm, tanqidiy realizm, ilmiy realizm va boshqalar), bu bilish sub’ektining inson ongi va kognitiv harakatlaridan mustaqilligini ta’kidlaydi (o‘rta asrlarning "realizmi" bilan aralashmaslik kerak).

Mutlaq idealizmning xarakterli xususiyati Absolyutning "yaxlitligi" (birligi, to‘liqligi) ga, butunning individual, cheklangan hodisalarga nisbatan so‘zsiz ustunligiga urg‘u berish edi. Ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan, bu shaxsning davlat tomonidan singib ketishini, bilim nazariyasida esa sintezning tahlildan ustunligini

taxmin qildi. Ushbu pozitsiyaning nomi - holizm. Unda analitik fikrlash asoslari zaiflashadi - voqelikni mantiqiy bo‘linish u yoki bu tarzda.

Analitik burilish deb nomlanuvchi falsafiy yo‘nalishni boshlash 1898 yilda boshlangan. Bu davrda Mur va Rassel mutlaq idealizmga qarshi chiqdilar, unga falsafiy realizm va tahlil tamoyillari bilan qarshi chiqdilar.

Mur "yutuqni" idealizmdan realizmga, so‘ngra Rasselga boshladi. Ular ilgari o‘zlari kuchli ta’sir ko‘rsatgan neogegelizmning pozitsiyalari va dalillarini tanqid qildilar. Mutlaq haqidagi ta’limot o‘zining yaxlitligi prinsipi bilan plyuralizm va atomizmga qarshi edi. Ikkala faylasuf ham bilimlar nazariyasining realizm ruhida hal qilingan an’anaviy muammolariga katta e’tibor berdilar: bilim sub’ektining idrokidan mustaqilligini, uni hukm qilishdan haqiqatni tan olish. Agar biz tadqiqot usullarini nazarda tutsak, demak Mur ham, Rassel ham falsafadagi analitik harakatga turtki berib, tahlilchi rolini bajargan. Rassell diqqatini ramziy mantiqning analitik imkoniyatlariga va matematikaning asoslarini o‘rganishga qaratdi. Bu erda u G. Frege asarlaridan boshlandi. Mur esa falsafiy tushunchalar va muammolarni oddiy til va sog‘lom fikr yordamida tahlil qilish bilan shug‘ullangan.

Jorj Edvard Mur (1873-1958) - ingliz faylasufi, ingliz-amerika neorealizmi va analitik falsafaning lingvistik bo‘limi asoschilaridan biri.

Mur o‘zini 1903 yilda, uning ikkita asari: "Idealizmni rad etish" maqolasi va "Axloq asoslari" kitobi nashr etilganida, o‘zini faylasuf deb ta’kidlaydi. Ular Murning shu vaqtgacha aniqlangan manfaatlari to‘g‘risida guvohlik berishdi: eng muhimi, uni ikki yo‘nalish o‘ziga jalb qildi: bilimlar nazariyasi va axloq falsafasi. "Idealizmni rad etish" maqolasi mutlaq idealizm tafakkuriga qarshi bo‘lgan Angliyada realistik harakatning boshlang‘ich nuqtasiga aylandi. Mur falsafiy idealizmni rad etib, sog‘lom fikrni himoya qildi - sub’ektga (bizning men, odamlar ongiga) va uning tanib olinishiga bog‘liq bo‘lmagan ob’ektiv dunyo borligiga o‘ziga xos ishonchi bilan. Bilim nazariyasi muammolarini hal qilishda u ishonchli realist, tadqiqot metodlarida esa tahlilchi rolini o‘ynadi. Idealizmni tanqid qilish, aqlni himoya qilish va hissiy ma’lumotlar haqidagi savolga analitik usulni qo‘llash - bu uning ijodida eng muhim o‘rinni egallagan masalalar.

Mur o‘z tanqidini birinchi navbatda "tajriba" va "haqiqat" ning idealistik identifikatsiyasiga qarshi yo‘naltirdi. Shu bilan birga, u bir tomondan ong harakati bilan boshqa tomondan ob’ekt o‘rtasidagi qat’iy farq printsipidan kelib chiqib, ob’ektlar haqidagi bilimlarimizning ishonchliligini doimo ta’kidlab o‘tdi. SHunday qilib, "Idealizmni rad etish" da "bor bo‘lish uchun" (lotincha esse percipi) idealistik prinsipni bekor qilish, go‘yo shuni anglatadiki: sezilmaydigan xususiyatlar mavjud emas.

Mur idrok etishning o‘ziga xosligi haqidagi dalilni noto‘g‘ri deb hisoblaydi. Bunday holda, ob’ekt faqat ongning "mazmuni" bilan ifodalanadi, ob’ektning xususiyati ushbu xususiyatni idrok qilish bilan aralashadi va hokazo. Ayni

paytda, Mur tushuntiradi, biz hech qachon o‘z ongimiz doirasida yopiq bo‘lmaymiz, tashqi dunyo va boshqa odamlardan ajralib turamiz. Bizning bilimimiz uchta fikrni ham qamrab oladi. Keyinchalik Mur o‘z dalillarini biroz yumshatdi. Uning ta’kidlashicha, odamlar hech bo‘lmaganda ma’lum bir vaqtda kuzatilmaydigan hissiy idrok etiladigan narsalar, agar ular ularni kuzatishga imkon beradigan holatda bo‘lsa, kuzatilishi mumkinligiga ishonishga juda moyil. Uning uchun bu shubhasiz: idrokdan tashqari narsalarning mavjudligiga instinktiv ishonchni rad etish mumkin emas.

Mur shuningdek fizik faktlar ong faktlariga sabab yoki mantiqan bog‘liqdir degan xarakterli idealistik fikrni tahlil qiladi va odamlarning biron bir ongi xonadagi ob’ektlarning joylashishini o‘zgartira olmaydi yoki Erning uzoq muddatli mavjudligini bekor qila olmaydi degan tabiiy ishonchni asoslashga intiladi.

Mur ta’kidlaganidek, eng umumiy jumlalarning haqiqati - jismoniy narsalar, boshqa odamlar borligi - bu bizning tafakkurimizning umumiy uslubiga, ko‘p hollarda bizning aniq ishonchimizga bevosita bog‘liqdir: biz buni bilamiz. Hatto bunday pozitsiyalarni rad etish ham ularni rad etadigan (yoki ularning) mavjudligini anglatadi. U "ongdan tashqarida bo‘lish", "kosmosda uchrashish" va boshqalar tushunchalari o‘rtasida yaqin semantik (analitik) aloqani o‘rnatadi. Ushbu asoslarning chegaralarida, endi tanqidga berilib ketmasliklari va himoyaga muhtoj emasliklari to‘g‘risida aniq dalillar aniqlanadi. Odam ko‘p sodda va inkor etilmaydigan haqiqatlarni qaerdan bilishini bilmaydi, ularni shunchaki aniq biladi. Va bu bilimni silkitib bo‘lmaydi. Barcha aql-idrok va hatto tilning o‘zi aniq narsalarni inkor etishga qarshi chiqadi, bizni qarama-qarshiliklarga duchor qiladi, noaniq va sarosimaga tushadi.

Faylasuf o‘zini tashvishga solayotgan muammolarni hal qilish uchun hislar va boshqa boshqa hissiy tajriba shakllarini tahlil qilishga katta ahamiyat bergan.

Mur sensorli ma’lumotlar va jismoniy narsalar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasiga katta e’tibor berdi. U sezgilarni tahlil qilish "hissiy tajriba" va "haqiqat" o‘rtasidagi farqni ochib berishga yordam beradi, deb tushunadi. Bunday tahlil yordamida hissiyotlarning o‘zgarishini kuzatib va taqqoslab, u go‘yo hissiyot va his o‘rtasidagi "bo‘shliqni", ularning nomuvofiqligini ochib berishga muvaffaq bo‘ldi. Masalan, bitta ob’ekt, unga hamroh bo‘lgan sharoitga qarab, sovuq yoki iliq deb qabul qilinadi. Bir xil rang yalang‘och ko‘z bilan mikroskop ostida turlicha qabul qilinadi. Ob’ektni bir butun sifatida, hatto uning elementlari ko‘p rangli bo‘lsa ham, bitta rang sifatida qabul qilish mumkin. Bunday farqlar yordamida, Mur ishonganidek, o‘zi bilvosita o‘zi ob’ekt deb atagan narsasini e’lon qiladi va shu tufayli sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi bilim aloqasi tush emas, balki "xabardorlik" sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, Mur hissiy jihatdan berilganlarni tahlil qilish faqat ma’lum chegaralar doirasida qo‘llanilishini va falsafiy muammolarni hal qilish uchun universal usul bo‘la olmasligini tushundi. Darhaqiqat, hissiy ma’lumotlardan

tashqari, ob’ektlarni bilish jarayoni yana bir narsani o‘z ichiga oladi, buning natijasida biron bir vaqtda (xotira buni talab qiladi) berilgan tasvirdan ushbu tasvirning biror narsaga tegishli ekanligiga ishonchliligiga o‘tish "mo‘jizasi" sodir bo‘ladi. Mur nafaqat shahvoniy berilganlarni tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, tilning semantik tahliliga tobora ko‘proq ahamiyat berib, falsafiy tushunchalarni, tezislarni, paradokslarni aniqlashtirish tartiblarini ishlab chiqdi.

Murning so‘zlariga ko‘ra, tahlil qilish tilni so‘zlar va tushunchalar, jumlalar va so‘zlar o‘rtasidagi farq bilan o‘z ichiga oladi. Bu ba’zi bir iboralarni ma’no jihatidan bir xil bo‘lgan boshqalarga almashtirish bilan "tarjima" turini yaratishga imkon beradi. Tahlilning mohiyati dunyo haqidagi yangi faktlarni kashf etish emas, balki tushunchalar va bayonotlarni aniqlashtirishdan iborat. Faylasuf to‘g‘ri tahlil qilish uchun ba’zi shartlarni, xususan, tahlil qilinadigan va tahlil qilinadigan tushunchaning o‘ziga xosligini talabini ko‘rsatdi, garchi bunday talab tahlil paradoksiga olib keladi va uning qat’iy ta’rifini murakkablashtiradi.

Mur tahlilga katta ahamiyat berib, shunga qaramay, unda falsafaning vazifalaridan faqat bittasini ko‘rdi, ikkinchisi tahlilga o‘tishini hisobga olmadi. U sog‘lom fikrlar haqiqatlarini falsafiy bayon qilish va ushbu haqiqatlarni falsafiy tahlil qilish, falsafiy bayonotlarni isbotlash jarayoni va asoslarni tahlil qilish, ushbu dalilning xulosalarini aniq ajratib ko‘rsatdi. Boshqacha qilib aytganda, falsafaning o‘zi qiymati shubha ostiga olinmadi va uning eng muhim ishi olamni bir butun sifatida tasvirlashga intilish edi.

Murning 20-asrning birinchi yarmida Angliyada falsafiy fikr rivojlanishiga ta’siri umuman tan olingan. Va eng muhimi, u falsafa uslubiga juda sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uning shogirdlari ta’kidladilar: "Murdan keyingi falsafa hech qachon Murdan oldingi kabi bo‘lolmaydi, chunki u falsafashunoslikka kiritgan aniqlik va aniqlik mezonlari va eng muhimi, falsafiy yo‘nalishga egaligi tufayli tadqiqot". Nafaqat matnlarda keltirilgan dalillar (ularning soni unchalik ko‘p emas), balki Murning hamkasblari va Tinglovchilari bilan doimiy aloqasi, ma’ruzalari, munozaralarda qatnashishi ham falsafiy realizm pozitsiyasining mustahkamlanishiga yordam berdi. Mur ingliz tilidagi falsafiy tajribani va sog‘lom fikrni qayta tikladi, unga tilga katta e’tibor berib, yangilangan ko‘rinish berdi. Bu analitik falsafaning kelib chiqishi edi. Mur falsafadagi analitik harakatga turtki berdi. Uning orqasidan bu yo‘lda mantiqiy tahlil falsafasining shakllanishiga hal qiluvchi hissa qo‘shgan B. Rassel kirib keldi.

4.2.Mantiqiy pozitivizm neopozitivizmning shakli sifatida

Bertran Rassel (1872-1970) - dunyoga mashhur ingliz olimi, faylasufi, jamoat arbobi. O‘n olti yoshida u xudojo‘y otasi J.S. Millning "Avtobiografiyasini" o‘qidi, bu unga katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, o‘n sakkiz yoshida Rassell o‘qigan

falsafa bo‘yicha birinchi nazariy asarga ega edi. Ushbu asar ("Mantiqiy tizim") Rasselning kelajakdagi falsafiy pozitsiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Rassel ijodida uch davr mavjud. Birinchisi, matematika va falsafaning rivojlanishiga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotlar bilan bir qatorda taxminan o‘n yil davom etdi (1890-1900). Keyingi, eng samarali davr (1900-1910) matematikaning asoslarini mantiqiy o‘rganishga bag‘ishlandi. Bu vaqtda Rassell "Matematikaning asoslari" kitobini (1903), "Notatsiya to‘g‘risida" (1905) maqolasini va A. N. Uaytxed bilan hamkorlikda "Principia Matematica" ("Matematikaning asoslari") asarini yozdi. 1910 yilga qadar yakunlangan so‘nggi asar mualliflarga butun dunyoga shuhrat keltirdi. Qirq yoshli Rassel uchinchi davrga kiradi, uning asosiy mazmuni keng falsafiy mavzularni ishlab chiqish va ommabop asarlarni nashr etish edi, bu Rassellning o‘zi tor doiradagi mutaxassislar uchun tadqiqotlardan ko‘ra ko‘proq qadrlanadi.

Qariyb yuz yil yashab, Rassel bilimlar nazariyasi va falsafa tarixini, din va axloq muammolarini, pedagogika va siyosatni o‘z ichiga olgan ko‘plab asarlar yaratdi. U o‘zining avtobiografiyasida, "Mening intellektual rivojlanishim" maqolasida va "Mening falsafiy rivojlanishim" kitobida o‘z ishini va qarashlar evolyusiyasini to‘liq yoritib, tanqidiy tahlil qildi. Muallifning umumiy falsafiy mulohazalari ba’zida eklektik edi; u ko‘pincha turli xil ta’sirlarga tushib, bir-biridan farq qiladigan tushunchalarni ishlab chiqdi. Uning eng jiddiy va doimiy falsafiy qiziqishlari matematika va ramziy mantiq bilan bog‘liq edi. Ushbu bilim sohalarida u analitik falsafaning rivojlanishini belgilaydigan asosiy hissa qo‘shdi.

Rasselning bilimlarning mohiyatini o‘rganishga bo‘lgan diqqat-e’tibori ham doimiy ravishda barqaror bo‘lib qoldi. Bu uning uchun falsafiy muammolar bilimlar nazariyasiga toraygan degani emas edi: "biz yashayotgan dunyo nima" degan savol muhimroq deb hisoblangan. Ammo bu savolga faqat insonlar nimanidir bilishi mumkinmi yoki yo‘qmi, agar bilsa, nimani va qanday qilib tushunishni anglash orqali javob berish mumkin edi. Xyum va Kant an’analariga amal qilgan holda, Rassel bilimga nisbatan ikkita tubdan farq qiluvchi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi: aql-idrokka asoslangan naturalistik va bilim natijalariga tanqidiy munosabat asosida ancha chuqurroq - falsafiy. Birinchisining xarakterli xususiyati - sodda realizm, narsalarning ular idrok etilishicha borligiga ishonish. Falsafiy izlanishlar jarayonida aniq ko‘rinadigan, sodda, aslida murakkab tuzilmalar o‘rnida bo‘lganligi, ilgari aniq bo‘lib tuyulgan "sodda" vaziyatlarning ishonchliligi haqida shubha tug‘dirishi tushuniladi. Natijada, qat’iy ishonch metodik ehtiyotkorlik bilan almashtiriladi. Etuk ilmiy bilimlar (va Rassell uchun va umuman, ko‘pgina fan faylasuflari uchun, odatda, fizika va matematika edi) bilim va uning ob’ekti o‘rtasida sezilarli masofaning mavjudligini tan oladi, ilmiy tadqiqotlar jarayonida ob’ektlarni rekonstruktsiya qilish usullarining murakkabligini hisobga oladi.

